




Tadqiqot UZ



**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



**30 NOYABR
№34**

CONFERENCES.UZ

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 34-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
10-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
34-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-10**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
34-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-10**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)

КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 34-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 ноябрь 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 105 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохидат Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҶАЛАРИДАГИ
ИННОВАЦИЯЛАР

1. Amonova Moxichexra Xamroyevna BOSHLANG'ICH SINFLARIDA AXBOROT-KOMUNIKATSION TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING SAMARASI	9
2. Ashurova Iroda Turaqulovna BOSHLANG'ICH SINFLARIDA ERTAKLAR ORQALI O'QUVCHILARNI MA'NAVIIY TARBIYALASH	12
3. Elamonova Shoxsanam Erkinovna MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA DIQQATNING RIVOJLANISHI.....	14
4. Ergasheva Sayyora Uktamovna BOSHLANG'ICH SINFLARIDA O'QUVCHILARIDA OG'ZAKI NUTQNI RIVOJLANTIRISH	16
5. Islamova Nafisa Narzullayevna 2-SINF MATEMATIKA DARSLARIDA ZAMONAVIIY USULLARDAN FOYDALANISH.....	18
6. Ruzinazarova Gulnora Achilovna TA'LIM JARAYONI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INTERFAOL METODLAR VA ULARNING TASNIFI.....	20
7. Quchqorova Yulduz Shodi qizi BOSHLANG'ICH SINFLARIDA O'QUVCHILARI O'RTASIDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH	22
8. Raxmonovaq Ibodat Abdikamol qizi MATEMATIKADA MILLIY O'QUV DASTURINING AHAMIYATI	24
9. Ro'ziyeva Xursandoy Xusenovna BOSHLANG'ICH TA'LIM KELAJAGIMIZ POYDEVORI.....	26
10. Sadinova Matluba Toshpo'latovna OILADA BOLA TARBIYASINI MOHIRONA TASHKIL ETISHDA PSIXOLOGIK BILIMLARNING O'RNI.....	28
11. Sobirova Dilbar 4-SINF O'QISH DARSLARIDA PIRLS XALQARO TADQIQOTI BO'YICHA TOPSHIRIQ NAMUNALARINI SHAKLLANTIRISH	30
12. Шодиева Лола Зиёдуллаевна АБДУРАУФ ФИТРАТ ИЖОДИДА ТАРИХИЙ ШАХСЛАР УРНИ.....	32
13. Safojeva Malika Avazovna MAKTAB O'QUVCHILARI UCHUN MUSIQA FANINI O'QITISHDAINTERAKTIV USULLARDAN FOYDALANISHNING NATIJAVIYLIGI	34
14. Qo'chkarova Mazluma Djumanazarovna UMUMTA'LIM MUASSALARIDA CHET TILLARINI O'QITISHDA SAMARALI USUL VA VOSITALARDAN FOYDALANISH.....	37
15. Abdullayeva Zumrad BOSHLANG'ICH SINFLARIDA ONA TILI FANIDAN SO'Z TURKUMLARINI O'QITISHDA "QORA QUTI" YANGI PEDAGOGIK TEKNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH.....	39
16. Asatova Mehriniso Fattohovna BOSHLANG'ICH SINFLARIDA PEDAGOGIK TEKNOLOGIYADAN FOYDALANISH.....	40
17. Rustamova Zarnigor Baxtiyor qizi, Zokirjonova Diyora Oybek qizi, Ismoilova Gulnoza Akmaljon qizi.....	42
YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARGA YARATILAYOTGAN IMKONIYATLAR	42



18. Shosaidova Dilnoza Abdukaxarovna CHET TILLARINI O'QITISHDA ZAMONAVIY USUL VA METODLARDAN FOYDALANISH	44
19. Suvonova Risolat Ne'matulloevna BOSHLANG'ICH SINFLARDA BADIY ASARNI TAHLIL QILISH	46
20. Toshqulov Safarmurod Shomurodovich, Toshmirzayev Tohirbek Odilovich STUDY OF THE SILICON-CONTAINING PHTHALOCYANINE PIGMENT	48
21. Турсунов Икром Эшпўлатович ТЕХНИКА ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ ТАЛАБАЛАРИНИНГ КАСБИЙ ФАОЛИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МОДЕЛИ	50
22. Xolmo'minov Zayniddin 2- SINFLAR O'QUVCHILARINI XALQARO TIMSS TADQIQOTIGA TAYYORLASHDA MILLIY DASTURNING AHAMIYATI.....	52
23. Yo'ldoshova Umida Raxmatovna BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QITISH METODIKASI	55
24. Rashidova Munavvar Haydarovna THE INFLUENCE OF PATRIOTIC EDUCATION ON CHILDREN AND ADOLESCENTS	57
25. Тажекбаева Зийуар Кошкарбаевна РУССКАЯ ГРАММАТИКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ.....	59
26. Abdusattorova Marg'uba Abdusalolovna LISMONIY TARBIYADA KO'RGAZMALI METODLAR	61
27. Алиқулов Самар Сагтор ўғли ФИЗИКА ЎҚИТУВЧИЛАРИДА ТАЖРИБА БАЖАРИШ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ	63
28. Bobomuratova Zebiniso Raximberdiyevna BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING ILK TA'LIMDA BILISHI ZARUR BO'LGAN TUSHUNCHALAR TAHLILI.....	65
29. Davlatova Feruza Xurramovna 2-SINFLAR MATEMATIKA FANLARIDA O'YIN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH	67
30. Kulametova Nawbahar Bazarbaevna QARAQALPAQ TILIN OQITISHDA QOLLANILATUGIN METODLAR	69
31. Matqurbonova Gulnoza BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIGA MATEMATIKA DARSLARIDA MUAMMOLI O'QITISH METODLARIDAN FOYDALANISH.....	70
32. Mirzayeva Zulkumor Jonuzokovna 2-SINFLAR ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA NUTQIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH.....	71
33. Muqumova Samiya Nematovna BOSHLANG'ICH TA'LIMDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI	73
34. Nurmamatova Feruza Shernazarovna BOSHLANG'ICH SINFLARDA "KO'P XONALI SONLAR" MAVZUSINI O'QITISHNI TASHKIL QILISH SHARTLARI.....	75
35. Nurulloeva Shakhinabonu Utkirovna, Kadirova Nargiza Arifovna THE FEATURES OF LEADERS.....	77
36. Masharipova Oliy Ro'zmatovna BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QISH DARSLARIDA "BUMERANG TEXNOLOGIYASI", "ARRA" METODI METODIKASINI TASHKIL ETISH.....	79
37. O'roqova Muharram Nurillayevna ONA TILI FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI.....	81
38. Ostonova Gulshod Mahmudovna BOSHLANG'ICH SINFLAR MATEMATIKA DARSLARIDA "KASRLAR" MAVZUSINI O'RGATISH ME'ZONLARI	83



39. Ostonova Sabina Farhodovna ADABIYOT FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.....	84
40. To'xtasinova Munira Ibragimovna, Raimov Jasur Jahongirovich O'QUVCHILARNING O'QISH SAVODXONLIGI OSHIRISHDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARNING AHAMIYATI. (PIRLS XALQARO TADQIQOT DASTURI MISOLIDA).....	86
41. Qosimova Gulnora Mirzomurodovna BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI FAOLLIGINI OSHIRISHDA O'QITUVCHI MAHORATI.....	88
42. Raxmatova Nilufar Ozodovna BOSHLANG'ICH SINFLARDA NUTQ O'STIRISHNING AHAMIYATI.....	90
43. Safarova Nafisabonu Hojiqurbonovna BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI O'QITISH METODIKASI TAMOYILLARI.....	92
44. Nurmetova Sayyora Jabbarovna ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI FANIDAN DTS, O'QUV DASTURLARI VA BAHOLASH MEZONLARI.....	94
45. Sharopova Gulnoza Yusupovna O'QISH DARSLARIDA MUAMMOLI VAZIYAT YARATISH VA UNI YECHISHNING USULLARI.....	96
46. Tosheva Dilchiroy Bo'ronovna KIMYO FANIDA INTERFAOL TA'LIM VA UNING IMKONIYATLARI.....	98
47. Xidirboyev Umar Xasan o'g'li COMMUNICATIVE COMPETENCE IN YOUTH SOCIALIZATION.....	100
48. Yo'ldosheva Oydin Ramazonovna BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING OG'ZAKI VA YOZMA NUTQINI O'STIRISH.....	102
49. Kengasheva Shaxlo Allaberdiyevna BOSHLANG'ICH SINFLARDA HIKMATLI SO'ZLARNING AHAMIYATI.....	103



ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

BOSHLANG'ICH SINFLARIDA AXBOROT-KOMUNIKATSION TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING SAMARASI

Amonova Moxichexra Xamroyevna

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani

7-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Telefon: +998919917392

Annotatsiya: Maqolada umumta'lim maktablarida boshlang'ich sinflarda dars o'tish jarayonida har bir fanga darsga mavzuga oid axborot kommunikatsion texnologiyalardan samarali foydalanishusullari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: AKT, ona tili, matematika, refleksiya, differentsiya, slayd.

Hozirgi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimida maktab fanlarini o'qitishda AKT dan samarali foydalanish dolzarb masaladir. Aynan axborot texnologiyalari ta'limning universal vositasi hisoblanib, nafaqat o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish imkonini beradi, balki shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish, bilishga qiziqishlarini qondiradi. Pedagogik va psixologik tadqiqotlarda shu narsa ta'kidlanmoqdaki, AKT o'quvchilarning nazariy, ijodiy va refleksiv tafakkuri rivojlanishiga katta ta'sir etadi. O'quvchining xotirasida u yoki bu hodisa, jarayonning obrazli ifodalanishi o'quv materialini boyitib, uning ilmiy jihatdan o'zlashtirilishiga yordam beradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim jarayoniga joriy etilishidan asosiy maqsad — aynan zamonaviy axborot muhiti uchun xarakterli bo'lgan o'quv faoliyatlarining yangi turlarini paydo bo'lishidir.

Ma'lumki, boshlang'ich ta'lim — ta'lim tizimining poydevori hisoblanib, o'quvchilarni o'qitish sifati unga bog'liq bo'ladi va bu boshlang'ich maktab o'qituvchisi zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Uzoq vaqt davomida ta'lim tizimida boshlang'ich maktab «ko'nikmalar maktabi» bo'lib keldi, ya'ni o'quvchi keyingi ta'lim olish uchun o'qish, yozish, hisoblash kabi asosiy ko'nikmalarni o'zlashtirishi kerak bo'lgan ta'lim bosqichi sifatida qaralgan. Bugungi kunda boshlang'ich maktab boshqacha tasavvur etiladi. Bugungi kunda u ta'lim tizimida bolaning birinchi tajribasi — ta'lim olish kuchlarini sinash joyi bo'lib qolishi kerak. Ushbu bosqichda faollikni, mustaqillikni rivojlantirish, idrok etish faolligini saqlab qolish va bola ta'lim dunyosiga shaxdam kirib borishi uchun sharoitlar yaratish, uning salomatligi va emotsional xususiyatlarini mustahkamlash muhim. Bugungi kunda o'quvchilarning aynan mana shu sifatleri ta'lim jarayoniga AKT'ni joriy etish bilan rivojlanayotganligining guvohi bo'lmoqdamiz.

AKT'dan foydalanilganda ta'limda shaxsga-yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish oson bo'lib qoldi, butun o'quv jarayonini samarali tashkil qilish imkoniyati paydo bo'ldi. Dars jarayonida tayyor multimediali mahsulotlari va kompyuter ta'limi dasturlaridan, o'quv va sinfdan tashqari ishlarda Internet tarmog'i vositalaridan foydalanib, multimediali ta'lim dasturlari va taqdimotlar, loyihalar yaratildi. Axborot texnologiyalarini barcha o'quv fanlarda qo'llash mumkin. Darslarda o'quv va o'yin dasturlaridan foydalanish katta samara beradi. Ona tili va Rus tili darslarida savodxonlikni oshirish bo'yicha mashqlar yordam beradi, bunda bolalar kompyuterlarda turli xildagi amaliy topshiriqlarni bajaradilar. Boshlang'ich sinflar o'quvchilari uchun turli didaktik materiallar to'plamidan foydalanib, ko'rgazmali-mashq, nazorat-mashqlari va test sinovlari modullari kiritilgan aralash kompyuter dasturlarini tayyorlash mumkin. Unga fanga oid qoidalarni joriy o'rganish va umumlashtirilgan takrorlash uchun uchta variantlarda berilgan grammatika-



orfografik mavzular bo'yicha boy va turli-tuman materiallardan foydalanish yaxshi samara beradi. 1-sinfda o'qish darsida elektron o'quv qo'llanmalari tayyorlab, foydalanish mumkin. Unda so'zni tovushli-harfli tahlil qilish, so'zning bo'g'inlari tuzilishi, ba'zi orfogrammalar o'rganilishi turli qiziqarli ko'rgazmali va ovozli material berish mumkin. Yorqin rasmlar, g'aroyib, qiziqarli topshiriqlar kichik yoshdagi o'quvchilarda ona tiliga qiziqishni oshirishga yordam beradi, o'yin shaklida o'quv materiali bilan tanishish imkonini beradi, o'zini nazorat qilish va o'quv refleksiya uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi. Ushbu qo'llanma bo'yicha ta'lim jarayonini differentsiyalashga turli darajadagi murakkablikdagi topshiriqlarni tanlab olish yordamida erishiladi. Savodxonlikka o'qitish bo'yicha tematik rejalashtirishni ishlab chiqishda rejalashtirishga tegishli elektron mavzular va bo'limlarni kiritish mumkin. Dars rejasini ishlab chiqishda frontal, individual va guruhli ishlash uchun kompyuterni qo'llash maqsadga muvofiq bo'lgan dars bosqichlarini ishlab chiqish lozim. Matematika darslarida «O'yinli masalalar» dasturlarini tayyorlab, foydalanish mumkin. Boshlang'ich sinfda o'rganiladigan ko'plab mavzular bo'yicha turli materiallar berilgan. Turli murakkablik darajasidagi turli xildagi topshiriqlar har bir o'quvchining idrok etish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. «Tabiatshunoslik» fani bo'yicha barcha mavzulari bo'yicha kompyuter testlarini ishlab chiqish mumkin. Masalan: «O'lkamiz suv havzalari», «Ona zamin», «O'rmon va dalalar — tabiat boyligi», «Qishloq xo'jaligi sohalari», «Bizning o'lka», «Yer osti boyliklari», «O'lkamiz hududiy tuzilishi», «O'lka chorvachiligi va o'simliklari» va boshqalar. Ona tili bo'yicha o'rganiladigan so'z leksik mazmunini talqin qilishda va birliklarni turlarga ajratishda o'quvchilarda qiyinchiliklar tug'diradi. Bular: antonimlar, sinonimlar, omonimlar. Testlar orqali o'quvchilarning leksik imkoniyatlari rivojlanadi, so'zning to'g'ri va ko'chma ma'nosini topishga, sinonimlarni to'g'ri tanlashga, sinonimlar, antonimlar va omonimlarni farq qilishga o'rgatadi. Antonimlar bilan ishlashga bag'ishlangan «Teskari o'yin» testidan foydalanish o'quvchilarga darsni tushuntirishga samarali ta'sir etadi. Asosiysi: test topshiriqlarini bajarishda o'quvchining ko'zi, miyasi va qo'llari ishtirok etadi, o'yin elementlari esa ularda bajarayotgan ishlariga qiziqishni rivojlantirishga va demak, ta'lim jarayoni jadalligi kerakli darajasini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Testlardan tashqari krossvordlar, sxemalar, jadvallardan foydalaniladi, o'quvchilar dars materiallarni mustaqil o'rganishda bevosita kompyuterda ishlaydilar. Barcha o'quv fanlarida qo'shimcha va rivojlantirish materiallari sifatida ko'plab videofilm hamda fotolavhalar bilan o'lkashunoslik materialidan foydalanish mumkin.

Microsoft power point dasturlari yordamida yaratilgan taqdimotlar ta'lim jarayonida AKT'dan foydalanish juda samarali shakli hisoblanadi. Taqdimotda asosiysi — axborotlilik, ko'rgazmalilig, qiziquvchanligi hisoblanadi. Mazkur dastur orqali turli mavzu va fanlar bo'yicha taqdimotlar yaratishda fotosuratlar, rasmlar, animatsiya, qo'shimcha axborotlardan foydalanish mumkin. Maktabda mavjud bo'lgan Internet tarmog'i ishimizda katta yordam ko'rsatadi. Internet — bu global axborot tizimi ekanligi barchaga ma'lum. U elektron pochta, izlash tizimlarini o'z ichiga oladi va turli axborot resurslaridan foydalanish imkonini beradi. Undan kerakli axborotlarni topish, qayta ishlab chiqish va ularni ko'paytirib, barcha kompyuterlarga o'rnatibbolalarga mustaqil juftlikda, guruhda, individual ishlashni taklif etish mumkin. O'quvchilarga turli xildagi topshiriqlarni taklif etish: tadqiqot o'tkazish, asosiysini tanlash, taqdimot tayyorlash, jadvalni to'ldirish imkoni paydo bo'ladi. Axborot olishning boshqa bir usuli — dars davomida bevosita Internetdan axborot olish hisoblanadi. Internetdan avvaldan kerakli materialni topish, darsda esa uni o'quvchilarga ko'rsatish mumkin. Ishni o'rganilgan material bo'yicha dialog ko'rinishida olib borish mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilari Internetdan mustaqil foydalanishni, kerakli axborotni tanlashni, uni saqlab qolish va taqdimotlar tuzish yoki turli xildagi loyihalarni ishlab chiqish va bajarishda keyingi ishlarida foydalanishni biladilar. 2-sinfdanoq o'quvchilar faqat daftarda emas, balki bevosita kompyuterda ham topshiriqlarni bajara oladilar. O'quvchilar kompyuter bilan ishlash birinchi ko'nikmalarni oladilar, o'zlarining nazariy bilimlarini doimiy chuqurlashtirib va amaliy ko'nikmalarini takomillashtirib boradilar.

Boshlang'ich sinflarda fikrlash operatsion uslubini shakllantirishda informatika kursining roli juda muhim. Informatikaning ushbu roli harakatlari tuzilishini rejalashtirish, axborot izlash,



muloqotni rejalashtirish, axborot modellarini qurish, faoliyatni vositalashtirish kabi dastlabki ko'nikma va malakalar to'plami ko'rinishida qaraladi. Kompyuterni o'qishda yordamchisi, ijodkorlik, o'zini ifoda etish va rivojlantirish vositasi sifatida tushunish katta ahamiyatga ega.

Katta sinflar o'quvchilarida fikrlash uslubi shakllanib bo'ladi, yangi shakllarini ular qiyinchilik bilan qabul qiladilar. Ushbu kurs o'quvchini SHK'da axborot bilan amaliy ishlashga o'rgatishi kerak. Boshlang'ich maktabda kompyuterni o'zlashtirib o'quvchilar undan o'z faoliyatlari vositasi sifatida boshqa sinflarda ham foydalanishlari mumkin, kompyuterni qo'llash bilan olib boriladigan darslar ularda qiyinchilik tug'dirmaydi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. R.Ishmammedov, A.Abduqodirov, A.pardayev "Innavatsion Texnologiyalar" ta'lim muassasalarida pedagog – o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar T-2008.
2. J. G'Yo'ldoshev pedagogik texnologiya asoslari. O'qituvchi 2010.
3. www.pedagog.uz
4. ziyo.net



BOSHLANG'ICH SINFLARDA ERTAKLAR ORQALI O'QUVCHILARNI MA'NAVIY TARBIYALASH

Ashurova Iroda Turaqulovna.

Samarqand viloyati Samarqand shahar
57-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy tarbiyalash to'g'risida va ularni ahloqiy jihatdan shakllatirishda ertaklarning o'rni asoslangan. Ertak janrini o'qitishda o'quvchining yoshiga bog'liqligi hamda ertaklarni o'qitishning metodik jihatlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlari: ta'lim, tarbiya, boshlang'ich ta'lim, hamkorlik, samarali natija, ertak janri, ma'naviy tarbita, ta'lim- tarbiya.

Dona xalqimiz "Ertaklar yaxshilarga yetaklar" deb bejiz aytishmagan. Ertaklar bolalarning ongi va qalbiga ezgu fazilatlarini jo qilishga, ularning ma'naviy olamini boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular yordamida bolalarning xotirasi, diqqat-e'tibori, tafakkuri revojlantiradi. Ertaklarni tenglab til va nutqning taraqqiy etishni belgilab beradigan asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Boladagi ayrim nutqiy kamchiliklarni hikoya va ertaklar eshitish ertak o'qitish shuningdek so'zlarni to'g'ri talaffuz qildirish va turli xil mashqlar bajarish orqali bartaraf etish mumkin.

Ertak tilining ta'sirchanligi, o'tkirligi ma'nodorligi va xalq tili yaqindir. Ertaklarning ko'pchiligida real hayot ta'siri sarguzasht elementlari bilan qo'shib ketadi. Ertakning o'tkir maroqli sujeti, voqea rivojida favqulotda ajoyib vaziyat bolalarni maftun qiladi, undagi mard, kuchli, topqir, dovyurak, chaqqon qahramonlari ertakning g'oyaviy yo'nalishi, unda ezgulik kuchining-yaxshiligining doimo g'alaba qilish bolalarni o'ziga tortadi. Ertakda qabul qilingan hikoya qilish shakli bir xil so'z va iboralarning qayta-qayta takrorlanib turishi, ohangdorligi tilning ta'sirchanligi ifoda vositalarining jonliligi bolalar uchun juda qiziqarli bo'ladi.

Boshlang'ich sinflarda ertak janrini o'qitishda quyidagilarga e'tibor berilsa maqsadga muvofiq bo'lardi: 1. Ertak mazmunini o'zlashtirish va qayta hikoyalashga doir topshiriqlar ishlab chiqish. 2. Ertak tilini o'zgartirish va o'zlashtirishga doi savol-topshiriqlar ishlab chiqish. 3. Sabab-natija tarzidagi savollardan ham foydalanish masadga muvofiq. Metodist olimlarning fikricha, to'g'ri berilgan savolda yarim javob tayyor bo'ladi. O'quvchilar matnni ongli o'zlashtira olsalargina, matn yuzasidan savol bera oladilar, o'quvchilarga savol berishni o'rgatishni 2-sinfdan boshlab maqsadga muvofiqdir. Ertak matni tasvirlash matn ustida ishlashda katta ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchilarning ijobiy qobilyatlarini rivojlantiradi, undan to'g'ri foydalanish esa ertakda yozuvchi tasvirlagan hayotiy manzaralarni o'quvchilar aniq tasavvur qilishlari uchun qulay imkoniyat yaratadi. Ertak matni ikki xil tasvirlash mumkin: So'z bilan tasvirlash, Grafik tasvirlash.

Ertak rejasini tuzish. Reja matni mazmunini ongli va chuqur tushunishda, asosiy fikrni ajratishda, voqealarning izchilligini belgilashda, matn qismlarining o'zaro bog'lanishini tushunishda o'quvchilarga yordam beradi. Reja ustida ishlash o'quvchilar nutqi va tafakkurini o'stiradi. Ular matni mazmunan tugallangan qiismlarga bo'lishga va har bir qismning asosini topishga, uni reja qismi sifatida shakllanishga o'rganadilar.

Ertaklarni tahlil qilishda sintez, analiz, matni yaxlit idrok etish asosida ertakning mazmuni bilan tanishtirishdan. Voqealar rivojining bog'lanishini belgilash, qahramonlarning xulq-atvori va xususiyatlarini aniqlash, tugun kulminatsion nuqta yechim, tasviriy vositalar, qahramonlarning muhim xususiyatlarini umumlashtirish, qahramonlarni taqqoslash, baholash, ertakning g'oyasini aniqlash. Ertak janri ustida ishlashda tayyorgarlik davrining ahamiyati katta. Tayyorgarlik davrida tayyorgarlik vazifalari, tayyorgarlik shakllarini to'g'ri tashkil etish diqqatga sazovor. Ertakda aks ettirilgan voqea-hodisalar haqidagi tasavvurlarni boyitish, o'z hayotida kuzatganlar bilan bog'lay olishlariga sharoit ijodga qiziqish uyg'otadi. Lug'at ustida ishlash ko'nikmasi ham shakllanadi. Ertak muallifi haqida ma'lumot berishda eng samarali hisoblandi. Ertak muallifi shoir va yozuvchilar haqida so'zlab berilayotganida ularning portretlari, bolalar uchun yozgan ertaklar namoyish etilsa, o'quvchilarning muallif ijodiga qiziqishlari ortadi. Film namoyish qilish. Tarixiy materiallarni, ertak muallifi hayotini o'rganishdan oldin film namoyish qilinsa, o'quvchilarning



ertakni idrok qilishlari faollashadi. Masalan, 1-sinfda "Sher va durroj" Alisher Navoiy ertagini o'qilishi filmidan parcha ko'rsatilishi. Oltin tarvuz haqida ertaklari, Bo'g'irsoq ertagi, Zumrad va Qimmat ertakni o'qish metodikasi, mantiqiy topshiriqlar berish orqali ma'naviy tarbiyani shakillantirish ham mumkin. Ertak muallifi haqida ma'lumot berish ham samarali hisoblanadi. Ertak muallifi shoir va yozuvchilar haqida so'zlab berilayotganida ularning portretlari, bolalar uchun yozgan ertaklar namoyish etilsa, o'quvchilarning muallif ijodiga qiziqishlari ortadi.

Ertakda keltirilgan maqollar ustida ishlash ham o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga undaydi. Ilgari surilayotgan g'oyalarni bolalar ongiga yetkazish yod oldirish yo'li bilan bog'lanishli nutqni o'stirish, nutqning tasirchanligini oshirish lozim.

Boshlang'ich sinflarda ertak janri orqali o'quvchilarni ma'naviy-ahloqiy jihatdan tarbiyalashning didaktik imkoniyatlari katta. Ertak o'qitish darslarini to'g'ri tashkil etish orqali o'quvchilarda rostgo'ylik, to'g'ri so'zlik, ravon nutqi ko'nikmalari rivojlanadi, dunyo qarashi keng, teran fikrlaydigan, o'z fikrini mustaqil bayon qila oladi bo'lib kamol topadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. X. Umarova. «Qiziqarli grammatika» T., 2012 y.
2. R. Sirojiddinov. «Grammatik topshiriqlar» T., 2015 y.
3. O'. Qurbonnazarova. «Mustaqil fikrlashga o'rgatish», Boshlang'ich ta'lim jurnali., 1992 y. 2-son.



МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA DIQQATNING RIVOJLANISHI

Elamonova Shoxsanam Erkinovna

Nurobod tumani
42-umumta'lim maktab
amaliyotchi psixologi

Annotatsiya. Bu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda diqqatning rivojlanish bosqichlari va bolalarda dunyoqarashni shakllantirishda diqqatning xususiyatlari haqida bataafsil ma'lumot beriladi

Kalit so'zlar: diqqat, sezgi, idrok, xotira tasavvur, xayol, nutq, ko'chuvchanlik, bo'linuvchanlik.

Diqqat shunday muhim bir psixik jarayonki, u odamning barcha faoliyatlarida ishtirok etadi. Jumladan maktabgacha yoshdagi bolalarda ham diqqat turlicha bo'ladi.

Ixtiyoriy va ixtiyorsiz bo'ladi. Diqqat shaxsning yo'nalishida to'plangan jarayon sifatida ishlaydi. Keng ma'noda bu so'z asosida ehtiyoj qiziqish qarash idial kabi tarkibiy qismlar bor.

Rus olimi P.I.Ivanovning fikricha biz faoliyatimiz jarayonida idrok va tasavvur qiladigan har bir narsa ham bir hodisa, o'zimiz qilgan ishimiz o'y va fikrlarimiz diqqatning ob'yekti bo'la oladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda diqqatning g'oyat beqaror bo'lishi turmush tajribalarning ozligi bilan ham bog'liqdir.

Mashhur rus pedagoglaridan K.D.Ushenskiy diqqatning inson hayotidagi ahamiyati haqida gapirib bunday degan edi: "Diqqat ruhiy hayotimizning shunday yagona bir eshigidirki, ongimizga kiradigan narsalarning barchasi shu eshik orqali o'tib kiradi". Haqiqatdan ham, diqqat eshigidan tashqarida qolgan narsa ongimizga borib yetmaydi.

Ixtiyoriy diqqat: amalda biron bir narsani idrok qilish yoki ish bajarish maqsadi, niyati paydo bo'lishi tufayli maydonga keladi. Masalan: biron –bir ishni bajarishga qiynalsak ham, shuni bajarishga intilamiz.

Ixtiyorsiz diqqat: paydo bo'lishida odam ko'pincha faqat irodaviy zo'r berish u yoqda tursin, biron –bir narsani ko'rishini, eshitishini va shu kabilarni o'ziga oldindan maqsad qilib qo'ymaydi. Shuning uchun bu diqqat maqsadsiz diqqat deyiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ixtiyoriy diqqat rivojlana boshlaydi. Biroq maktabgacha kichik yoshdagi bolalarda ixtiyorsiz diqqat ustunlik qiladi. Maktabgacha kichik yoshdagi bolalarda kun sayin paydo bo'ladigan yangi-yangi qiziqishlar, o'yin faoliyatlarining xilma-xil bo'la borishlari ixtiyorsiz diqqatni asta –sekin takomillashtirib boradi.

Diqqatning barqarorlik, ko'chuvchanlik, bo'linuvchanlik ko'lami kabi xususiyatlari bor.

Diqqatning barqarorligi: uning yagona, umumiy(mas, kitob o'qish, masala yechish, kabi) ishga xizmat qiluvchi narsa yoki hodisaga uzoq muddat jalb bo'la olishidan iborat.

Diqqatning ko'chuvchanligi: ongli ravishda diqqatni yangi ob'yektga qaratish diqqatning ko'chirilishi deyiladi. Diqqatning ko'chuvchanligi diqqatning bo'linuvchanligi bilan bog'liq. Diqqatning ko'chuvchanlik xususiyati juda ko'p faoliyat turlari uchun zarur bo'lgan xususiyatdir. Masalan: hikoya o'qib berish mashg'ulotida bolalar o'z diqqatlarini hikoyani eshitishdan surat ko'rishga, undan so'ng yana eshitishga bemalol ko'chira olishlari kerak.

Diqqatning bo'linishi: diqqatning salbiy jihatlaridan biri parishonxotirlikdir. Bu diqqatning kerak bo'lganida boshqa ob'yektga ko'chishidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda diqqatning ayrim xususiyatlari, ya'ni diqqatning kuchi va barqarorligi ham tarkib topa boshlaydi. Buni biz bolalarning(xususan o'rta va katta guruh bolalarining) bir ish ustida uzoq vaqt o'tira olishlarida mashg'ulotlarda chidam bilan o'ynay olishlarida kuzatishimiz mumkin. Bolalar diqqatining yosh individual xususiyatlarini hisobga olish ta'lim –tarbiya jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirishning muhim shartidir. Masalan: bolalar diqqatining yetarli darajada obyektga to'play olmaslik aqliy faoliyatning yetarli emasligiga, o'qish faoliyatida ko'nikma malakalarning shakllanmaganligi bola irodasining kuchsizligi sabab bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda diqqatni jalb etishda ko'rgazmali va texnik vositalarni qo'llash(rasmlar, tabiiy va mum nuxsalar, jadvallar, slayd –shou va h.k.) katta ahamiyat kasb etadi. Bolaning mashg'ulotga nisbatan layoqadligini ham tashqi ko'rinishiga qarab aniqlash mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalarni diqqatini rivojlantirishda ko'proq rolli o'yinlardan, harakatli o'yinlarda, jadvalli o'yinlarda, rasmda tushib qolgan suratni toping kabi o'yinlarda



bolalarni diqqatini rivojlantirishimiz mumkin. Amaliy mashqlar bajarish; misol tariqasida “jadval” metodikasini olamiz bu metodikada raqamlar 1dan 30 gacha bo‘lgan sonlar tartibsiz joylashadi. Berilgan vaqt davomida bolalar tartib bilan sanab chiqishi kerak bo‘ladi. Bolalarda har qanday o‘yin faoliyatlarida ularda ixtiyoriy diqqatning rivojlana boshlashi uchun sharoit yaratib beradi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz kerakki , bolalarda diqqatning rivojlanishi turli yoshda turlicha bo‘ladi. Diqqatni rivojlantirishda har qanday yoshdagi bola ham fiziologik sog‘lom bo‘lishi kerak . E`tibor bersangiz sizning hatti-harakatlaringizni bola takrorlaydi va shunga o‘xshagisi keladi. Bu yoshdagi bolalarda taqlid kuchli bo‘ladi, siz taqiqlab qo‘ygan buyumlarga tegingisi keladi. Masalan:(suv bilan o‘ynama ,aksincha bu bolaga huzur bag‘ishlaydi va shu ishni yana bajargisi keladi. Psixologik nuqta’i nazar bilan qaraganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda diqqatning shakllanishida bolaga avvalo mehr ,unga ishonch kuchli e`tibor talab qilinadi. Diqqatni shakllanishida har xil psixologik treninglar,mashqlar va ko‘rgazmali metodik o‘yinlar orqali shakllantirish mumkin .

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Jalilova S.X. Aripova S.M. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi T.: 2017
2. Nishonova Z.T., Alimova G.K. Bolalar psixologiyasi va psixadiagnostikasi T.: 2017
3. ur.m.wikipedia.org.



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA OG'ZAKI NUTQNI RIVOJLANTIRISH.

Ergasheva Sayyora Uktamovna
Samarqand viloyati Jomboy tumani
40-IDUM boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishda ertak, tez aytish va didaktik o'yinlardan foydalanish yoritib berilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqii o'stirishning o'ziga xo xususiyatlari yoritib berilgan. O'quvchilarda og'zaki nutqni rivojlantirishga oid metodik tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Og'zaki nutq, rivojlanish, ma'naviy yuksalish, lug'at ishi, ijodiy fikrlash, didaktik o'yinlar, kreativ faoliyat, o'zaro hamkorlik.

Muloqot madaniyatining jamiyat taraqqiyotidagi o'rni kishilarni o'rtasidagi tinchlik va osoyishtalikning eng muhim tamal toshi ekanligi avvaldan ma'lum. Bolalarda og'zaki nutq nutqning so'zlashuvi shaklini reali. Nutq-bu insonning eng oliy murakkab ruhiy vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Inson tashqi olamdagi predmetlar va hodisalarni sezgi organlari yordamida va nutq vositasida idrok etadi. Ma'lumki, so'zlashuv tili nutq o'stirish dastlabki bosqichi takomillashib boradi. So'zlashuv tili esa o'qilgan matnlarni og'zaki hikoya qilishda namoyon bo'ladi. So'zlashuvga o'rganish barcha darslar jarayonida amalga oshadi, lekin o'qish darslari yetakchi ahamiyat kasb etadi.

Kichik yoshdagi maktab o'quvchilariga ma'naviy kamolot ona tili orqali mujassamlashadi. O'qish nutq o'stirish ta'lim-tarbiya jarayonidagi eng muhim vositalaridandir. O'qituvchinig turli fanlarini o'qitishdan maqsadi o'quvchilarning nutq madaniyatini nutq ko'nikmalarini shakllantirish, ijodiy qobiliyatlarini taraqqiy ettirish kabi masalalarni o'z ichiga oladi. O'qituvchi nutqi o'quvchilar uchun na'munadir. O'quvchilarnig nutqi ravon, tushunarli bo'lishi uchun eng avvalo uning nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etishda e'tibor berish zarur.

Nutq ichki va tashqi ko'rinishga ega. Ichki nutq odamning o'z ichiga gapiradigan passiv nutqi bo'lib, u ikkinchi kishining ishtirokini talab qilmaydi. Shuning uchun bu nutq o'z-o'ziga qaratilgan sanaladi, uni nazorat qilib bo'lmaydi. Ichki nutq og'zaki va yozma nutqning asosi sifatida xizmat qiladi. Tashqi nutq boshqalarga qaratilgan va nazorat qilish mumkin bo'lgan faol nutq bo'lib, u og'zaki va yozma ko'rinishiga ega. Boshlang'ich sinfdan kichik yosh bolalardan o'quvchilar o'qiydilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning nutqidagi kamchiliklarini tanqid qilish ehtiyotkorlikni talab etadi. Qo'pol tanbih, noto'g'ri tanqid o'quvchilar o'rtasidagi yaxshi muomalani buzishi o'quvchini o'rinsiz ranjitishi mumkin, shuning uchun ham o'qituvchi nutqiy muomala qilishga pedagogik odob talablariga rioya qilish zarur.

O'qituvchinig nutqi o'quvchilarni o'ziga ergashtirib, ularga ham yoqimli nutq madaniyatini tarbiyalaydi boshlang'ich sinf "o'qish kitobi"da "ertaklar yaxshilikka yetaklar" bo'limi berilgan. Unda keltirilgan ertaklar bolalarni odob-axloqqa o'rgatishi, ma'naviy jihatda rivojlantirishi muhim ahamiyatga egadir. Masalan, "uch o'rtoq" ertagidagi dexqon va boy obrazlari o'quvchilar ongida yaxshi va yomondan nafratlanish, undan yiroqlashish kerakligi haqida tasvvur hosil qildi. Maqtanchoqlik, adolatsizlik, och ko'zlik juda yomon odat ekanligi, saxiylik, do'stga mehribon bo'lish rostgo'ylik insonning manaviy yuksalishiga yordam beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini o'stirish ishlari ularning lug'atini boyitish bilan bog'liqdir. Bolalarnig so'z boyligi qanchalik ko'p bo'lsa, u shunchalik ravon gapiradigan bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutq o'stirishda yod oldirishi, so'zlarning ma'nosini tushuntirish yoki qayta hikoya qilish kabi usulardan foydalanibgina qolmay, balki ular uchun qiziqarli faoliyat bo'lgan o'yinlardan foydalanish yuqori natijalarga erishishda katta yordam beradi. Darslarda o'quvchilar zo'r qiziqish bilan ishtirok etadi. Masalan: "hiikoya tuzish" o'yinida o'qituvchi xat taxtaga bir nechta so'z yozib qo'yadi.

O'quvchilar mustaqil ravishda shu so'zlar ishtirokida hikoya tuzadilar. Bunda ularning lug'at boyligi oshishi bilan birga, ijodiy va mustaqil fikrlash qobiliyati shakllanadi. Bundan tashqari "o'rtoqchasini top" o'yinida o'quvchiga bir guruxga mansub bitta narsa o'simlik, hayvon nomi aytiladi. Masalan: laylak, qaldirg'och, kakku, tuyaqush, o'quvchi ular orasidan ortiqchasini topadi. O'qituvchi o'z fikrini aytgandan so'ng, undan fikrini asoslab berishi so'raldi. O'qituvchi o'z nutqini bolalarga qanday ta'sir etayotganini kuzatishi, tushunarli va qiziqarli bo'lganini hisobga



olish kerak. Agar o‘quvchilar darsga e’tiborsiz o‘tirsalar, demak, o‘qituvchi nutqining ta’sir kuchi sust.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirishda tez aytishning o‘rni ham beqiyosdir, Xalq og‘zaki ijodi turlaridan biri tez aytish ayrim nutq tovushlarining ko‘p qaytarilishi yoki tovushlarning so‘z va iboralar tarkibida talaffuzni qiyinlashtiradigan darajada murakkab joylashishiga asoslanadi. Tez aytish – o‘zbek xalq og‘zaki ijodining bir turi. Tez aytishda yanglishib ketish mumkin bo‘lgan qiyofadosh so‘zlardan tuzilgan jumlar qo‘llanadi. Unda muayyan tovushlar, ayniqsa, jarangli undoshlar takrorlanadi va so‘zlar ritm, urg‘ular bilan tez aytiladi. Tez aytishda har bir tovush o‘z o‘rnida to‘g‘ri, ravon talaffuz etilishi shart. Tez aytishlar bolalarning fikrlash qobiliyatini so‘z boyligini oshirishga va nutqning ravon bo‘lishiga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinflarda tez aytishlardan turli tadbirlarda, dars jarayonida, dam olish daqiqalarida foydalanish mumkin. Masalan: Asalari asalini ayiqdan ayamadi. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirish rejali tashkil etilsa, bu sohadagi tadbirlar muntazam ravishda amalga oshirib borilsagina, u o‘quvchining butun vujudida, uning xususiyatiga tasavvuriga, iroda va xarakteriga, nihoyat fikrlash faoliyati va qobiliyatiga ta’sir etib nutqning ravon ifodali bo‘lishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. A. Mirzaahmedov. «O‘quvchilar faolligini oshirishda noan’anaviy darslar», Til va adabiyot ta’limi jurnali., 2016 y. 3-son.
2. J.G‘.Yo‘ldoshev, S.A.Usmonov. «Pedagogik texnologiya asoslari» T.: “O‘qituvchi” nashriyoti, 2004 y.
3. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh, Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent: ”Noshir”, 2009.



2-SINF MATEMATIKA DARSLARIDA ZAMONAVIY USULLARDAN FOYDALANISH

Islamova Nafisa Narzullayevna

Jomboy tuman 8-maktab
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada 2-sinf matematika darslarida zamonaviya metodlardan foydalanib dars tashkil etish haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Pedagogika, boshlang'ich ta'lim darslari, interfaol metodlar, didaktik o'yin, zamonaviy yondashuv.

Bugungi globallashuv jarayonlarida ta'limga innovatsion yondashuv, ilg'or xorijiy tajribalarni o'rgangan holda ularni ta'lim jarayonlariga joriy qilish, fan-texnika taraqqiyoti va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning zamonaviy usullarini qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

O'z navbatida, pedagog xodimlardan sohaga doir bilim va ko'nikmalarini oshirishda pedagogik innovatsiyalarni o'zlashtirish va uni tatbiq etish hamda o'zlarining kasbiy innovatsion kompetentligini rivojlantirish talab etadi.

Boshlang'ich sinflarda zamonaviy interfaol metodlar va ta'limiy o'yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradi.

Bugungi kun o'qituvchidan ilg'or pedagogik va yangi axborot texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, tajribalarimiz asosida dars mashg'ulotlarida zamonaviy interfaol metodlarni qo'llash orqali ta'lim-tarbiya berish yo'llariga doir fikrlarimizni bayon etamiz.

Zamonaviy usullardan matematika darslarida foydalanish ta'lim samaradorligini oshiradi. Mutaxassislarining ta'kidlashlari-cha matematikani yaxshi o'zlashtirgan o'quvchining tahliliy va mantiqiy fikrlash darajasi yuqori bo'ladi. U nafaqat misol va masalalar yechishda, balki hayotdagi turli vaziyatlarda ham tezkorlik bilan qaror qabul qilish muhokama va muzokara olib borish, ishlarni bosqichma-bosqich bajarish qobiliyatlarini o'zida shakllantiradi.

Matematikaning chegarasiz mamlakat degan iborasini bir necha bor eshitganmiz Inson hayotida matematika alohida o'rin tutadi.

Masalan: 2-sinfda matematika darslarini tashkil etishda "100 ichida sonlarni qo'shish va ayirish" mavzusini o'qitishda "Qor bo'roni", "Zinama-zina", "Charxpalak", "6x6x6", kabi interfaol metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Masalan ba'zi interfaol metodlarni qo'llash yuzasidan metodik tavsiyalarni keltiramiz.

"Qor bo'ron" metodi

Ikkiga ajratilgan guruh talablari bir muam-mo yuzasidan eng ko'p to'g'ri javoblar topish maqsadida birgalikda muhokama yuritishadi. Har bir to'g'ri javob yumaloqlangan qor ko'rinishida o'sha guruh hisobiga yozib qo'yiladi, to'plangan umumiy ballar miqdori asosida guruhlar baholanadi. Muammo bitta guruhda yoki ikki kichik guruhlarda muhokama qilinadi. Bunda topshiriqlar har xil yoki butun guruhga bitta bo'lishi mumkin. Guruhlar qo'yilgan muammoni ma'lum muddat muhokama etib, natijani boshqalarga ma'lum qilishadi. Muammo yechimining eng yaxshi varianti tanlab olinadi.

"Zinama-zina" metodi

1. O'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lib olish
2. Metod haqida tushuncha berish
3. Topshiriqni tarqatish
4. Belgilangan vaqt ichida guruh faoliyatini tashkil qilish
5. Guruhlar ishtirokida taqdimot yaratish
6. G'olib guruhlarini aniqlash varag'bat kartochkalarini tarqatish

"Zinama-zina" metodi.

Ushbu mashg'ulot o'quvchilarni o'tilgan yoki o'tilishi kerak bo'lgan mavzu bo'yicha yakka va kichik jamoa bo'lib fikrlash hamda xotirlash, o'zlashtirilgan bilimlarni yodga tushirib, to'plangan



fikrlarni umumlashtira olish va ularni yozma,rasm,chizma ko‘rinishida ifodalay olishga o‘rgatadi. Bu texnologiya o‘quvchilar bilan bir guruh ichida yakka holda yoki guruhlarga ajratilgan holda yozma ravishda o‘tkaziladi va taqdimot qilinadi.

“Charxpalak” metodi

Charxpalak texnologiyasidan o‘quv mashg‘ulotlarining barcha turlarida, dars boshi va oxirida,biror bo‘lim tugatilgandan keyin,o‘tilgan mavzularni o‘zlashtirganlik darajasini baholash,takrorlash, mustahkamlash,oraliq va yakuniy nazoratlarni o‘tkazishda foydalanish mumkin.Mashg‘ulotlarni yakka va guruh shaklida tashkil etsa bo‘ladi. Qolaversa o‘z ichiga og‘zaki va yozma ish shakllarini qamragan holda turli mazmun va xarakterga ega mavzularni o‘rganishda ham asqotadi.

Masalan:2-sinf matematika darsligida “100 ichida qo‘shish va ayirish” mavzulariga bir nazar solib,charxpalak metodi orqali mustahkamlab olamiz.

$$42+58=100 \quad 61+39=100 \quad 83+17=100 \quad 94+6=100 \quad 100-28=72 \quad 100-45=55$$

$100-37=63$ $100-82=18$ $100-91=9$ ko‘rinishidagi misollar orqali darsimizni yanada mustahkamlab olish lozim.

“6×6×6”metodi

Ushbu metod yordamida bir vaqtning o‘zida 36 nafar o‘quvchini muayyan faoliyatga jalb etish orqali ma‘lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek,guruhlarning har bir a‘zosi imkoniyatlarini aniqlash ularning qarashlarini bilib olish mumkin.

“6×6×6”metodi asosida tashkil etilayotgan mashg‘ulotda har birida 6 nafardan ishtirokchi bo‘lgan 6 ta guruh,o‘qituvchi tomonidan o‘rtaga tashlangan muammo (masala)ni muhokama qiladi.

Hozirgi vaqtda ta‘lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llab o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi.Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq.An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta‘lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta‘lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasi o‘sishga olib keladi.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta‘lim-tarbiya jarayoninig samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi yuritiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘rinboyeva L, Jumayev M, Ruzikulova N, Raxmonov U, Ismoilov N, Usmanova M. 1- sinf matematika kitobi. - Toshkent: Respublika Ta‘lim markazi, 2021-yil.
2. Milliy o‘quv dastur. 2021 yil
3. Abdurahmonov N., O‘rinboyeva L. 2- sinf matematika darsligi. T.: “Yangiyo‘l poligraf servis” 2018.
4. Fuzailov S., Xudayberganova Sh., Yo‘ldosheva T. 3- sinf matematika darsligi. T.: “O‘qituvchi”.
5. Bikbayeva N , Yangibayeva E. 4- sinf matematika darsligi. T: 2018



ТА'ЛИМ ЖАРAYONI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INTERFAOL METODLAR VA ULARNING TASNIFI

Ruzinazarova Gulnora Achilovna

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani
2-son kasb-hunar maktabi rus tili fani o'qituvchisi
Telefon:+998913394373

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim jarayoni samaradorligi oshirishga xizmat qiladigan interfaol metodlar va ularning qo'llanilishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiya, pedagogik mahorat, tajriba, interaktiv, metod, kuzatuvchi, xulosalovchi, ta'lim – tarbiya.

Pedagogik texnologiya va pedagogik mahoratga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchilarni bilimli, yetuk malakalarga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Zamonaviy o'qituvchi ta'lim – tarbiya jarayonida innovatsion usullardan va interfaol ta'lim metodlaridan foydalana bilishi va uni amalga oshira olishi lozim. Interfaol metodlar o'qituvchi bilan o'quvchining faol munosabati, bir-birini to'liq tushuntirishga asoslanadi. Interfaol metodlarni o'quv jarayoniga joriy etishning tub maqsadi – dars qaysi shaklda bo'lmasin, qayerda o'tkazilmasin darsda o'qituvchi bilan o'quvchining hamkorlikda ishlashini va natijada o'zlashtirishlarini ta'minlashi lozim. Bunda o'qituvchi faqat yo'l – yo'riq ko'rsatuvchi, kuzatuvchi, xulosalovchi vazifasini bajaradi. Ushbu metodlar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlari rivojlantirilib, ularda erkin fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, hissiyotlarni boshqara olish, tanqidiy va ijodiy fikr yuritishning rivojlanishiga zamin tayyorlanadi.

Interfaol metodlarda o'qitishning mohiyati quyidagicha:

1. O'rgatuvchi ham o'rganuvchi ham ma'lumotlar bilan faol ishlashi;
2. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga undashi va o'rgatishi;
3. O'qituvchiga "o'quvchilarni fikrlashga o'rgatish uchun" xizmat qilsa, o'quvchilarga esa, "fikrlashni o'rganishlari uchun" xizmat qilishi.

Interfaol usullardan foydalanish shakllari:

1. Individuallashtirish;
2. Kichik guruhlariga ajratish;
3. Tabaqalashtirish;
4. O'rgatish va o'rganish jarayonida demokratik, do'stona muhitni yaratish;
5. O'zaro muloqot, hamkorlikni tashkil etish.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan interfaol metodlar bilan tanishib chiqsak.

"Zakovatli zukko" metodi – metod o'z xohishlariga ko'ra shaxsiy imkoniyatlarini sinab ko'rish istagida bo'lgan o'quvchilar uchun qulay imkoniyatni yaratadi. Ular o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga qisqa muddatlarda to'g'ri va aniq javob qaytara olishlari zarur. Savollarning murakkablik darajasiga ko'ra har bir savolga qaytarilgan to'g'ri javob uchun rag'batlantiruvchi ballar belgilanadi. Bularning belgilanishi o'quvchilarning shaxsiy imkoniyatlari to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Metod o'quvchilar bilan yakka tartibda, guruhli, ommaviy ishlashga birdek qo'llanilishi mumkin. Yuqorida ko'rib o'tgan metodlarimiz o'quvchilarning salohiyatini yuksaltirib, mantiqiy fikrlashga undaydi hamda ularni ma'naviy yetuk, barkamol shaxslar etib tarbiyalashga xizmat qiladi.

"Zigzag" strategiyasi metodi – sinf o'quvchilari 7 guruhga bo'linadilar va guruhlar nomlanadi. Guruhlarda yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn qismlarga ajratiladi va ajratilgan qismlar mazmuni bilan tanishib chiqish vazifasi guruhlariga topshiriladi. O'quvchilar matnlarni diqqat bilan o'rganadilar va gapirib beradilar. Vaqtni tejash maqsadida guruh a'zolari orasidan liderlar belgilanadi va qayd etilgan vazifa ular tomonidan bajariladi. Barcha guruhlarining o'quvchilari o'zlariga topshirilgan matn mazmuni xususida so'zlab berganlaridan so'ng, matnlar guruhlararo almashtirilib, avvalgi faoliyat takrorlanadi. Guruhlarga bir necha matnlar taqdim etiladi. Shu tarzda barcha matnlar mazmuni guruhlar tomonidan o'rganib chiqilgach, o'quvchilar o'qilgan mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni ajratadilar, ularning o'zaro mantiqiy bog'liqligini aniqlaydilar



va yuzaga kelgan g'oyalari asosida mavzuga oid sxema ishlab chiqiladi. So'ngra o'zlashtirilgan bilimlar asosida o'quvchilarning o'zlariga shunday sxemalarni ishlab chiqish vazifasi topshiriladi.

“Skarabey” – interaktiv texnologiya bo'lib, u o'quvchilarda fikriy bog'liqlik, mantiqiy xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi. Qandaydir muammoni hal qilishda o'z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Mazkur texnologiya o'quvchilarda mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini xolis baholash, o'rganilayotgan mavzu haqidagi tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi. U ayni paytda turli g'oyalarni ifodalash hamda ular orasidagi bog'liqliklarni aniqlashga imkon yaratadi. “Skarabey” texnologiyasi har tomonlama bo'lib, undan o'quv materialining turli bosqichlarini o'rganishda foydalaniladi. Ta'limdan tashqari mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

- o'zgalari fikriga hurmat;
- jamoa bilan ishlash mahorati;
- faollik;
- xushmuomalilik;
- ishga ijodiy yondashish;
- o'z qobiliyati va imkoniyatlarini tekshirishga yordam beradi;
- “men”ni ifodalashga imkon beradi;
- o'z faoliyati natijalariga ma'sullik va qiziqish uyg'otadi.

“Aqliy hujum” – mazkur metod muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo'llaniladigan metod sanalib, u mashg'ulot ishtirokchilarini muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritish, shuningdek, o'z tasavvurlari va g'oyalardan ijobiy foydalanish borasida ma'lum ko'nikma hamda malakalarni hosil qilishga rag'batlantiradi. Ushbu metod yordamida tashkil etilgan mashg'ulot jarayonida ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha original yechimlarni topish imkoniyati tug'iladi. “Aqliy hujum” metodi tanlab olingan mavzular doirasida ma'lum qadriyatlarini aniqlash, ayni vaqtda ularga muqobil bo'lgan g'oyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi.

Mashg'ulot jarayonida ushbu metoddan samarali foydalanish maqsadida quyidagilarga amal qilish lozim:

1. Mashg'ulot ishtirokchilarning o'zlarini erkin his etishlariga sharoit yaratib berish;
2. G'oyalarni yozib berish uchun yozuv taxtasi yoki varaqlarni tayyorlab qo'yish;
3. Muammoni aniqlash;
4. Mashg'ulot jarayonida amal qilishi lozim bo'lgan shartlarni belgilash.
5. Bildirilayotgan g'oyalarni ularning mualliflari tomonidan asoslanishiga erishish va ularni yozib olish;
6. Muayyan qog'oz varaqlari g'oyalari yoki fikrlari bilan to'lgandan so'ng ularni yozuv taxtasiga osib qo'yish;
7. Bildirilayotgan fikrlarni yangi g'oyalari bilan boyitish asosida ularni qo'llab – quvvatlash;
8. Boshqalar tomonidan bildirilgan fikrlari ustidan kulish, ularga nisbatan kinoyali sharhlarning bildirilishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

Aqliy hujum metodi to'g'ri va ijobiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o'rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ishmuhamedov R. O'quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo'llash uslubiyati. – T.:RBIMM, 2008.
2. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi.: Nasaf, 2000.
3. Ishmuhamedov R.J., Abduqodirov A., pardayev A., Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – T.: Iste'dod, 2008.a



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI O'RTASIDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Quchqorova Yulduz Shodi qizi

Samarqand viloyati Past Darg'om tumani
29- maktabboshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ma'naviyatni yuksaltirish, keyingi yillardagi kitobxonlikka qaratilayotgan e'tibor, boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, kitob mutolaasi insonni ma'naviy kamolot sari yetaklashi, boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlikning shakllanishida oilaning o'rni haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Ma'naviyat, kitobxonlik madaniyati, kitob mutolaasi, boshlang'ich ta'lim, oilada kitobxonlik, boshlang'ich sinflar, sinfdan tashqari o'qish.

Keyingi yillarda yurtimizda yosh avlodning ma'naviyatini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, kitobxonlikni targ'ib qilish kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bugungi kunning asosiy mavzusi bo'lib kelmoqda. Chunki, kitob-beminnat ustoz, bilim va ma'naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manba'idir. Barkamol avlodni voyaga yetkazishda kitobning tarbiyaviy ahamiyati beqiyosdir. Binobarin, aynan mutolaa insonga bilim va axborot beradi. Insonning ma'naviy olamini boyitadi. Kitobxonlik haqida gap ketar ekan ayniqsa, yoshlarning hayotida kitobning alohida o'rni bor. Yaxshi kitob insonda Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini yuksaltirib yaxshilikka ezgulikka undaydi. Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev o'z nutqida "Dunyodagi har qaysi davlat, har qaysi xalq birinchi navbatda o'zining intellektual salohiyati, yuksak ma'naviyati bilan qudratlidir. Bunday yengilmas kuch manbai esa avvalo insoniyat tafakkurining buyuk kashfiyoti kitob- kutubxonalarda" deb ta'kidlagan. Kitobning inson hayotida tutgan o'rni, mohiyati haqida Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek "Kitoblar insoniyat fikri durdonalarini to'plab, avlodlarga yetkazadi" degan. Rus pedagogi Pavlenko esa kitob o'qishni odat qilmagan oilani "ma'naviy qashshoq oiladir" deydi. Yoshlar o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrda №781 -sonli qarori bilan 2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab quvvatlash milliy dasturi ishlab chiqildi. Ushbu milliy dasturni III bosqichda amalga oshirish ko'zda tutilgan.

I bosqich -2020-2021-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bo'yicha tashkiliy huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

II bosqich -2022-2023 yillarda kitobxonlikka oid infratuzilmani mustahkamlash ;

III bosqich 2024-2025yillarda yoshlarning kitobxonlik madaniyatini jadal rivojlantirish , ularning intellektual salohiyati o'sishi hisobiga inson kapitali sifatini yaxshilash kabi muhim mezonlar belgilangan .

Mazkur vazifalarning ijrosi sifatida mamlakat bo'ylab "Yosh kitobxon", " Faol kitobxon guruh", "Kitobxon oila " tanlovlari joriy qilingan. O'quvchilar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish maqsadida turli madaniy-ma'rifiy intellektual tadbirlar o'tkazib kelinmoqda. O'quvchilar va ularning ota-onalari o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish va rag'batlantirish maqsadida ta'lim muassasalarida "Kitob taqdimoti", "Adabiyot kunlari", "Kitobim oftobim" nomli ma'rifiy tadbirlar, "Maktab -kutubxona-oila-jamiyat tashkilotlari" xayriya tadbiri va ota-onalar bilan hamkorlikda ishlashda "Bir farzandga-uch kitob" aksiyalarini hamda "Eng yaxshi kitobxon o'quvchi" va "Kitobxon maktab" tanlovlarini o'tkazish yo'lga qo'yilgan. Kitob o'qish insonning saviyasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Kitobxonlik madaniyatini dastlab maktabda boshlang'ich sinflarda shakllantirish maqsadga muvofiq. 2-sinfdan o'quvchi sidirg'ali o'qishni boshlaydi. Aynan shu davrdan o'quvchilar yoshiga munosib kichik hajmdagi ertaklar va hikoyalarni o'qitishni boshlash kerak. Bunda asosan, sinfdan tashqari o'qishga ko'proq urg'u berishimiz kerak. Sinfdan tashqari o'qish 1-4-sinflarda 2 haftada bir marta o'tkaziladi. Aynan shu davrdan o'quvchilarga ertaklar va hikoyalarni o'qitishni boshlash joiz. Bunda asosan sinfdan tashqari o'qishga ko'proq urg'u berishimiz lozim. Sinfdan tashqari o'qish darslari o'quvchilarda mustaqil kitob tanlash va o'qish malakalarini shakllantiradi. Sinfdan tashqari o'qish uchun kitob tanlashning bir necha tamoyillari bor. Ular quyidagilar:



1. Kitob tanlashda tarbiyaviy maqsad ko'zda tutiladi;
2. Kitob tanlashda asarlar janri va mavzuning xilma-xilliligi e'tiborga olinadi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar, asosan, hikoyalar, ertaklar, she'rlar, topishmoqlar, maqollarni o'qishga qiziqqanlari uchun shu janrdagi asarlar tanlansa, maqsadga muvofiq bo'ladi; Kitobning o'quvchilar yoshi va saviyasiga mosligi hisobga olinadi;
3. Kitob tanlashda o'quvchilarning shaxsiy qiziqishi va mustaqil o'qishi hisobga olinadi;
4. Kitob tanlashda mavsumiy tamoyilga amal qilinadi.

Umuman olganda, kitobni to'g'ri tanlash sinfdan tashqari o'qish muvaffaqiyatini ta'minlashning muhim shartidir. Sinfdan tashqari o'qish o'quv dasturi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, unda ko'zda tutiladigan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda yordam beradi. Buning uchun o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalash, ularni oddiy kitobxondan ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish talab etiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobga qiziqish uyg'otishda har bir bolaga yakka tartibda yondashish, shaxsiy qiziqishlarini hisobga olish zarur. Bolalarda kitob ustida ishlash malakasini rivojlantirish ularni kitobxonlik madaniyatini tarbiyalashning muhim omilidir. Sinfdan tashqari o'qish darslarining asosiy vazifasi o'quvchilarda badiiy kitoblarni o'qishga havas uyg'otish, o'qigan kitoblari yuzasidan kundalik yurita olishga o'rgatish, bolalar adabiyotining mashhur adiblari hayoti va ijodi bilan elementar tarzda tanishtirish hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflarda kitobxonlikni shakllantirishning yana bir usuli bu "Yosh kitobxon" sinf burchagini tashkil qilish. Sinf burchagiga o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lgan yosh doirasidan kelib chiqqan holda, rang-barang kitoblar joylanadi. Bunda o'quvchilar o'rtasida kitob taqdimotlari qilinadi. O'quvchilar o'qib kelgan ertak va hikoyalarini sinfdan o'zaro muhokama qilishadi. O'zaro fikr almashishadi. Bu jarayonda o'quvchilarda mustaqil fikrlash ko'nikmalari shakllanadi, munozaraga kirishishni o'rganadi. "Yosh kitobxon" burchagiga ba'zan bolalar o'z uyidan olib keladigan kitoblarni joylash ham mumkin.

O'quvchi uyida o'qigan kitobni o'z-o'zidan o'zaro taqdimot qiladi, muhokama qiladi. Boshqa o'quvchilarda ham ana shu kitobni o'qishga qiziqish paydo bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari kitobxonlikka qiziqtirish usullaridan yana biri bu-o'qituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida kutubxonalarga tez-tez ekskursiyalar tashkil qilish, o'quvchilarni kitoblar olami bilan, yangi kitoblar bilan tanishtirishdir. O'quvchilarda kitobga muhabbatni, qiziqishni yanada oshiradi. Bu jarayonda o'qituvchi o'quvchilar bilan birgalikda shoshmasdan kitoblarni birgalikda ko'rib chiqishi, o'quvchilar uchun yangi bo'lgan kitoblar haqida o'qituvchi kichik kitob taqdimotlari uyushtirishi o'quvchilarda yangi kitobga qiziqishni oshiradi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda oila va maktab hamkorligida ishlash yaxshi natija beradi.

Adabiyotlar :

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan besh muhim tashabbus.-T.:2019 Yil,19-mart.
2. Matchonov S., Shojalolov A., G'ulomova X., Sariyev Sh., DolimovZ. O'qish kitobi (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik).-T.: Yangiyo'l poligraf servis, 2020.-160b.
3. Таджибоева Ф., Камолова Ш. Оилада болаларда китобхонликни шакллантириш омиллари.-Молодой учений .-2020.-№27(317)
4. www.oriens.uz



МАТЕМАТИКАДА МИЛЛИЙ О‘QUV DASTURINING АҲАМИЯТИ

Raxmonovaq Ibodat Abdikamol qizi
Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on tumani
88-maktab boshlang‘ich sinf
o‘qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchisi matematika fanini Milliy o‘uv dasturidagi ahamiyati haqida ma‘lumot bergan. Milliy o‘quv dasturida matematika darslarini o‘qitishda tavsiyalar bergan.

Kalit so‘zlar: Milliy o‘quv dasturi, matematika, TIMSS xalqaro dasturi, mantiqiy fikrlash, hamkorlik, samaradorlik, natija.

Biz bilamizki farzandlarimiz bizning kelajagimiz poydevori hisoblanadi. Shunday ekan farzandlarimizni ilmi, aqilli, erkin fikr va mulohaza yurita oladigan shaxs sifatida tarbiyalash bugunning bosh maqsadi. Abdulla Avloniy bobomiz shunday degan edilar: “ Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo falokat, yo najot” shunday ekan farzandlarimizga ta‘limga chambarchas qilib tarbiyani ham birgalikda olib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi vazirligi, Respublika ta‘lim markazi va UNICEF tashkiloti hamkorligida milliy o‘quv dasturi tashkil etildi. Nima uchun aynan matematikaga o‘quv dasturimizga katta urg‘u berildi degan savolga hurmatli Prizidentimizning so‘zlari bilan javob bersak “Matematika hamma fanlarga asos. Bu fanni yaxshi o‘zlashtirgan bola aqilli, keng tafakkurli bo‘lib o‘sadi va kelajakda istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi” degan fikrlari asos bo‘lib xizmat qiladi.

Milliy o‘quv dasturimizda sifatli ta‘lim tarbiya bosh maqsad qilib olindi va bunda ikkita sohaga etibor qaratildi. Bunda ilg‘or tajribaga ega bo‘lgan milliy va xorijiy ekspertlarni ta‘lim mazmunini takomillashtirish jarayoniga jalb etish va ilg‘or xorijiy tajribalar, xalqaro baholash dasturlar talablari va spiralsimon o‘qitish metodologiyasi asosida XXI-asr ko‘nikmalarini rivojlantirish, ilg‘or xorijiy tajribalarda TIMSS, PISA, PIRLS xalqaro baholash dasturlari asos bo‘lib xizmat qiladi. Natijada XXI-asr ko‘nikmalariga ega raqobatbardosh, vatanparvar, kreativ shaxsni tarbiyalash nazarda tutilgan. Milliy o‘quv dasturining mazmunida matematika fani tavsifi, matematik mazmun standartlari, matematika o‘quv fani dasturiga etibor qaratilgan.

Matematika fani bo‘yicha Milliy o‘quv dasturini yaratishda fanlar aro integratsiyaga juda katta ahamiyat berilgan, xususan matematika quyidagi fanlar bilan integratsiyalanadi. Informatika, tabiiy fan, texnologiya, iqtisod, tadbirkorlik, ona tili, tarix fanlari bilan integratsiyalanadi. Dasturda matematika o‘qitish konsepsiyasi ishlab chiqilgan. Konsepsiya ishlab chiqishda asosan ikkita me‘yoriy hujjat asos qilib olinadi. Bu hujjatlar 2019- yil 9-iyuldagi “Matematika ta‘limi va fanlarni yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab quvvatlash, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romonovskiy nomidagi matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-4387 son qarori va 2020-yil 7-maydagi” Matematika sohasidagi ta‘lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risidagi PF-4808 sonli qarori asos qilib olinadi.

Milliy o‘quv dasturimizda, matematika fanini o‘qitishning asosiy maqsadi, o‘quvchilarda, o‘rganganlarini kundalik faoliyatda qo‘llash, fanlarni o‘rganish va ta‘lim olishni davom ettirish uchun zarur bo‘lgan matematik bilim va ko‘nikmalar tizimini shakillantrish va rivojlantrish, jadal taraqqiy etayotgan jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladigan, aniq va ravshan, tanqidiy hamda mantiqiy fikrlay oladigan shaxsni shakillantrishga yo‘naltrilgan, masalan.

Boshlang‘ich sinf darsligidagi quyidagi masalalarni mantiqiy fikrlash qobilyatlari shakillantriladi.

1. Masala: To‘qqizta jo‘janing oyoqlari soni, to‘rtta otning oyoqlari sonidan nechtaga kam?

Masalani yechish uchun o‘quvchilar jo‘jada va otda nechta oyoq borligini bilishi kerak. Jo‘jada ikkitadan, otda esa to‘rttadan oyoq borligini o‘quvchilarga tushuntrib o‘tish kerak.

Masalani yechish quydagicha bo‘ladi.

9 ta jo‘ja *2= 18 ta oyoq

4 ta ot * 4 = 16 ta oyoq

Farqi: 18-16=2 ta

2. Masala: 24 metr arqon uch joyidan qirqilsa, har bir bo‘lakning uzunligi necha metr bo‘ladi.



O'quvchilar bu masala yechimini oddiygina $24:3=8m$ dan deb yechib quyishlari mumkin, lekin masala shartiga ko'ra, arqon uch joyidan qirqilsa n ta bo'lakka bo'linishini o'quvchilarga tushuntrib o'tiladi.

Masala yechimini quydagicha ko'rsatib o'tish mumkin $24:4=6m$ demak har bir bo'lak olti metrdan.

Demak xulosa qilib aytsak, matematika fanini yaxshi o'zlashtirgan o'quvchilarni tarbiyalashga diqqatimizni qaratishimiz lozim chunki, matematikadan yaxshi bilmni egallagan farzandlarimiz har qaysi sohada muaffaqiyatli faoliyat yuritib keta oladi deyдилar, hurmatli prizidentimiz.

Shu maqsadda Milliy o'quv dasturimizda matematikaga katta etibor qaratilmoqda. Dasurimizdan yuqori natijaga erishish uchun biz o'qituvchilar kasbimizga sadoqatli bo'lmog'imiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. 1- sinf matematika kitobi. O'rinboyeva L, Jumayev M, Ruzikulova N, Raxmonov U, Ismoilov N, Usmanova M.- Toshkent: Respublika Ta'lim markazi, 2021-yil.

2. Milliy o'quv dastur. 2021 yil

3. Abdurahmonov N., O'rinboyeva L. 2- sinf matematika darsligi. T.: "Yangiyo'l poligraf servis" 2018.

4. Fuzailov S., Xudayberganova Sh., Yo'ldosheva T. 3- sinf matematika darsligi. T.: "O'qituvchi".

5. Bikbayeva N , Yangibayeva E. 4- sinf matematika darsligi. T: 2018



BOSHLANG'ICH TA'LIM KELAJAGIMIZ POYDEVORI

Ro'ziyeva Xursandoy Xusenovna

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani
7-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi
telefon:+998931464114

Annotatsiya: maqolada mamalakatimizda ta'lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirishda boshlang'ich ta'limning ahamiyati to'g'risida fkr-mulohazalar berilgan.

Kalit so'zlari: ta'lim tizimi, boshlan'ich ta'lim, ijodkorlik, zamonaviy ta'lim.

So'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lim tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, bog'cha tarbiyalanuvchilari, o'quvchi va talaba yoshlarda zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, ta'lim tizimlari hamda ilm-fan sohasi o'rtasida yaqin hamkorlik va integratsiyani, ta'limning uzviyligini ta'minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Yurtboshimizning "Yangi O'zbekistonni maktab ostonasidan boshlaymiz" degan so'zlariga mening ham fikrlarim go'yoki, hamohangdek.

Boshlang'ich ta'limda pedagogning asosiy vazifasi o'quvchining ijodiy tasavvurini boyitish hisoblanadi. Bolalarning qobiliyati-idroki, bilish jarayoni natijasida paydo bo'ladi. Bu esa ta'lim samaradorligini vujudga keltiruvchi ilg'or uslublarga tayanishni taqazo etadi.

Ta'lim tarbiya hamisha rivojlanib, taraqqiy etib boradigan jarayondir. Bu jarayon zamon talablari darajasidan kelib chiqib har bir pedagog oldiga katta ma'suliyat yuklashi tabiiy. Inson dunyoga kelibdiki dastlabki yillarda uning hayoti ota-onasi qaramog'ida va tarbiyasi ostida kechadi, oilada u yashash uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni egallaydi. Keyinchalik maktabgacha muassasalari va umumta'lim maktablarida ta'lim bilan birgalikda uzviy xolda tarbiyani ham davom ettiradi. Ta'lim sifatini oshirish yosh avlod uchun juda muhim omildir.

Pedagog faoliyati, avvalo ijodkorlikdir. Shunday ekan, muallim bolajonlarga sidqidildan ta'lim tarbiya berish, ularning kelgusida har tomonlama barkamol avlod bo'lib yetishishlari uchun bor bilim, kuch g'ayratini safarbar etish, sohada hech kim qilmagan yangiliklarni amalga oshirish istagi bilan yashaydi.

Boshlang'ich sinf hayotga tayyorgarlik, bilim berish, qolaversa odob-ahloq poydevori hisoblanadi va biz pedagoglar zimmasiga katta ma'suliyat yuklaydi. Maktabga ilk qadam qo'ygan bolani maktab muhitiga moslashtirib olgach, uni o'qishga, o'qiganlarini qayta hikoya qilishga, hisoblash, she'rni ifodali aytish, mustaqil fkr-lash va chiroyli yozishga o'rgata boshlaymiz.

Birinchi sinfda yozuv malakalarini o'zlashtirayotgan o'quvchi to'rtinchi sinfda ancha tez va xatosiz yozishga o'rganadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari asosan ikkinchi va uchinchi sinflarda yozuvga qo'llari ancha kelishib, imlo qoidalarini o'zlashtirib oladi. O'quvchilarning qobiliyat va istedodining asosiy sharti ularning faoligidir. O'qituvchi qay darajada mahoratli bo'lmasin o'quvchilarning o'zlari faollik ko'rsatmasa xech qanday natijaga erishib bo'lmaydi. Chunki o'qituvchi o'qitish jarayonida bolalarni boshqarib boradi. O'quvchilar esa o'zlariga ahamiyatli va qiziqarli bo'lgan, o'ziga jalb eta oladigan faoliyat bilan shug'ullanishni istaydi. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari, dars tartib intizomiga rioya qilish bilan chambarchas bog'liqdir. Ayrim hollarda o'quvchilarda o'qishni istamaslik, mavzuni eshitmay o'tirishlari, darslarni qoldirishlarini kuzatishimiz ham mumkin.

Odatda bunday o'quvchilarni sinfdagi a'lochi o'quvchilarga qiyoslab ularni turli chiroyli so'zlar bilan maqtashimiz maqsadga muvofiq bo'ladi va dars jarayonini o'quvchilar ongiga singdirishda ijobiy samara beradi. pedagoglar uchun eng yaxshi dars albatta o'quvchilar tomonidan samarali o'zlashtirilgan dars faoliyatidir. Bunday natijaga erishish o'yinqaroqligi hali uzoqlashmagan, fikri tarqoq, bilim egallashni igna bilan quduq qazishdek mashaqqatlarga yelka tutgisi kelmaydigan, bolalarni zeriktirmay, dars jarayonida toliqtirmay ilm egallashlariga ishtiyoqini oshirish biz pedagoglarning mahoratimizga bog'liqdir. Bugungi darsni kechagisidan qiziqarli va maroqli qilib o'tishga harakat qilish kerak. Ayniqsa o'quvchilarni baholash mezonlariga alohida e'tibor qaratish, o'quvchilar o'rtasida faollikka intilish, raqobat muhitini yuzaga keltiradi. Bu albatta sinfda bilimlilar sonini oshishiga olib keladi. O'qituvchi o'quvchilarni dars davomida,, Barakalla" ,,Ofarin" ,,Rahmat" so'zlari bilan maqtab borishi o'quvchilarning uy vazifalarini qoldirmay bajarishga, daftar-kitoblarini ozoda tutishga undab turuvchi kuch desak ham



yanglishmaymiz. Albatta bunday boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘z ishiga qiziqishi, o‘quvchilarni sevishi, ularning extiyojlarini bilishi, zarur vaziyatlarda o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlashi, ular bilan do‘stona muloqotda bo‘lishi talab etiladi. Shunday ekan ustoz-o‘quvchilarning ijodiy va erkin fikrlashi, mantiqiy tafakkurini o‘stirishga, iqtidorli shaxs sifatida kamol topishiga ma’suldir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mavlonova R., O‘To‘raeva, K.xoliqberdiev. pedagogika.-T.:”O‘qituvchi”, 2002
2. O‘zbekisto Respublikasi ning “Ta’lim to‘g‘risidagi qonuni va Kadrlar tayyorlash milliydasturi T., 1997-yil



OILADA BOLA TARBIYASINI MOHIRONA TASHKIL ETISHDA PSIXOLOGIK BILIMLARNING O'RNI

Sadinova Matluba Toshpo'latovna

Nurobod tuman
69-umumta'lim maktab
amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oilada ota-onalarning farzandlar tarbiyasida har bir yosh davrdagi o'ziga xos psixologik xususiyatlari va ular haqida bilimlarga ega bo'lish muhimligi va maktab oila hamkorligini samarali tashkil etish yuzasidan tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: oila, muhit, ta'lim-tarbiya, individuallik, ijtimoiylashuv, usul, metod, uzaro hamkorlik.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31-dekabrda "Uzluksiz ma'naviy –ma'rifiy ta'lim konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-sonli qarorining uzluksiz ma'naviy tarbiya uzluksiz ma'naviy tarbiyani amalga oshirish borasida bir qancha vazifalar belgilab berilgan. Bugungi kunda oilaviy tarbiyaning qiyinlashuvi shundaki, jamiyat taraqqiy etib borgan sari har tamonlama yetuk insonni shakllantirish talablari ortib bormoqda. Bu esa oilada farzandlar tarbiyasini moxirona tashkil etishda barcha ota-onalarning ham psixologik bilimlarga ega bo'lmashligi muommoli holatlarni keltirib chiqarmoqda. Ushbu muommolarni bartaraf etishda oiladagi ta'lim-tarbiyani yanada to'ldiruvchi maktab mavjudligi, oila maktab hamkorligini to'g'ri va samarali yo'lga qo'yish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Professor G.B.Shoumarov fikricha, sharq mutafakkirlarining barchasini g'oyaviy jihatdan birlashtirgan asos shu bo'lganki ular shaxs tarbiyasi va kamolotida oilaning, oilaviy tarbiyaning rolini yuqori qo'yishgan, ayniqsa, shaxsning aqliy va axloqiy kamolotida oilaning o'rni, ota-ona va yaqin kishilarning yo'naltiruvchi va tarbiyalovchi vazifalariga alohida e'tibor berganliklari haqida bayon etadi. Jumladan, buyuk alloma Ibn Sinoning bola tarbiyasi, tarbiya psixologiyasi va rahbarlarga qo'ygan ushbu talablari usha davrda qanchalik taraqqiyparvar va zarur bo'lsa, bizning bugungi kunimizda ham u o'z kuchini yuqotgani yo'qligi, Ibn Sino fikricha "tarbiyachi, yani ota-ona nafaqat so'z bilan balki, amalda ham bola ruhiga ta'sir kursatmog'i lozim" degan qarashlarini hozirgi davr uchun ham ahamiyatli ekanligini ta'kidlab o'tadi.

Har bir ota-ona farzandining yaxshi o'qishi, yaxshi xulq-atvoriga ega bo'lishini va kelajakda uning kamolini ko'rishni istaydi, albatta. Lekin bunga erishish o'z-o'zidan bo'lmaydi. Bu masalada ikkala tomonning: maktabning va ota-onaning teng ravishda majburiyatlari va hissalar bor. Maktab davlatning ta'lim tarbiya muassasasi sifatida oilaviy tarbiyaga katta ta'sir ko'rsatadi. Shunga ko'ra har bir ota-ona o'quv muassasasining bolasining tarbiyasi va o'qishi borasida maktabning ko'pgina talablarini bajarishga ma'suldir. Farzandi maktabda o'qiydigan har bir ota-ona o'zini shu maktabning a'zosiman, deyishga haqli. Ko'pgina ota-onalar farzandlarining yaxshi o'qimasligiga o'qituvchi aybdor deb hisoblaydilar. Bir tamondan olganda ota-onaning e'tirozida jon bor. Maktablarda ko'pincha ota-onalar va maktabning o'zoro hamkorligi haqida umumiy gaplar gapiriladi. Aslida esa bu hamkorlik qay tarzda yo'lga qo'yilishi to'g'risida ko'pchilik yaxshi bilmaydi.

Ota-onalar yig'ilishlarida o'quvchilar muhokama qilinadi: yaxshi o'qiydiganlar, odob-axloqlilarga rahmat aytilsa, yomon o'qiydiganlar, xulq atvori yaxshimaslar tanqid qilinadi. Eng achinarli tamoni shundaki, bola nega yomon o'qishi, yomon xulqli bo'lib qolish sabablari aniqlanmaydi. Maktabda ushbu muammo bo'yicha maxsus pedagogik tizim-bola shaxsining shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar nimalardan iborat ekanligi, har bir bolaning yosh davrdagi o'ziga xos psixologik xususiyatlari, tarbiya usullarini to'g'ri qo'llash yuzasidan ota-onalar bilan hamkorlikda chora-tadbirlar belgilanib olinishi zarur hisoblanadi.

1-4 sinflar kichik maktab yosh davridir. O'quv faoliyati kichik maktab yoshidagi o'quvchi uchun nafaqat bilish jarayonlarining yuqori darajada rivojlanishi, balki shaxsiy xususiyatlarni rivojlantirish uchun ham imkoniyat yaratadi.

5-7 sinfdagi o'quvchilar ayni o'smirlik davrida bo'ladilar. 5- sinflarda bola aksariy o'quvchilarda o'smirlik yoshiga o'tish boshlanadi. "Endi o'smir bola emas, biroq katta ham emas" ayni shu ta'rif o'smirlik davrining muhim xarakterini bildiradi. Bu yoshda o'smir rivojida keskin o'zgarishlar



ruybera boshlaydi. Bu o'zgarishlar fizologik hamda psixologik o'zgarishlardir.

Yuqorida bolalarning har bir yosh davrlardagi psixologik xususiyatlari haqida qisqacha bayon etildi. Har bir davrda oilada ota-onaning bola xarakteridagi salbiy o'zgarishlarni to'g'rlashdagi roli muhim va hal qiluvchi ahamiyatga ega hisoblanadi. Buning uchun esa ota-onalargapedagogik psixologik ma'lumotlarning etarli darajada bo'lishi talab etiladi. Ana shundagina har bir bola tarbiyalanayotgan oilaning ijtimoiy, iqtisodiy, ma'daniy-ma'rifiy, kasbiy sohalardagi holatiga ob'ektiv baho berish imkoniyativujudga keladi. bolalarning ijtimoiy kelib chiqish nuqtai-nazaridan bola tarbiyasiga muhtoj oilalarni aniqlab olish mumkin. Bola tarbiyasida ota-onaning roli va mas'uliyatini talab qilishdan oldin muhtoj ot-onalar uchun maxsus tavsiyalarni ishlab chiqish, seminarlar, trening hamda konsultatsiyalar uyushtirish maqsadga muvofiqdir. Bu masalada sinf rahbarlari va maktab amaliyotchi psixologlarning ota-onalarga beradigan yordamlari doimiy va malakali bo'lishi talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31-dekabrda "Uzluksiz ma'naviy –ma'rifiy ta'lim konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-sonli qarori.
2. M.G. Davletshin, Sh. Do'stmuhamedova, M. Mavlonov, S. To'ychiyeva – "Yosh davrlari va pedagogik psixologiya" O'quv metodik qo'llanma. Toshkent-2004
3. G'. B. Shoumarov, I. O. Haydarov, N. A. Sog'inov " Oila psixologiyasi" Toshkent "Sharq", 2015



4-SINF O'QISH DARSLARIDA PIRLS XALQARO TADQIQOTI BO'YICHA TOPSHIRIQ NAMUNALARINI SHAKLLANTIRISH

Sobirova Dilbar

Samarqabd viloyati Paxtachi tumani 17- maktab
boshlang'ich sinf o'qituvchisi
sobirovadilbar59@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada PIRLS xalqaro dasturi haqida ma'lumotlar berilgan. PIRLS xalqaro tadqiqoti topshiriqlari tuzish metodikasiga oid ko'rsatmalar tavsiya etilgan. O'qituvchilar uchun PIRLS xalqaro tadqiqoti ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich sinf, PIRLS xalqaro tadqiqoti, PIRLS topshiriqlari, diqqat, xulosa, kontent, kompetensiya.

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassilarga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o'z-o'zidan o'quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim-tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishni talab etadi. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda «Xalqaro ta'lim tizimida ta'lim sifatini backlash sohasidagi Xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 997-sonli Qarori qabul qilindi. Unga asosan boshlang'ich sinf o'quvchilari PIRLS, 4-8 sinf o'quvchilari TIMSS xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishi va bu borada amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar belgilandi. PIRLS tadqiqotlari doirasida turli ta'lim tizimiga ega bo'lgan davlatlar 4-sinf bitiruvchilarining o'qish sifati va o'qilgan matnni tushunish darajasi o'rganiladi. PIRLS tadqiqotlari 2001-yildan boshlab 5 yil oralig'ida boshlang'ich ta'lim miqiyosida o'tkazib kelinmoqda. PIRLS xalqaro tadqiqotlarida topshiriqlar soni 12 tadan 16 tagacha bo'ladi. Baholash mezonini 0 balldan 3 ballgacha baholanadi. PIRLS xalqaro tadqiqotlari natijalari tekshirilayotganda ekspertlar tomonidan noto'g'ri tuzilgan savolga 9 kodi, o'quvchi javob yozmagan savolga 8 kodi qo'yiladi. O'quvchilarimizning PIRLS tadqiqotlaridagi ishtiroki kelajakda PISA xalqaro tadqiqotining o'qish savodxonligi yo'nalishida muvaffaqiyatli ishtirokini ta'minlaydi. Shu jumladan 4-sinf o'qish kitobidagi «Pahlavon va shoir» rivoyati asosida PIRLS xalqaro tadqiqoti bo'yicha quyidagi topshiriqlar namunasini keltirish mumkin.

1 Mahmud qayerga safari qildi?

- A) Dehliga
- B) Samarqandga
- C) Xorazmga
- D) Panjobga

2 Mahmudning javobi sultonga qanday ta'sir qildi?

- A) Xafa bo'ldi
- B) G'azablendi
- C) Xursand bo'ldi
- D) Ta'sir qilmadi

3 Musobaqalardan oldin Mahmud nimaga odatlangan edi?



4 Mahmud bellashuvda yutqazdi. Uning 2 ta sababini matndan topib ko'rsating?



5 Mahmudning bellashuvda yutqazganining yaxshi va yomon tomonini ko'rsating.





6. Changalzorda qanday voqea yuz berdi?



7. Mahmudning botqoqqa botgan filni qutqarishining sababi nimada?



8. Sulton Mahmudning qilgan yaxshiligini qanday taqdirladi?



9. Mahmudning harakatlaridan uning qanday xarakterga really ekanligini bilib oldingiz?Javobingizni asoslash uchun uning bajargan ishlaridan ikkitasini yozing.



10 Pahlavon va shoir rivoyatidagi shoir kim?



11 Xalq sayllari,mulozimlar,izzat-nafs,shikast,marhamat soʻzlarini izohlang.



12 Siz Mahmudning oʻrnida boʻlganingizda qanday yoʻl tutgan boʻlardingiz?



PIRLS tadqiqotida Oʻzbekiston Respublikasining ishtirok etishi taʼlim sifatini oshirish,xalqaro miqiyosda mamlakat nufuzini mustahkamlash bilan birga oʻquvchilar bilimini xalqarotalablar darajasiga olib chiqish,dunyoqarashini kengaytirish,mantiqiy fikrlashini oʻstiradi va sinf va sinfdan tashqari oʻqishni baholashda ikkita qamrovli maqsadga yaʼni "badiiy tajriba orttirish", "axborotni olish va undan foydalanish" ga qaratiladi.Oʻz navbatida,ushbu maqsadlarning har biri 4 ta keng tushunish jarayonini birlashtiradi.Bular:

- diqqatni jamlash va aniq koʻrsatilgan maʼlumotlarni topish;
- toʻgʻridan-toʻgʻri xulosalar chiqarish;
- kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish;
- gʻoyalar va axborotni talking qilish va uygʻunlashtirish;

Tadqiqotlar doirasida asosiy eʼtibor tushunishni nomoyon qilishdan oʻzlashtirilgan maʼlumotlarni qanday qilib yangi loyihalar vavaziyatlarda qoʻllay olish(qobiliyatlarini)kompetensiyalarini shakllantiradi.

Oʻquvchilarni PIRLS xalqaro tadqiqotiga tayyorlash jarayonida boshlangʻich sinf oʻqituvchilari PIRLS xalqaro tadqiqotlari haqida koʻproq maʼlumotga ega boʻlsa,PIRLS xalqaro tadqiqotlarining topshiriq namunalari tuza olsa,ularni darslarda qoʻllay olsa oʻqish fanidan nazorat ishlarida PIRLS topshiriqlaridan foydalansa maqsadga muvofiq boʻlar edi.

Adabiyotlar:

1. Xalqaro tadqiqotlarda boshlangʻich sinf oʻquvchilarining oʻqish savodxonligini baholash (Boshlangʻich sinf oʻqituvchilari, metodistlar va soha mutaxassisleri uchun metodik qoʻllanma). Taʼlim inspeksiyasi huzuridagi Taʼlim sifatini baholash boʻyicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. Toshkent, 2019-yil, 92 bet.

2.Matchonov S. ,Shojalilov A. ,Gʻulomova X. ,Sariyev Sh. ,Dolimov Z. Oʻqish kitobi (Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 4-sinfi uchun darslik).—T.:Yangiyoʻlpoligraf servis,2017/2020.—94-96 b.

3. www.ziyonet.uz



АБДУРАУФ ФИТРАТ ИЖОДИДА ТАРИХИЙ ШАХСЛАР УРНИ

Шодиева Лола Зиёдуллаевна

Навоий вилояти Кизилтепа тумани
18-мактабнинг она тили ва адабиёт
фани ўқитувчиси Телефон:+998912516101

Аннотация: Мақолада Абдурауф Фитрат асарларида учрайдиган тарихий шахслар ҳақида фикр юритилади.

Калит сўзлар: Темур, Темурийлар, жамият, драматургия, маданият, тарихий, Абулфайзхон, Або Муслим XX аср миллий тафаккуримиз тарихини Абдурауф Абдурахим ўғли Фитратсиз тасаввур қилиш мумкин эмас. Биз унинг оддий публицистик мақоласидан тортиб адабий-танқидий тадқиқотларигача кўз югуртирсак, бир ҳақиқатга имон келтирамиз: Фитрат меросининг бутун ботинида Туркистон тақдири учун қайғуришдек маҳзун бир руҳ устувор. Ўтмишимизни қора бўёқлар билан бўяб, халқ онгига сингдириш йўлида саъй-ҳаракатлар олиб борилаётган бир пайтда Фитрат тарихий мавзуларда асар ёзишга киришди.

Жумладан, Темур ва темурийларнинг дунё тарихидаги ўрни, мавқеи, сиёсийижтимоий, иқтисодий тараққийси, давлатчилик ва бошқарув санъати, илм, адабиёт ва маданиятни юксалтиришдаги бетакрор хизматларини Фитрат илмий, бадиий, публицистик ижодида ҳамиша юксак фахр, ифтихор билан тилга олади. Темурийлар жамияти тараққийси билан баб-баробар санъат ҳам юксак бир даражага кўтарилди. Бу давр адабиёт, санъат, архитектура ривожини бевоҳита жамият мавқеи билан боғлиқлигини Фитрат тарихий фактлар билан асослайди.

Айтиш мумкинки, миллий адабиётимизда, драматургияда Амир Темур образини биринчи бўлиб Фитрат яратди. Афсуски, Фитратнинг “Темур сағанаси” трагедияси бизгача етиб келмаган. Унинг айрим парчалари

Боймирза Ҳайитнинг “Туркистонда ўлдирилган турк шоирлари” (Қобул, 1983) китоби орқали етиб келган. Етиб келган биргина парчадан ҳам кўринадики, Фитрат Темурни миллатга мурожаат қилдириб, мамлакат ва миллатни ўз олдинги шон-шавкати, ор-номуси, эрк ва озодлиги учун курашга чорлайди. Ёғий-босқинчиларга асир, қул бўлишдан кўра тик туриб шаҳид бўлиш лозимлигини кучли трагик пафос билан тасвирлайди.

Фитрат “Аруз қоидалари” китоби, “Ўқув” дарслиги, “Навоийнинг форсий шоирлиги ҳамда унинг форсий девони тўғрисида”, “Чигатой адабиёти”, “XVI асрдан сўнгги Чигатой адабиёти” каби тадқиқотларида ҳам Темурийлар даври санъат ва маданият тараққийси ҳақида қимматли маълумотлар келтиради. “Ўзбек классик мусиқаси ҳамда унинг тарихи” китобида ҳам темурийлар салтанати ва уларнинг мусиқа, шеърга муносабатига алоҳида тўхтайтиди. Фитрат “Юрт қайғуси” сочмаларида ҳам буюк Соҳибқирон Темурга мурожаат қилади, унинг қабри устида дил сўзларини баён этади. Соҳибқирон барпо этиб кетган буюк давлат бу кун қанчалар қуллик ботқоғига ботиб кетаётганидан қайғуриб, буюк бобоси билан ҳасратлашади гўё. Асарда шоир ўз юртига мурожаат этиб, изтироб билан шундай ёзган эди: “Эй улуғ Турон, арслонлар ўлкаси! Санга не бўлди? Ҳолинг қалайдир?! Нечук кунларга қолдинг? Эй чингизларнинг, темурларнинг, ўғузларнинг оилаларининг шонли болалари! Қани учиклигинг, юксак ўринларинг? Қуллик чуқурларига недан тушдинг!”

Чор Русияси олиб бораётган сиёсат табиийки, бу исёнкор сўзларга қараб турмайди. Шу боис ҳам бир қатор адабиётшуносларимиз Фитратнинг тарихий асарлари, драмаларини таҳлил этиб, унга ноҳақ айбларни юкладилар. Шу ўринда Фитрат тарихий драмаларининг қандай ноҳолис таҳлилларга учраганлиги ҳақида бироз тўхталсак.

1968 йил драмашунос Б.Имомов “Ўзбек драматургиясида маҳорат масалалари (характер ва конфликт)” мавзусида докторлик диссертациясини ҳимоя қилади ва муаммо тақозоси билан Фитрат драмалари хусусида тўхталади. У “Темур сағанаси”, “Абулфайзхон” каби тарихий драмалари ҳақида тўхталиб, шундай дейди: “...у бир қатор сахна асарларида тарихан орқага, ўрта аср воқеалари ўгрилиб, очикдан - очик реакцион йўл тутди. Або Муслим, Ўғузхон, Чингизхон, ва Амир Темур каби тарихий шахслар ҳақида асар ёзди. Бундай асарларида у ўтмиш ҳукмдорларига сиғинади, уларни кўкка кўтаришга, социал янгиликларни тан олмасликка ҳаракат қилади”.



Истиқлол йилларига келиб англадикки, ота-боболарининг кимлигини англаган миллат ҳеч вақт зулм, истибдодга қўл қовуштириб турмайди. Шу боис собиқ иттифокнинг “доно сиёсий психологлари” мозийда ўтган улуғларимиз номини имкон қадар қора бўёқларга бўяб кўрсатиш усулини қўллаган. Ва бу амалда мактаб ва олий ўқув юртлари дарсликларигача сингиб кетган. Шу маънода адабиётшуносларимизни тушунишимиз мумкин.

Ўзликни англашнинг асосий омили тарихни яхши билиш эканлигини англаган Фитрат ва бошқа буюк адибларимиз ўз асарларида тарихий шахсларга мурожаат этганлар.

Бундан ташқари Фитрат тарихга оид драмалардан ташқари тарихшуносликка бағишланган бир қанча форс тилида мақола ва рисолалар ёзди. “Амир Олимхоннинг ҳукмронлик даври” шулар жумласидан. Фитратнафақат драматург, у калами ўткир шоир, ёзувчи, таржимон, адвбиётшунос, тилшунос, мусиқашуносдир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 1 жилд-Т.: “Маънавият”, 2000.
2. Бегали Қосимов. Абдурауф Фитрат, Т.: 1996,
3. Ғаниев И, Фитратнинг трагедия яратиш маҳорати. Т., 1994



МАКТАБ О'QUVCHILARI UCHUN MUSIQA FANINI O'QITISHDA INTERAKTIV USULLARDAN FOYDALANISHNING NATIJAVIYLIGI

Safoyeva Malika Avazovna
G'ijduvon tuman 45-IDUMI
musiqa fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Musiqa hayotimiz mazmuni, dillardagi sevgi muxabbatni tarannum etuvchi beqiyos go'zallik kalitidir. Musiqiy ta'lim va tarbiya usullarini takomillashtirib borilishi esa fanni o'qitilishining yuksakroq darajasini hamda asosini puxtaroq egallab olishni ta'minlashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: interaktiv usullar, innovatsion pedagogik texnologiya, a'nanaviy o'qitish usullar, maktab yoshi, o'smirlik va ijtimoiy yetuklik davri.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish asosida o'qitish samaradorligini oshirish davr talabi sifatida barcha pedagog o'qituvchilar qatorida musiqa o'qituvchisining ham zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Har qanday fanni, shu jumladan musiqa madaniyati darslarini o'qitish jarayonida ham faollashtirilgan, o'quvchilarni darsning faol ishtirokchilariga, mustaqil fikrlovchi, mushohada qiluvchi, o'z fikrlarini bildira oluvchi shaxs sifatida namoyon qilishi uchun imkoniyat yaratuvchi-bu o'qituvchidir. O'qituvchi o'zi va o'quvchilar uchun qulay va qiziqarli bo'lgan o'qitish usullari, yo'llari, shakllari, vositalari bilan birgalikda ulardan foydalanish shart-sharoitlarini belgilaydi, ilg'or pedagogic texnologiyalar yordamida o'quv jarayonisamaradorligini oshirishga harakat qiladi. Shu boisdan ham innovatsion pedagogik texnologiya, ta'lim texnologiyalariga o'quv jarayonidagi eng samarali vositalar sifatida qaralmoqda.

Maktablardada interaktiv rejimida o'qitish jarayonini qo'llash asosiy masalalari quyidagilar bo'lib hisoblanadi:

- musiqa fanini o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarning qiziqishini ko'tarish;
- o'qitish jarayonini o'qituvchi faoliyati hayot real sharoitlariga yaqinlashtirish;
- samarali kommunikatsiya usullari, ya'ni o'qituvchi-o'quvchi va o'zaro, muloqot ko'nikmalarini to'g'ri shakllantirish;
- yangi nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayonini yangi darajaga ko'tarish;
- ta'lim olish jarayoniga o'quvchilarning ma'suliyatini oshirish.

Interaktiv usullarni qo'llashda o'quvchi sinfda dars jarayonini o'zlashtirish asosiy a'zosi bo'ladi va uning fundamental bilimi o'qitish o'chog'ining asosi bo'lib hisoblanadi. O'qituvchi o'z navbatida o'quvchilarga yangi, tayyor bilim bermaydi, aksariyat o'quvchilar orasida mustaqil ravishda izlanish va fikrlash jarayonini rivojlantirish orqali o'zlashtirishni oshiradi.

Qo'shiqlarni o'rganishda interaktiv usullardan foydalanish Insonning yoshiga xos umumiy xususiyatlarini o'rganish bilan psixologiyaning maxsus sohasi – yosh psixologiyasi shug'ullanadi. Eng umumiy ko'rinishida maktab yoshi, o'smirlik va ijtimoiy yetuklik davri kabi yosh bosqichlari ajratiladi. Shu asosda quyidagi yosh davrlarini va ularga muvofiq ta'lim-tarbiya muassasalarini ko'rsatish mumkin: Shaxsning musiqiy rivojlanishi, tarbiyasi va shakillanishi musiqiy pedagogikasining umumiy asoslari bo'limi bosh mavzulari xisoblanadi. Insonning musiqiy rivojlanishi uning musiqiy qobiliyatlari va musiqa madaniyatining bir butun tashkil topishi va shakillanishi jarayoni sifatida namoyon bo'ladi. Musiqiy rivojlanish bu shaxs musiqa madaniyatining jismoniy, aqliy va ma'naviy rivojlanishdagi tug'ma va o'zlashtirilgan, miqdor va sifat o'zgarishlarining xar tomonlama takomillashuvi. Inson o'zining musiqiy rivojlanishida qator yosh bosqichlardan o'tadi.



“Interfaol usullar” haqida Interfaol usuli hamkorlikda faoliyat olib borish ma’nosini anglatadi.

- “Doira” usuli
- “Muzyorar” usuli
- “Tarmoqlar” (Klaster)
- “Zanjir”
- “Akvarium” usuli
- “Mozaika”
- “Suratli diktant”
- “Enerjazerlar”

Ularni dars mashg’ulotlari jarayonlarida qo’llashni sizga tavsiya etamiz.

“Doira” usuli: Bunda o’quvchilar doira shaklida o’tirib, turli Mashqlarni bajaradilar. Bu usulning o’quvchilarni qator qilib o’tkazish usulidan qulay tomoni shundaki, hech bir o’quvchi o’zini ajratilganligini, ya’ni kimdir orqada, kimdir oldinda ekanligini sezmaydi. Har bir o’quvchi tarbiyachi nazari va e’tiboridan chetlanib qolmaydi. Hamma o’zini “teng” his qiladi.

“Akvarium” usuli: Bu usulda bir nechta o’quvchi doira ichida turli vazifalarni bajarishadi. O’rtadagi bu o’quvchilar “Akvarium” ichidagi baliqchalar kabidir. Ularning har bir harakati doira atrofida o’tirgan o’quvchilar tomonidan Aniq kuzatib boriladi.

“Muzyorarlar” usuli: Maqsad: Ishtirokchilarni o’zaro tanishuvlari uchun erkin muhitni yaratish. “Muzyorarlar” boshqacha tanishuvlar deb ataladi. Bu mashg’ulot qisqacha qilib aytganda, o’quvchilarning o’zlarini tutishlariga, bir-birlari bilan tanishishiga va guruhda o’zaro ishonch muhitini yaratishga ko’maklashadi. Ularni ishtirok etishga va o’zaro qo’llab-quvvatlashga dav’at etadi. Ta’lim jarayonida biz bunday mashqlarning yangi turlarini yaratishimiz mumkin.

Musiqash mashg’ulotlarini tashkil etish metodikasi bu ta’limning kompetensiyaviy yondashuviga asoslangan davr talablaridir. Musiqash darslarini rejalashtirar ekan, pedagog o’quvchilarning o’rgatiladigan repertuar va faoliyat turlarini ketma – ketligini to’g’ri tuzishi kerak. Har bir musiqash rahbari xar bir musiqash mashg’ulotini qiziqarli va o’quvchilar xotirasida uzoq saqlanishi uchun ko’rgazmalardan unumli foydalanishni bilishi zarur darsni tashkillashda musiqash rahbari quyidagilarni yoddan chiqarmasligi kerak:

- mashg’ulot bayoni, yangi qo’shiq, foydalaniladigan cholg’u asboblari uchun tayyorlangan ko’rgazmalar;

- qismlarni bir-biriga uzviy bog’lay olish;

- o’quvchilarni qiziqtirish uchun ularning yosh xususiyatlarini e’tiborga olgan holda sodda va past ohangda muloqatda bo’lish;

- texnika vositalaridan foydalana olish; - musiqiy ta’limiy va didaktik o’yinlar yordamida o’quvchilar bilim va ko’nikmalarini mustahkamlab borish;

Darsni rejalashtirishda quyidagilarga e’tibor berishi kerak:

- Musiqash tinglashda rasmlardan, bastakor va kompazitor portretlaridan, xilma-xil rangdagi shakllardan foydalanish;

- Ovoz diapozonini kengaytirish mashqlarida musiqali zinacha ko’rgazmali qurollar, tarqatma materiallardan foydalanish;

- Qo’shiq kuylaganda rasmlarga qarab qo’shiq nomini topish;

- Laparlar va raqslarni ijro etganda atributlar (gullar, lentalar, v.b.) foydalanish;

- Bolalarni ijodiy kobilyatini rivojlantirishda musiqali harakatli va obrazli o’yinlarni o’rgatilganda shu o’yinga mos atributlarni tayyorlab fikrlashga o’rgatish, sahnalashtirilgan jarayonda bolalarni mustaqil harakat qilishlariga imkon yaratadi va katta o’rin egallaydi.



Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich o'quvchilari milliy musiqa vositasida musiqaga bo'lgan qiziqishni kuchaytiribgina qolmay, Vatanga, xalqqa, san'atga madaniyatga, o'z xalqi va o'zga xalqlar tarixiga hurmat e'tiborini oshiradi. Shu asosda mustahkam vatanparvarlik tuyg'ulari hamda o'quvchining e'tiqodi uning axloqiy-estetik fazilatlarining ijobiy shakllanishi va rivojlanishining omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Uzviylashtirilgan Davlat Ta'lim Standarti va o'quv dasturi. Musiqa.
2. Toshkent, 2010 – yil. Nurmatov H, Norxo'jaev N. Musiqa alifbosi. 1 – sinf uchun darslik.



UMUMTA'LIM MUASSALARIDA CHET TILLARINI O'QITISHDA SAMARALI USUL VA VOSITALARDAN FOYDALANISH

Qo'chkarova Mazluma Djumanazarovna

Toshkent shahar Olmazor tumani
29-IDUM ingliz tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada chet tillarini o'qitish jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishning samarali jihatlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Muloqot, ingliz tili, o'qitish, ilmiy yondashuv, axborot texnologiyalari

Bugungi tezkor rivojlanayotgan zamonda ilm-fan, texnika ham shiddat bilan o'sib bormoqda. Har bir sohada taraqqiyot ilgari qadam tashlamoqda. Xususan, ilm-fanda ham katta o'zgarishlar, sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. Har bir fanni yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o'quvchi yoshlarga yetkazib berish bugungi kundagi ta'limning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning 2012-yil 13-dekabrda PQ 1875-sonli qarori qabul qilingandan so'ng mamlakatimizda chet tillarini o'qitishga, o'rganishga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. Yurtimizda chet tillarini o'qitilishida yangicha davr boshlandi. Chet tili darslarining o'qitilishi jarayonida yangicha bosqich, yangicha davr boshlandi. Chet tili darslarining o'tilishi jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni, interfaol innovatsion usullardan, kommunikativ-axborot vositalaridan foydalanish talab qilinmoqda. Respublikamizda chet tili o'qitilishi, chet tili o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini baholashning umumiyevropa ramkalari tavsiyanomalari (CEFR)ga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Unga ko'ra umumta'lim maktablari va o'rta maxsus kasb – hunar muassasalari o'quvchilari uchun darsliklar yaratildi. Ushbu talablarga mos ravishda o'quv xonalari stendlar va yangi axborot-kommunikativ texnikalari bilan jihozlandi. Chet tilini o'rganishga bo'lgan talab kundan kunga oshib bormoqda. Chet tili fani to'rt aspektga (o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish) bo'linib, ularning har biri bo'yicha tushuncha va ko'nikmalar berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida ingliz tili o'qitish, o'rgatish ilmiy yondashuv asosida, davr talablariga to'la javob bera oladigan yangi axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalar joriy etilishi asosida yangi sifat darajasiga ko'tarilib bormoqda.

Demak, ta'lim muassasalarida ingliz tilida qo'shimcha matnlar o'qitish texnologiyasini ishlab chiqish va shu maqsadda kasbiy dasturlarni tuzish tamoyillarini amalga oshirishda, chet tillarni chuqur o'rganishga qaratilgan har bir ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor zarur bo'ladi. Bunday texnologiyalar ta'lim tizimida o'z aksini topishi chet tili o'qitish saviyasini o'stiradi. Chet tilida, jumladan, ingliz tilida mutoala qilish malakalarini shakllantirishga yordam beradi.

Ta'lim va tarbiyani kelishish va ularning o'zaro bog'liqligi, uzluksiz ta'lim tizimida ingliz tilini o'zlashtirgan mutaxassislar tayyorlashda izchillikni ta'minlash bunda samarali shakllar va usullarni, yangi qo'shimcha matnlar o'qitish texnologiyasi metodikasini joriy etish va shu kabi boshqa ilg'or ta'lim uslublaridan keng foydalanish ijobiy natijalar garovidir.

Chet tilida munosabatlar shartlari nutq, qo'shimcha kasbiy matnlar o'rganishning ko'plab turlarini bilish davr talabi ekanligini ko'rsatib beradi. Boshqa tillar mohiyatini kamsitmagan holda, ayniqsa, ingliz tilida muloqot qilishda, nutqini tushunish mutolaa qilish va yozish, nutqiy faoliyat amaliyotida, ixtisoslik, mutaxassisligi bo'yicha keng tarmoqli va kasbiy adabiyotlarni o'qishda ularga tushuntirish annotatsiyalar, tezislar, shuningdek, yozma axborot almashish jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati yaqqol namoyon bo'ladi va aniqlanadi. Metodist olimlarimiz, ta'kidlaganlaridek, o'quvchilar matn mazmunini obrazga kirib ifodalash, matnda aks etgan voqelikni, unda ishtirok etayotgan personajlar fikrini bayonidan boshqa, o'z fikr-mulohazalarini ham suhbat mavzusiga qo'shimcha tariqasida bayon etishi, o'quvchini lug'at boyligini ortishiga ingliz tilida to'g'ri fikrlashga yordam beradi. Bunday uslubdan o'quv jarayonida to'g'ri foydalanilsa, o'zlashtirish bo'yicha ham, o'qitish muddatlari bo'yicha ham, ingliz tilini mukammal o'rganishda ham ijobiy natijalarga erishishga imkon yaratiladi.

O'quv jarayoniga yo'naltirilgan qo'shimcha matn dasturlari qo'llanilishi ingliz tili o'qitish masalasini munosib ravishda hal etishga yaxshi imkon beruvchi metodik yondashuvlarning biridir. Bunday metodika asosida o'qitishga yondashuvlar hozirgi kunda milliy uslubiyatda keng tarqalib



bormoqda.

Mana shu barcha yondashuvlar sof ko'rinishda emas, turli kombinatsiyalarda foydalanilgan holda namoyon bo'ladi. Ingliz tili o'qitishda bunday yondashuv e'tibordan chetda qolib ketmasligi zarurligini aytib o'tish muhim, chunki bu kabi yondashuv texnologiyasi hisobiga boshqa texnologiyalarga qaraganda, qator o'quv masalalarini ancha muvaffaqiyatli hal etish mumkindir. Umumta'lim maktablarida ingliz tili darslarida nutqni rivojlantirish uchun kompyuter texnika vositalari, magnit diskklaridan foydalangan holda, turli dasturlar asosida axborotni, matn mazmunini qabul qilish osonlashadi.

Qo'shimcha matn mohiyatidan kelib chiqib, kompyuter vositasida ta'limiy til o'rganish bo'yicha turli o'yin shaklida yaratilgan dasturlar vositasida tuzilgan kompozitsiyani yozib ko'rsatish yoki so'zlab berish taklif etilishi, yoki oldindan ajratib olingan rasmlar yordamida ma'lum vaziyatni yaratish so'ngra o'sha kompozitsiyani so'zlab berish kabilardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, matnning qismlari yoki matndagi mazmun bo'yicha suhbat o'tkazish nutqni rivojlantirish uchun foydalidir. Bunda o'quvchilarda olgan bilimlarini amalda qo'llashlari uchun so'z boyligini kengaytirish, izlanish faoliyatida ishtirok etish imkoniyatlari yaratiladi.

Matbuot, davriy nashrlar, ommaviy axborot vositalari materiallaridan foydalanib qo'shimcha matn mavzularini tayyorlash mumkin. Qiziqarli izlanishlar va ilmiy kashfiyotlar haqidagi matnlarni o'quvchilar qiziqish bilan o'rganadilar. Matnda tushunishga qiyin bo'lgan qandaydir so'z birligi yoki iboralar bo'lsa, ularni o'quvchilar tushunib olishlariga yordam beradigan va bir muncha soddalashtirilgan sharhlarini ko'zda tutish lozim. Bunday ishlar natijasida o'quvchilar olgan bilimlarini amalda qo'llash, o'z bilim doiralarini kengaytirish hamda izlanish jarayonida qatnashish uchun ularda imkoniyat paydo bo'ladi. Eng quvonarli tomoni til o'rganish bilan bir qatorda, talabalarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, Internetning beqiyos imkoniyatlaridan keng foydalanishga qiziqishlari ortadi.

Ingliz tiliga o'qitishda yangi g'oyalar, texnologiyalardan foydalanilgandagina rivojlanishga, taraqqiyotga erishish mumkin bo'ladi. Mashg'ulotlar jarayonida ularga amal qilinsa, yaxshi samara berishi shubhasizdir. Qo'shimcha matn o'qitish texnologiyasidan foydalanishdan maqsad, ta'lim olishda eng umumiy g'oyalar bilan o'quvchilarni tanishtirishdan iboratdir. Bu texnologiya shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni aks ettiradi, har bir o'quvchining bilim, malaka va ko'nikmalarni egallashlarigina emas, balki uning rivojlanish individual xususiyatlarini hisobga olgandagina unumli, ijobiy natijalarga erishish mumkindir.

Qo'shimcha matn o'qitishda maxsus xonalarda dars olib borish, haqiqatda samarali bo'lishi uchun darsda lingofon qurilmasidan foydalanib, o'quvchilarning mustaqil ishlashlariga sharoit yaratish kerak bo'ladi. So'nggi paytlarda darsda bunday uslubdan foydalanishga e'tibor kuchaymoqda. So'nggi ilg'or metodikalarga tayanib, ingliz tili darslarida o'quvchilarning mustaqil ishlari deb ularning nutqiy ko'nikmalarini shakllantirish va takomillashtirish, berilgan topshiriq bilan o'quv jarayoni uslublari ma'lum tartibda nutqiy malakalarini rivojlantirishga oid mustaqil ishlarni tushunamiz.

Shunday qilib, chet tilini o'rganish hozirgi davr talabi ekan, o'sib kelayotgan yosh avlodga til o'rganishning yangi uslublarini, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ga asoslangan holda ishlab chiqib, o'qish jarayoniga tavsiya etish olimlar, mutaxassislar oldida turgan dolzarb masalalardan hisoblanadi. Iste'dodli yoshlarimizning o'z qiziqqan sohalarida yetuk mutaxassislar bo'lishlari uchun, avvalambor chet tilini jumladan, ingliz tilini mukammal bilishlari zarur.

Demak, texnologiyalarni joriy qilish, o'qitish uslublarini davr talabiga javob berishini ta'minlash pedagog-olimlarning kechiktirib bo'lmas asosiy vazifalaridir. Mutaxassislar tayyorlash va malakasini oshirish ham dolzarb ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan Adabiyotlar ro'yhati

1. Zamira Abdujabbarova . Chet tillarini axborot texnologiyalari vositasida samarali o'rganish. infoCOM.uz 11.03.2009
2. Отабекова М.Р. Молодий учёный. Номер 4 (138) Январь 2017
3. Nosirova D.Sh. Chet tillarini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish. O'zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar mavzusidagi konferensiya materiallari. Toshkent. 21-son, 29-bet. 31.10.2021



BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI FANIDAN SO'Z TURKUMLARINI O'QITISHDA "QORA QUTI" YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

Abdullayeva Zumrad

Yangiariq tumanidagi 23-sonli
maktabning boshlang'ich ta'lim oqituvchisi

Annotatsiya: Yoshlarga ta'lim–tarbiya berishning murakkab vazifalarini hal etish o'qituvchilarning kasbiy mahoratini, iste'dodi, tajribasi va madaniyati hozirgi zamon pedagogik texnologiyalarini qo'llashi, o'quvchilarni o'zaro faollikka olib kelishiga bog'liqdir.

Kalit so'z: Qora quti, texnologiyasi, o'quvchi, til, sintaksis, ohang, tinish.

Ta'lim jarayonida pedagog o'rgatish, bilim, malaka, ko'nikma hosil qilish vazifasini bajarsa, talabalar o'zlashtirish jarayonini o'z boshidan kechiradilar. Bu murakkab psixik jarayon bo'lib, sezgi, idrok, tasavvur, tafakkur kabilar ishtirokida boradi. O'qish o'quvchilarning o'zlashtirish, bilish qobiliyatlari, fikrlash operatsiyalari va harakatlarini hosil qilish jarayonidir. Bu passiv tomoshabinlik jarayoni emas, balki talabaga noma'lum bo'lgan haqiqatlarni ochib beradigan faol, ijodiy faoliyat jarayonidir.

Boshlang'ich ta'lim jarayoni bolaning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, kommunikativ savodxonligi va o'z-o'zini anglash salohiyatini shakllantirishga, jismonan sog'lom bo'lishga moddiy borliq go'zalliklarini his eta olishgab, go'zallik va nafosatdan zavqlana olish, milliy urf-odatlarini o'zida singdirish va ardoqlash, ularga rioya qilishga o'rgatadi.

So'z turkumlarini o'rganishda "Qora quti" metodidan ham foydalandik. Bunda o'quvchilar juft bo'lib ishladilar. Har bir juftlikka "Ot, sifat, fe'l, son turkumining moniyatini yorituvchi tayanch so'zlar, raqamlar, belgilarni kartochockalarga qayd eting" topshirig'i berildi. Ular turli grammatik belgilar, sxemalar, raqmlar yozilgan kartochockalar tayyorladilar. O'quvchilar hamkorlikda bajargan ishlardan (kartochockalardan) namunalar keltiramiz:

1- kartochocka.

Chiziqlar o'rniga mos so'zlarni qo'yib gap tuzing. Tuzgan gapingizdagi so'zlarning turkumini aniqlang. (kartochockada chiziq beriladi)

2- kartochocka.

O'zak so'z yasovchi qo'shimcha so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarga mos so'z toping. Uning turkumini aniqlang.

3- kartochocka.

Berilgan tayanch so'zlar yordamida rasmdan foydalanib "Ikki do'st" mavzusida hikoya tuzing.

4- kartochocka.

2, 2006, 4, 7, 8, 11- raqamlarini harfiy ifodalar bilan yozib, o'zingizning hayotingiz bilan bog'liq matn tuzing va yozing.

5- kartochocka.

To'liq chiziq, bitta to'g'ri chiziq, ikki to'g'ri chiziq belgilar bo'yicha gap tuzing.

Dars mashg'uloti musobaqa tarzida o'tkaziladi. G'olib chiqqan guru a'zolari rag'batlantiriladi. Bu bilan o'quvchilarning harflarni o'zlashtirganliklari to'g'risidagi bilimlari aniqlanadi, ziyrakligi, xotirasi, topqirligi tekshirib ko'rish maqsadida o'tkaziladi. Xuddi shunday har bir berilgan topshiriq orqali dars mashg'ulotlarini tashkil etish mumkin.

Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. R. Ishmuhammedov "O'quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo'llash uslubiyati", Toshkent, RBIMM-2008 yil.

2. A. G'ulomov, M. Qodirov "Ona tili o'qitish metodikasi", Toshkent., 2001 yil.

3. Qodirov M., Ne'matov H., Abduraimova M. Sayfullayeva R., Mengliyev B. Ona tili 8-sinfi darslik/ T.: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2019. – 144 b.



BOSHLANG`ICH SINFLARIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYADAN FOYDALANISH

Asatova Mehriniso Fattohovna

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 12-maktab

Boshlang`ich ta`limi fani o`qituvchisi

Telefon: +998 988 72 57

Annotatsiya: Ushbu maqola umumta`lim maktablarining boshlang`ich sinflarida ta`lim jarayonini amalga oshirish, ta`lim-tarbiya ishlarini yaxshilash, zamonaviy pedagogik, innovatsion va axborot texnologiyalarini ta`lim jarayoniga tatbiq etish, didaktik o`yinlarning ahamiyati xususida.

Kalit so`zlar: innovatsion texnologiya, pedagogik texnologiya, metodlar, boshlang`ich sinf, axborot texnologiya, didaktik o`yinlar.

Pedagogik texnologiya – pedagogik hodisa va ta`limni texnologiyalashtirish sohasida qo`llaniladigan tushuncha. Pedagogik tizim – shaxsning bor sifatlarini shakllantirish uchun tashkiliy, maqsadga yo`naltirilgan va pedagogik ta`sir ko`rsatishni ko`zlagan, o`zaro bog`liq vosita, usul va jarayonlarning yig`indisini ifoda qiluvchi aniq yaxlitlikdir.

Hozirgi kunda ta`lim jarayonida innovatsiya texnologiyalari, pedagogik va axborot texnologiyalarni o`quv jarayonida qo`llashga bo`lgan qiziqish, e`tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri an`anaviy ta`limda o`quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o`rgatilgan bo`lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o`zlari qidirib topishlariga, mustaqil o`rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o`zlari keltirib chiqarishlariga o`rgatadi. O`qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi. Shuning uchun malakali boshlang`ich sinf o`quvchilarini tayyorlashda zamonaviy o`qitish metodlari, innovatsion, pedagogik axborot texnologiyalarining o`rni va ahamiyati benihoyatda kattadir.

Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda barcha umumta`lim maktablarining boshlang`ich sinflarida ta`lim jarayonini amalga oshirish, ta`lim-tarbiya ishlarini yaxshilash, zamonaviy pedagogik, innovatsion va axborot texnologiyalarini ta`lim jarayoniga tatbiq etish, ilg`or ish tajribalarini ommalashtirish, jamoatchilik vat a`lik muassasasi o`rtasidagi hamkorlik yuzaga keltirish, uni mustahkamlash dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Ta`limni texnologiyalashtirish – bu o`qitish jarayoniga texnologik yondashish asosida ta`lim maqsadlariga erishishning eng maqbul yo`llari va samarali vositalarini tadqiq qiluvchi hamda qonuniyatlarni ochib beruvchi pedagogik yo`nalishdir.

Innovatsiya (ingl. innovation – kiritilgan yangilik, ixtiro) – yangilanishni, o`zgarishni amalda joriy etish jarayoni va faoliyati. Ilmiy texnika va ilg`or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqaruv va mehnatni yashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va doiralarda qo`llanishini aks ettiradi.

“Innovatsion ta`lim” ning o`ziga xos xususiyatlari:

1. Oldindan ko`ra bilish, ya`ni o`quvchini avvalgi va hozirgi tajriba asosida o`qitish emas, balki uni uzoq kelajakni mo`ljallashga o`rgatishdan iborat bo`lib, o`quvchi ijtimoiy hayot va kasbiy faoliyatda taxmin qilish, ko`zlash, modellashtirish hamda loyihalashtirishni amalga oshira olishi zarur.

2. O`quvchining hamkorlikda ta`lim olish va muhim qarorlarni qabul qilish (lokal va xususiydan tortib, madaniyat, sivilizatsiya rivojlanishini hisobga olgan holda global muammolarni hal etish)da faol ishtirok etishini ta`minlash.

Boshlang`ich ta`limda didaktik o`yinlar vositasida darslarni olib borish bolalarning aqliy faoliyatga tezroq kirishishlari va adaptatsiya hosil qilishlariga ham ko`mak beradi. Yangi dars boshlanishida yoki o`tgan darsni mustahkamlash paytida didaktik o`yinlardan foydalanib, o`quvchilarning darsga bo`lgan qiziqishlarini oshirish mumkin. Boshlang`ich ta`limda didaktik



o`yinlarning o`rni beqiyosdir. O`yin boshlang`ich sinf o`quvchilarida, ma`lum sifatlarni shakllantirish uchun kattalar – o`qituvchular, tarbiyachilar, ota-onalar tomonidan qo`llaniladigan usuldir. O`yin vositasida o`quvchilarning bilimlarni o`zlashtirish jarayoni qulaylashadi, turli xil predmetlar bilan munosabatda bo`lishga o`rganadi, shuningdek, ularda muomala madaniyati shakllanadi.

Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. B. Abdullayeva, M. Toshpulatova. O`qituvchilar uchun metodik qo`llanma. Toshkent. 2014-yil.
2. M. A. Bantova, G. V. Beltyukova. Boshlangich sinflarda matematika o`qitish metodikasi.



YANGI O‘ZBEKISTONDA YOSHLARGA YARATILAYOTGAN IMKONIYATLAR

Rustamova Zarnigor Baxtiyor qizi

AndMI texnikumi talabasi

Zokirjonova Diyora Oybek qizi

Andijon Iqtisodiyot va Qurilish instituti talabasi

Ismoilova Gulnoza Akmaljon qizi

Andijon Iqtisodiyot va Qurilish instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonda yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar haqida atroflicha fikr va mulohazalar yuritiladi.

Kalit so‘zlar: yangi O‘zbekiston, yoshlar, imkoniyatlar, yoshlar siyosati.

Annotation: The article discusses in detail the impossibility of creating for young people in New Uzbekistan.

Keywords: new Uzbekistan, youth, education, youth policy.

Аннотация: В статье подробно рассматривается невозможность творчества для молодежи Нового Узбекистана.

Ключевые слова: новый Узбекистан, молодежь, молодежная политика,

Milliy mustaqillik jamiyatimiz a‘zolarininng ijtimoiy –siyosiy, hamda madaniy ma’naviy kamolotining kafoloti sifatida, kundalik hayotimizda jamiyatimizning har bir bo‘g‘inida tub o‘zgarishlarni olib kirdi. Bugungi kunda jamiyatda yoshlar real kuch sifatida o‘zligini namoyon qilayotgan ekan, ular faoliyati milliy taraqqiyotimizning rivojiga yanada ijobiyroq yo‘naltirishning yo‘l –yo‘riq va usullarini tadqiq etish zarurdir. Fuqarolik jamiyati asoslari mustahkamlanayotgan hozirgi bir davrda jamiyatning kelajagi bo‘lgan yoshlarga e‘tibor har qachongidan ham dolzarbdir. Shu bois bugungi kunda vatanimizda yoshlarga munosabat davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov “*Bugun biz o‘tmishdan qolgan o‘g‘ir me‘rosni, o‘sha paytda yo‘l qo‘yilgan xato, kamchiliklarni bosqichma –bosqich tuzatib boryapmiz. Qilayotgan bu ishlarimizning amaliy namoyonini yoshlarga yaratilayotgan sharaotlar misolida ko‘rish mumkin*” degan edilar.

Yangi O‘zbekistonda yoshlar sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar yoshlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash, o‘z salohiyatini to‘laqonli ro‘yobga chiqarish uchun qulay imkoniyatlar yaratish, jamiyat va davlat ishida ishtirokini kengaytirish, ijtimoiy-iqtisodiy yangilanishlar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari hisoblanadi.

Mamlakatimizning kelajagi bo‘lmish yoshlarimizni har tomonlama yetuk, bilimli, salohiyatli shaxs, komil inson sifatida tarbiyalash masalasiga bugungi kunda o‘ziga xos tarzda, zamonaviy yo‘llar bilan, ularning barcha huquq va erkinliklari, manfaatlari va imkoniyatlarini himoya etish aslida zamon bilan birgalikda ya‘ni hamohang tarzda olib borilmoqda.

Shu bois ham, yoshlar barcha davrlarda jamiyatning faol qatlami sifatida e‘tirof etib kelingan. Sharq Uyg‘onish davrida ham, jadidlar faoliyatida ham, jamiyatning yangilanishida yoshlarning o‘rni beqiyos bo‘lgan. Shu jihatdan muntazam shakllanib boruvchi bu qatlam doimiy yo‘naltirib va qo‘llab-quvvatlab turishni talab etadi... Bu esa, davlat tomonidan yoshlarning mamlakat manfaatlari yo‘lida erkin ijtimoiylashuvi va o‘zini samarali namoyon etishi uchun maqbul sharoit va imkoniyat yaratish hamda yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi yoshlarga oid davlat siyosatini anglatadi.

Mamlakatimizda yoshlar masalasi har doim davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Yoshlarga oid davlat siyosati – bu davlatning demokratik taraqqiyot yo‘lida rivojlanishida yoshlarni muhim strategik kuch sifatida tan olishi, zamonaviy dunyoda yoshlarning ehtiyojlari, ularning mavjud demokratik muhitga to‘g‘ri moslashuviga yo‘naltirilgan qonunchilik va ijro etish xususiyatining yig‘indisi hamda o‘zining yoshlarga nisbatan boshqaruv va ijtimoiy funksiyalarini demokratik siyosiy tizim, xalqaro yoxud milliy huquq normalari talabi darajasida to‘liq bajarishidir. Yosh avlod vakillarining manfaatini, boshqa ko‘pchilik qatlamlar vakillarining manfaatiga qarshi qo‘ymasdan, umummilliy manfaat bilan uyg‘unlashtirish – yoshlar siyosatining asosiy vazifasidir.

Yangi O‘zbekistonda yoshlar siyosatini zamon talabidan kelib chiqib takomillashtirishda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning tashabbuslarini alohida ta‘kidlash lozim. “*Yangi O‘zbekistonni, albatta, yoshlar bilan birga quramiz*”. Shavkat Mirziyoyev. Davlatimiz



rahbarining yoshlar kamolotiga qarayotgan doimiy e'tibori, ayniqsa, ta'lim islohotlarida yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Bu islohotlarning yutug'i esa yoshlarning davlat va qonunlarga ishonchini kuchaytirmoqda.

Yoshlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari, iqtidorli va iste'dodli yoshlarni, yoshlar tadbirkorligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, yoshlar ijtimoiy xizmatiga oid normalar o'z aksini qonun hujjatlarida o'z aksini topgan. Amalda bugun o'z ifodasini topgan yoshlar uchun imkoniyatlar ijod, prezident maktablari, ixtisoslashtirilgan maktablarning faoliyati, oltin, kumush medal joriy etilgani, fan olimpiadasi g'oliblari, Zulfiya, "Mard o'g'lon" "Kelajak bunyodkori" kabi davlat mukofotlarini joriy etilganining tub maqsadi, qonunning hayotiyliigi va ijrosini ta'minlashdir. "Yoshlarga oida davlat siyosati" to'g'risidagi qonuni ahamiyatli tomoni shundaki, unda Yoshlarning tadbirkorlik bilan shug'ullanishlari uchun sharoitlar yaratish, ularni har xil salbiy illatlar ta'siridan himoya etishda, huquqbuzarliklarning nisbatan ertaroq oldini olish niyatida "Yoshlar –kelajagimiz" davlat dasturi doirasida O'zbekiston yoshlar ittifoqi bilan birgalikda jamg'arma tashkil etildi. Shuningdek, ushbu jamg'arma maqsadi, g'oya va loyihalarini amalga oshirishlari uchun tijorat banklari orqali yillik 7 foiz miqdorida imtiyozli kreditlar va lizing xizmatlari ko'rsatish; hamda dastur doirasida ajratilayotgan kreditlar miqdorining 50 foizidan oshmagan miqdorda kafilliklar berish kabi imtiyozlarni amalga oshirdi.

Yoshlarimizning qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularning orzu-intilishlari, qobiliyat va salohiyatini ro'yobga chiqarishda olib borilayotgan Yoshlarga oid davlat siyosati davlat siyosatining eng muhim va ustuvor yo'nalishi bo'lib, bu yo'lda ulkan ishlarni amalga oshirilmoqda.

Eng yorqin namuna misolida shuni ko'rsatishimiz mumkinki, Yoshlarni qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan isloh qilish va yanada rivojlantirish maqsadida 2021-yil mamlakatimizda **"Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"** deb e'lon qilindi. Bu esa albatta, har bir yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashni, ularga keng ko'lamli imkoniyatlar yaratilishini ta'minlaydi.

Yoshlarimizning nufuzli xorijiy oliy o'quv yurtlarida tahsil olishi uchun ko'maklashishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, xalqaro ta'lim dasturlari bo'yicha eng yuqori ballarni to'plagan iqtidorli yoshlarga imtihon topshirish xarajatlari to'liq qoplab berilishi joriy etildi. Izlanuvchi yoshlarni rag'batlantirish maqsadida "Yosh olimlar" innovatsion tanlovi uchun 30 milliard so'mdan ortiq mablag' ajratilganining o'zi ham katta imkoniyatdir.

Albatta, biz yoshlar berilayotgan sharoitlardan, yaratilayotgan imtiyozlar, imkoniyatlardan samarali foydalanib, yuritimizning rivojlanishi uchun munosib hissa qo'shamiz. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Yangi O'zbekistonda milliy taraqqiyot yuksalishi uchun avvalo, xalqimizning, mas'ul shaxslar va rahbarlarning qarashlari va fikrlashini o'zgartirish zarur. Yangi O'zbekiston yoshlari yaratilayotgan imkoniyatlardan munosib foydalanishi va o'z natijasi ya'nikim, jamiyatga foyda keltirishi kerak.. Yangi O'zbekistonda milliy taraqqiyot yanada rivojlanishi har bir o'zbekman degan shaxsning yelkasidagi burchi ekanligini anglash zarur. Shuni ta'kidlash joizki, yangi O'zbekiston yoshlari - mamlakatimiz kelajagi va istiqboli demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasida Yoshlarga oid davlat siyosatining tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida PF-6017-son. – T.: 2020
2. O'zbekistonda Yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida Vazirlar Mahkamasining qarori. – T.: 2021
3. Mirziyoev Sh. Jismoniy va ma'naviy yetuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir. "Xalq so'zi" 2017
4. <https://atm.andmiedu.uz/2017-2021-yillarda-ozbekiston-respublikasini-rivojlantirishning-beshta-ustuvor-yonalishi-boyicha-harakatlar-strategiyasi/>



CHET TILLARINI O'QITISHDA ZAMONAVIY USUL VA METODLARDAN FOYDALANISH

Shosaidova Dilnoza Abdukaxarovna

Ingliz tili fani o'qituvchisi

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Huzuridagi "Ziyo-zukko" umumta'lim maktabi

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitish jarayonida qo'llaniladigan metodlardan foydalanish imkoniyatlari haqida fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar: Metod, texnologiya, ko'nikma, zamonaviy, innovatsion.

Bugungi kunda xorijiy tillarni bilish ko'nikmasi ta'limning ajralmas qismlaridan biri bo'lib bormoqda. Turli sohalaridagi mutaxassislarda chet ellik hamkorlar bilan hamkorlik qilish ko'rsatgichi yuqori bo'lganligi sababli, ularda til o'rganishga bo'lgan talab yuqoridir. Zamonaviy jamiyatda chet tillari kasbiy ta'limning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Bunday bilimlarni insonlar dastlab maktab, litsey, keyinchalik oliy ta'lim muassasalarida, o'quv kurslarida yoki mustaqil ravishda xorijiy tilni o'rganishga yordam beruvchi asosiy ma'lumot to'plamlari bilan tanishgan holda o'rganadilar. Bugungi kunda turli darajadagi til bilimiga ega kishilar uchun o'quv materiallarining katta to'plamlari mavjud. Ushbu maqsadga yetishishda muvaffaqiyatga erishish, o'qituvchilarning amaliy uslublari va malakasiga bog'liq. Axborot texnologiyalari va zamonaviy o'qitish uslublaridan foydalanish qobiliyati yangi materiallarni tezkor tushunishga yordam beradi. Turli usullarni birlashtirib o'qituvchi muayyan ta'lim dasturlarini yechishga qodir bo'ladi. Shu munosabat bilan o'qituvchilar xorijiy tillarni o'qitishning zamonaviy usullari bilan tanishishlari kerak. Natijada maqsadlariga erishish uchun eng samarali usullarni tanlay bilish ko'nikmalari shakllanadi. Bunda o'qitish va o'rganishning bir necha metodlaridan foydalanish samarali natija beradi. O'qitish kichik bosqichlarda amalga oshiriladi va o'quvchining mavjud bilim tizimiga asoslanadi.

Ingliz tilini o'rgatishda o'rganuvchining salohiyat va darajasi, yoshidan kelib chiqqan holda bosqichma-bosqich o'rgatish yaxshi natija beradi. Bunda o'quvchilar boshlang'ich bosqichda o'qitish, o'rta bosqichda o'qitish, yuqori bosqichda o'qitish asosida guruhlariga bo'linadi. Har bir bosqich uchun o'qituvchi tomonidan maxsus dastur ishlab chiqiladi.

Boshlang'ich bosqichda talaffuzga muhim e'tibor beriladi. O'quv jarayonining boshlanishida o'qituvchi asosiy e'tiborini o'quvchining talaffuziga qaratishi kerak. Grammatika va lug'at asosiysi hisoblanada, ma'ruzachi talaffuzi noto'g'ri bo'lsa, buning hammasi befoyda hisoblanadi. Shuning uchun o'qitishda dastavval asosiy e'tibor talaffuzga qaratiladi. Bunda turli xil audiolardan foydalanish yaxshi natija beradi. O'qituvchi dars davomida harflar, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishni o'rgatishi kerak. Shuningdek, boshlang'ich bosqichda og'zaki nutqqa va o'qish texnikasini o'stirishga katta e'tibor beriladi. Bunda chet tilini o'qitishning nutq faoliyati turlari bo'yicha ko'rib chiqadigan bo'lsak, ularni o'rgatishda quyidagi vazifalarni bajarish zarur:

- o'qish mexanizmini hosil qilish;
- og'zaki o'qish texnikasini o'stirish;
- o'qiganni tushunishga o'rgatish.

Boshlang'ich bosqichda o'qishning asosan ovoz chiqarib o'qish turiga keng o'rin ajratiladi. O'qish uchun ajratilgan matnlar ham eng sodda va oddiydan asta-sekin murakkablashib boradi. Lekin shuni aytish kerakki, boshlang'ich bosqichlardagi ish faoliyati asosan og'zaki nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishiga qaramay ingliz tilida og'zaki nutqni o'stirish masalasini hal qila olmaydi. U haqiqiy og'zaki nutq ustida ishlash uchun faqat tayyorgarlik bosqichini o'taydi. Qolaversa, so'zlarni chiroyli va ravon o'qish o'quvchining shu tilni o'rganishga bo'lgan muhabbatini oshiradi.

Ingliz tilini o'rganishning o'rta bosqichida asosiy e'tibor ko'proq hajmdagi matnlarni o'qib tushunishda fikrlashni, nutq faoliyatini, tashabbuskorlikni oshirishga yordam beradigan usullardan foydalanish kerak. O'quvchilarga uy vazifasi sifatida matnlar berib boriladi. Matnni tushunganligini tekshirish uchun turli xil savollar beriladi. Savol – javob mashqlaridan foydalangan holda nutqni kuchaytirish, xotirasini yaxshilash, takrorlash natijalariga erishiladi. Savol – javob natijasida o'sha so'zlarning xotirada takrorlanishi hamda nutqda qo'llay bilish ko'nikmalari shakllanadi.



Bundan tashqari dars jarayonlarida turli xil o'yinlardan hamda metodlardan foydalanib, o'quvchilarni til o'rganishga bo'lgan qiziqishini orttirib, til o'rganish sur'atini oshirish mumkin.

1) Muammoli vaziyat yechimi – bu usulni qo'llash uchun hikoyaning boshlanishi o'qib beriladi. Qanday yakun topishi o'quvchilar hukmiga havola qilinadi;

2) Quvnoq topishmoqlar – o'quvchilarga topishmoqlar o'rgatish chet tillarini o'rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o'zlariga notanish bo'lgan so'zlarni o'rganadilar va o'ylab topishmoq javobini topadilar;

3) Tezkor javob – o'tilgan dars samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega;

4) Pantomima – bu usul juda qiyin mavzular tushuntirilishi kerak bo'lgan darsda yoki yozma mashqlar bajarilib, o'quvchilar charchagan paytda foydalansa bo'ladi;

5) Hikoya zanjiri – usuli o'quvchilarning o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirishga yordam beradi. Mazkur usulda o'quvchilar hikoyalarni galma-galdan aytib hikoyani davom ettiradilar;

6) Allomalar yig'ini – mazkur metodda allomalar aytib ketgan hikmatli so'zlardan foydalanilgan holda dars o'tiladi;

7) Rasmlar so'zlaganda – usuli ancha qulay bo'lib, chet tillarini o'rgatishda, o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishda yordam beradi, buning uchun mavzuga oid rasmlardan foydalanish lozim.

Chet tili darslarining o'qitilishida turli rolli, harakatli o'yinlardan foydalanish ham darsga ham til o'rganishga bo'lgan qiziqishni ortishiga sabab bo'ladi. O'quvchilarning juft yoki kichik guruhlarda ishlashlari orqali esa o'quvchilarning boshqalar bilan kommunikativ aloqa qilishlari uchun yordam beradi.

Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'qitish va o'rganish ham eng samarador usullardan biridir. Bu jarayonda, jumladan;

-kompyuterdan foydalanganda o'quvchi chet tilidagi video roliklarni, namoyishlarni, dialoglarni, kin ova multfilmlarni ham ko'rishi va eshitishi mumkin;

- chet tilidagi radio eshittirishlar va televideniya dasturlarini eshitish va tomosha qilish mumkin;

- ancha an'anaviy usul bo'lgan magnitofon va kassetalardan foydalanish.

- CD playerlardan foydalanish mumkin. Bu texnik vositalardan foydalanish o'quvchilarning chet tilini o'rganishlari jarayonini qiziqarliroq va samaraliroq bo'lishini ta'minlaydi.

Ko'rib chiqqanimizdek, har bir innovatsion texnologiya o'ziga xos afzallik jihatlariga ega. Bu usullarning barchasida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik, o'quvchining ta'lim jarayonidagi faol harakati ko'zda tutiladi.

Xulosa qilib aytganda, chet tili darslarida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, nutqi ravonlashadi, tez va to'g'ri javob berish malakasi shakllanadi. Bunday usullar o'quvchida bilim olishga bo'lgan ishtiyoqni uyg'otadi va rivojlantiradi. O'quvchi darslarga puxta hozirlik ko'rishga intiladi. Bu esa o'quvchilarni ta'lim jarayonining faol sub'ektiga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Отабекова М.Р. Молодой учёный. Номер 4 (138) Январь 2017
2. Муминова Ф.М. Молодой учёный. Номер 18 (308) Май 2020
3. Zaripova F, O'rinova S. Xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion metodlardan foydalanish. Marifatyogdusi.uz. 19.05.2021



BOSHLANG'ICH SINFLARDA BADIY ASARNI TAHLIL QILISH

Suvonova Risolat Ne'matullojevna

Samarqand viloyati Pstdarg'om tuman
125-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Anatatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda badiiy asrlarning, o'quvchilarni mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda boshlang'ich sinflarda asar tahlilini tashkil etishning metodik jihatlari aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, asar tahlili, mustaqil fikr, mantiqiy tafakkur, ta'lim- tarbiya, didaktik topshiriq.

Boshlang'ich sinflarda badiiy asarlarga muhabbatni o'yg'otish kitobni to'g'ri, ravon va tez o'qish malakalarini takomillashtirishda, badiiy asarni tahlil qilish jarayonida o'quvchilarning og'zaki nutq faolyati, tasavvur olamini boyitishda katta ahamiyatga ega. Zamonaviy maktab oldiga qo'yilgan vazifalar, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar umumiy rivojlanishining o'sganligi, psixologiya va xususiy metodika sohasidagi yutuqlar sinfda o'qish mazmuni va o'qitish metodlariga o'zgartirish kiritishni talab etmoqda. Shularga bog'liq holda badiiy asarni tahlil qilish metodikasi takomillashtira borildi: takroriy bayon qilish mashqlari kamaytirildi, ijodiy va o'qilgan matn yuzasidan o'z fikrini bayon qilish ko'nikmasini o'stiradigan mashqlar ko'paytirildi, asar qismlari ustida emas, balki yaxlit asar ustida ishlanadigan bo'ldi, asar g'oyasi va obrazlarini tushuntirishda o'quvchilarning mustaqilligi ortdi, matn ustida ishlashda xilma-xil topshiriq turlaridan, ta'limda texnika vositalaridan va ilg'or pedagogik texnologiya usullaridan ko'proq foydalanila boshlandi deb mutahassislarimiz ma'lumot bermoqda.

Asarni tahlil qilishda hisobga olish zarur bo'lgan muhim omillardan biri uning o'quvchilarga hissiy ta'siridir. O'quvchilar muallifning asosiy fikrini tushunibgina qolmay, muallif hayajonlangan voqeadan ham hayajonlansinlar. Matnni tahlil qilish o'quvchida fikr qo'zg'atishi, hayotiy tajribasining muallif qayd etgan dalillarga to'g'ri kelish-kelmasligini aniqlashi zarur. Tahlil davomida asarning estetik qimmatini, badiiy go'zalligi ham alohida qayd qilib o'tilar ekan.

Asar tahlili jarayonida matn ustida ishlashning quyidagi turlaridan foydalaniladi:

1. Tanlab o'qish.
2. O'quvchilarning berilgan savol va topshiriqlarga o'z so'zlari bilan javob berishi.
3. O'quvchilarni savol berishga o'rgatish.
4. Matnni tasvirlash.
5. Asar rejasini tuzish.

O'qish darslari o'quvchilarda badiiy asarlarning bir-biridan farqini ajrata olish, yozuvchining hayotiy voqealarni qanday badiiy vositalar orqali aks ettirgani va qanday obrazlar yaratganini aniqlay olish, mustaqil o'qish va asarni tahlil qilish malakasi sinfdan-sinfga o'tgan sari o'stirib boriladi.

O'quvchilar adabiy ma'lumotlarni o'zlashtirish orqali badiiy asarning mazmuni, g'oyasi va ahamiyatini anglab ola boshlaydilar. O'quvchilar adabiy tushunchalarni o'rganish natijasida badiiy adabiyot san'atning bir turi ekanligi, uning hayot bilan aloqadorligini bilib oladilar. Adabiy tushunchalarni shakllantirish bilan birga o'quvchilarning nutqini o'stirish ham muhim o'rin tutadi.

Boshlang'ich sinflarda asar tahlilida adabiy janr turlari — ertak, hikoya, masal, she'r, doston, maqol, topishmoq bilan birga badiiy til vositalari — sifatlash, o'xshatish, jonlantirish, mubolag'a bilan ham amaliy ravishda tanishtiriladi.

Xalq og'zaki ijodida ertak janrining bolalar tomonidan yaxshi qabul qilinib, qiziqib o'qilishining sabablaridan biri ertak tilining ta'sirchanligi, o'tkir sujetlilik va xalq tiliga yaqinligidir.

Matn tahlilida matnni o'qib unda qaysi so'z o'z ma'nosida boshqa ma'noda qo'llangan yoki matinda jonsiz narsalar jonlidek tasvirlangan o'rnlarni topib o'qing. Yangi lug'at so'zlar ustida ishlash kabi savol va topshiriqlardan foydalanish mumkin.

Lug'at ishida ham bolalar uchun yangi notanish so'zlar ustida ishlashni o'rgatib borish.

Soy-tog'lar oralig'idagi oqar suv.

Ancha-muncha-talaygina, anchagina.

Chetan devor-daraxt novdasidan to'qib yasalgan kuzov.

Me'yor-asosiy o'lchov birligi ma'nosida.



Farovon-ortiq, ziyoda.

Tanob-arqon o'lvov birligi ma'nosida.

Yangi so'zlar o'quvchilarni so'z boyligini boyitib borishda katta ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganimizda, asarda tasvirlangan voqealarga zamonaviy yondashilgan taqdir-agina matnni to'g'ri o'qish, qahramonlarning xatti-harakati sabablarini tushunish, dalillar va voqealarni haqqoniy baholash mumkin. Buni boshlang'ich sinflarga tatbiq etganda, avvalo, bolalarni asarda tasvirlangan davr bilan qisqacha tanishtirish, keyin o'quvchilarda qatnashuvchi shaxslarning xatti-harakatini ular yashagan davr va ijtimoiy omillarni hisobga olgan holda baholashni o'stirish zarur. Tahlil qilish davomida asarni o'qitib, asardagi obrazlarni o'quvchilarga taqsimlab berib, asar qahramonlari o'rniga o'zini qo'yib uni kechinmalarini his etib rolni ijro etish kerakligini ham tushuntirib borish lozim.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Lyamin V.T. Integratsiya darslari va ularga sharhlar. «Boshlang'ich maktab» jurnali. Toshkent. 2000- yil. 212 b.
2. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva SH., Sariev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. Darslik. T., "Noshir" 2009
3. Husanboyeva Q. Tahlil- adabiyotni anglash yo'li. Toshkent . "Muharrir" 2013. 432b.



STUDY OF TH SILICON-CONTAINING PHTHALOCYANINE PIGMENT

Toshqulov Safarmurod Shomurodovich

Termez State University. Faculty of Chemistry
Chemistry Education direction 4th year student.

Toshmirzayev Tohirbek Odilovich

Termez State University. Faculty of Chemistry
Chemistry Education direction 4th year student.

Annotation: They exhibit good thermal and chemical stability and also have extensive optical and electronic properties that can be improved as a result of synthetic modifications such as attaching functional groups around their molecules.

Key words: electronic properties, result, simplicity, literature today, ecomposition, metal structures.

The metal-containing phthalocyanines have been used traditionally on an industrial scale for many years. They have long been used as dyes and pigments, especially in colored printing inks, as pigments in paints, plastics, metal structures, and as one of the main materials for dyeing synthetic fibers. Phthalocyanines form organometallic compounds (metal coordination complexes) just like plant chlorophylls. They exhibit good thermal and chemical stability and also have extensive optical and electronic properties that can be improved as a result of synthetic modifications such as attaching functional groups around their molecules.

Macrocyclic molecules based on metallic and nonmetallic phthalocyanines are very thermally and chemically stable and can contain the following most metals (e.g., Li, Cu, Zn, Co, Mn, Fe, and nonmetallic Si, H) phthalocyanins. Organic semiconductor devices based on a large number of heterostructures are being intensively studied today due to the simplicity of production technology, the possibility of using flexible substrates in their production and their relative cheapness. These organic semiconductor phthalocyanins are sensitive to light, resulting in photoanode titanium dioxide TiO_2 in the manufacture of dye-sensitive solar cells (DSSC) and other (OFET) i.e. electronic devices. is used in conjunction with liquid electrolytes to form a micro-layer on materials [1].

Silicon-containing phthalocyanine is a more intense pigment than other metal-containing phthalocyanine complexes and has been shown to be sensitive to light by analysis on a V-5000 Spectrophotometer. In the future, this phthalocyanine complex will be widely used in dye-sensitive solar cells [2]. Because, it has the property of transmitting charge and absorbing the visible light spectrum well. Solar panels, which are sensitive to dyes in the literature today, are also called Gratzel cells. Rutin-based complex substances are used as dyes [3]. Since this dye is economically expensive and its preparation process is very complicated, we used silicon phthalocyanine pigment as an alternative to routine dyes. Silicon-preserved phthalocyanine pigment differs from rutinic pigment in that it has a high assimilation coefficient, is environmentally friendly and inexpensive.

Thermal analysis of the new silicon-containing phthalocyanine (SiPc) pigment was performed in the temperature range of 20–500 °C. The resulting derivatogram is shown in Figure-1 and consists of 4 curves. Analysis of the differential thermogravimetric analysis curve (DTGA) (curve 2) shows that the DTGA curve occurs mainly in 2 intensive decomposition temperature ranges. Decomposition range 1 corresponds to a temperature of 53-254°C, and decomposition range 2 corresponds to a temperature of 258-479 °C.




Figure-1. Derivatogram of silicon-containing phthalocyanine pigment (SiPc).

Temperature curve; 2- differential thermogravimetric analysis curve (DTGA); 3-Derivative of the differential thermogravimetric analysis curve (DTGP); 4-DSK curve. Analyzes have shown that intensive decomposition takes place in the 2nd decay interval. During this period, the amount of decomposition, i.e. 8.6% of decomposition, takes place. A detailed analysis of the differential thermogravimetric analysis curve and the DSK curve is given in the table below.

Table-1 DTGA and DSK curve of silicon-containing phthalocyanine (SiPc) pigment analysis of results

№	Temperatura, °C	Lost mass, %	Decomposition rate of the substance, mg / min	The amount of energy consumed ($\mu\text{V}\cdot\text{s}/\text{mg}$)
1	50	0,946	0,147	0,25
2	100	3,082	0,122	3,55
3	200	4,621	0,489	1,01
4	300	8,606	0,197	2,02
5	400	14,21	0,235	3,02
6	500	18,32	0,235	2,14

These derivatograph studies show that the main mass loss occurs in the range of 110-482 °C, in which 18.25% of the basic mass, or 3.21 mg of the mass, is lost. After 485 °C no change is observed, the mass remains unchanged.

References

1. Shukurov D.X., Turaev X.X., Karimov M.U., Djalilov A.T. // Principle of operation of dye-sensitive solar cells (DSSC) // International scientific-practical conference "Modern problems in the modern innovative development of science, education and production" Andijan -2020. S. 200-202.
2. Shukurov D.KH., Turayev KH.KH., Karimov M.U., Dzhililov A.T., // Izgotovleniye i analiz sensibilizirovannykh solnechnykh elementov s ispol'zovaniyem pigmenta na osnove ftalotsianina medi // Universum: tekhnicheskkiye nauki: elektron. nauchn. zhurn. 2020. № 11 (80).
3. M. Gratzel. //Dye-sensitized solar cell// Journal of Photochemistry & Photobiology C4 (2003) pp. 145.



ТЕХНИКА ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ ТАЛАБАЛАРИНИНГ КАСБИЙ ФАОЛИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МОДЕЛИ

Турсунов Икром Эшпўлатович

Тошкент тўқимачилик ва енгил саноат институти
ўқитувчиси, Телефон:+998909854322
ikromtursunov@mail.ru

Аннотация: Ҳозирги кунда дунёнинг кўплаб мамлакатларида халқ хўжалиги, саноатда, ишлаб чиқаришда дастурий воситалардан кенг кўламда фойдаланилмоқда бу эса шу соҳада етук кадрлар таёрлаш зарурлигини тақоза этмоқда. Мазкур мақола мамлакатимизда электрон дастурий воситалардан фойдаланиш қобилиятига эга кадрларни таёрлашнинг муҳим тамонларини очиб беради.

Калит сўзлар: Электрон дастурий воситалар, касбий фаолият, модел, ахборот-коммуникация, ахборот технологиялари.

Янги электрон дастурий воситалари ёрдамида мураккаб ҳодисаларни тушуниш ва илмий тавсиялар ишлаб чиқиш, жараёни расмийлаштириш, ҳодисанинг математик ёки тавсифий моделларини ишлаб чиқиш мақсадга мувофиқдир[1]. Таълим технологиялари илмий-тадқиқот институтида олиб борилган тадқиқотлар шуни кўрсатдики, тўла вақтли таълимнинг классик схемаси ва олиб борилаётган жараён бўйича келиб чиқадиган таълим жараёни. Масалан, Internet - тренинг давомида битта назарий модел билан таърифланади. Демак, у бўлиши керак ва бу фаннинг ўзига хос методи бўлиб, турли жараёнларни битта назарий модел билан тасвирлаш мумкин.

Педагогик моделнинг таркибий қисмларини кўриб чиқамиз[4]:

мақсад-бу талабаларда машғулотнинг касбий таёрғарлигини оширишга қаратилган саъй-ҳаракатлар мазмун билим, кўникма ва малакалар тизими бўлиб, уни эгаллаш шахсининг ривожланиши ва шаклланишига замин ҳозирлайди;

таълим мазмуни ўқув режаси, давлат стандартлари ва ўқув дастурлари билан белгиланади. Алоҳида мавзуларнинг мазмуни ўқитувчи томонидан қўйилган вазифаларни ҳисобга олган ҳолда, мавзу мазмунида таълим муассасасининг саноат ва ижтимоий муҳитининг ўзига хос хусусиятларини, машғулот даражасини, талабаларнинг қизиқишларини акс эттириш зарурлиги кўрсатилади;

Ҳар бир ўқув предметини ўрганиш билимларни ўзлаштиришни ва маълум кўникма ва малакаларни шакллантиришни ўз ичига олади[2]. Машғулот жараёнида турли билим олиш манбалари билан ишлаш йўллари, ўқув материални ўрганиш усулларини ўзлаштириш билан боғлиқ умумий илмий ақлий кўникмалар ҳам шаклланади.

Қандай ўқитиш керак?- деган анъанавий дидактик саволга жавоб топиш зарур, бу бизни ўқитиш методлари тоифасига олиб келади[3]. Методларсиз қўйилган мақсадга эришиш, кўзланган мазмунни амалга ошириш, ўқув машғулотини билиш фаолияти билан тўлдириш мумкин эмас.


Метод-таълим жараёнининг ўзаги, лойиҳаланаётган мақсад ва якуний натижа ўртасидаги боғловчи бўғиндир. Бизда “мақсад-мазмун-метод-шакл-ўқитиш воситалари” тизимини белгиловчи тушунча ҳисобланади.

Усул (юнон тилидан *metodos*-йўл, усул деган маънони билдиради) -тарбиянинг мақсад ва вазифаларига эришиш йўлини бошлайди. Ю. К. Бабанский ўқитиш методини ўқитувчи ва тарбияланувчиларнинг тартибли ўзаро боғлиқ фаолиятлари, таълим-тарбия, тарбия ва ривожланиш муаммоларини ўқув жараёнида ҳал этишга қаратилган тадбирлар методи сифатида белгилайди. Ўқитиш методлари таълим жараёнининг энг муҳим таркибий қисмларидан биридир.

Тегишли фаолият усулларисиз ўқитишнинг мақсад ва вазифаларини амалга ошириш, талабалар томонидан ўқув материалининг маълум мазмунини ўзлаштиришга эришиш мумкин эмас.

Ю. К. Бабанскийнинг таъкидлашича, ҳар бир методни методологик методлар мажмуасидан иборат деб тасаввур қилиш мумкин. Бу босқичда методлар ўқув вазифаларини ҳал этишни таъминловчи методик методлар мажмуи сифатида аниқланади. Бу таъриф, тўғри бўлиб, кўриб чиқилган аспектда ҳали ўқитиш методларининг фаолликка асосланган моҳиятини очиб бермайди ва шунинг учун бошида ўқитиш методларини ўқитувчи ва талабалар

ўртасидаги ўқув мақсадларига эришиш учун ўзаро таъсир йўллари сифатида белгилаш берилган[1]. Лекин юқорида айтилганлар ҳар бир аниқ ҳолатда ҳар қандай усулни ташкил этувчи ўша методик методларни аниқлаш фойдалилигини камайтирмайди.



Таълимни ташкил этиш шакллари ўқитувчи ва талабаларнинг мувофиқлаштирилган фаолиятининг ташқи ифодасидир. Белгиланган тартибда ва маълум бир режимда амалга оширилади. Таълимни ташкил этиш шакллари ўқитувчи томонидан ташкил этиладиган дарсларга талабаларни бирлаштириш зарурлигини, бу жараёнда ўқув-билув фаолияти амалга оширилишини акс эттиради [5]. Улар ижтимоий шартлиликка эга бўлиб, ўқитувчи ва талабанинг биргаликдаги фаолиятини тартибга солади, индивидуал ва жамоавий ўқитиш нисбатини, талабаларнинг билиш фаолиятидаги фаоллиги даражасини ва уни ўқитувчи томонидан бошқарилишини аниқлайди[3].

Электрон дастурий воситалари воситаларидан фойдаланган ҳолда техник мутахассисликлар талабаларини касбий фаолиятининг модели ушбу жараённинг барча элементларининг умумийлиги ва яхлитлигини акс эттириши, уларнинг фаолият ва ўзаро таъсир йўлини кўрсатиши лозим. Янги электрон дастурий воситалари орқали техник мутахассисликлар талабаларининг касбий фаолияти модели ишлаб чиқилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Мўминов Б.Б. Педагогик дастурий таъминот яратиш технологияси. Ўқув қўлланма. Бухоро. 2010. 178 б.
2. Рихсибоев Т., Рихсибоева Х., Турсунов С. Компютер графикаси. Педагогика олий таълим муассасалари меҳнат таълими йўналиши талабалари учун дарслик. Тошкент: “Тафаккур каноти”, 2018. -304 б.
3. Турсунов С., Жўраев В. Педагогик дастурий воситалар. Педагогика олий таълим муассасалари 5110700-информатика ўқитиш методикаси йўналиши талабалари учун ўқув қўлланма. Тошкент: “Нодирабегим”, 2021. -212 б.
4. Турсунов С., Назаров И. Таълимда ахборот технологиялари. Педагогика олий таълим муассасалари барча таълим йўналишлари талабалари учун дарслик. Тошкент: “Адабиёт учқунлари”, 2019. 1-том, -262 б.
5. Турсунов С., Назаров И. Таълимда ахборот технологиялари. Педагогика олий таълим муассасалари барча таълим йўналишлари талабалари учун дарслик. Тошкент: “Адабиёт учқунлари”, 2019. 2-том, -300 б.



2- SINIF O'QUVCHILARINI XALQARO TIMSS TADQIQOTIGA TAYYORLASHDA MILLIY DASTURINING AHAMIYATI

Xolmo'minov Zayniddin

Samarqand viloyat Pstdarg'om tuman
121-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada matematika darslarining samaradorligini oshirishdagi oid metodik tavsiyalar berilgan. Matematika darslari orqali xalqaro TIMSS tadqiqotiga tayyorlashda milliy dasturining ahamiyati sharhlangan.

Kalit so'zlar: TIMSS tadqiqoti, ta'lim, tarbiya, maqsad, natija, matematika darslari, topshiriq, mustaqil ta'lim, faoliyat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmoni asosida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi", 2019- yil 9- iyuldagi "Matematika ta'limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4387-sonli Qarori, 2020- yil 7- maydagi "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4708-sonli Qarori, 2020- yil 24- yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida matematika fani va ta'limini har tomonlama takomillashtirish va rivojlantirish yuzasidan qator salmoqli vazifalar belgilangan.

Bundan tashqari, ta'limiy yutuqlarni baholash xalqaro uyushmasi (IEA) tomonidan tashkil etilgan TIMSS - matematika va tabiiy fanlar ta'lim sifatining xalqaro monitoringi dasturini ham keltirish mumkin. Ushbu tadqiqot o'quvchilarning turli davlatlarda matematika va tabiiy fanlardan bilim darajasi va sifatini solishtirishga hamda milliy ta'lim tizimidagi farqlarni aniqlashga ko'maklashadi.

Matematika olamni bilishning asosi bo'lib, tevarak-atrofdagi kechayotgan voqea va hodisalarning o'ziga xos qonuniyatlarini ochib berishda hamda ishlab chiqarish, fan-texnika va texnologiyalarning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

Ma'lumki, matematika fani inson aqlini charxlaydi, diqqatini rivojlantiradi, ko'zlangan maqsadga erishish uchun qat'iyat va irodani tarbiyalaydi, algoritmik tarzda tartib-intizomlilikka o'rgatadi va eng muhimi mulohaza yuritishga chorlaydi hamda tafakkurni kengaytiradi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmoni asosida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi", 2019- yil 9- iyuldagi "Matematika ta'limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4387-sonli Qarori, 2020- yil 7- maydagi "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4708-sonli Qarori, 2020- yil 24- yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida matematika fani va ta'limini har tomonlama takomillashtirish va rivojlantirish yuzasidan qator salmoqli vazifalar belgilangan.

O'quvchilarda kundalik faoliyatda qo'llash, fanlarni o'rganish va ta'lim olishni davom ettirish uchun zarur bo'lgan matematik bilim va ko'nikmalar tizimini shakllantirish va rivojlantirish .

O'quvchilarning matematik savodxonligi, mantiqiy fikrlashi va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan xalqaro baholash dasturlari (TIMSS) talablariga mos keladigan amaliy topshiriqlar bazasini yaratiladi va mamlakatimiz o'quvchilarining mazkur xalqaro baholash dasturlariga muosib qatnashishi ta'minlanadi

Hayotimizni matematikasiz tassavur qilib bo'lmaydi. Shunday ekan bu fan maktabgacha talim muassasidan ilk tushunchalar berib boriladi.

1 -sinf o'quvchilari maktabda davridan boshlab matematik ishora va amallar qo'llay boshlaydi.

2-sinf matematika fanida geometrik shakllar mavzusida o'quvchilar rangli qog'ozdan har hil figuralarni rangli qog'ozlardan yoki o'zlari rang tanlab qog'ozlarni bo'yab qirqib yasashadi.

Bu ularni kelgusi hayotida qo'llay olish imkoniyatini oshirib boradi.



Milliy dastur o'quvchilarni bilim olish bilan bir qatorda ularni hayotda qo'llay olish imkoniyatini yaratadi.

Masalan hozirgi 2-sinf darsligining o'quvchilari yassi geometrik shakllar, sodda yassi geometrik shakllarni tasavvur etish, tanish va nomlash: kvadrat, to'g'ri to'rtburchak, uchburchak, doira, geometrik shakllarni harflar bilan belgilash.

Ta'limiy yutuqlarni baholash xalqaro uyushmasi (IEA) tomonidan tashkil etilgan TIMSS - matematika va tabiiy fanlar ta'lim sifatining xalqaro monitoringi dasturini ham keltirish mumkin. Ushbu tadqiqot o'quvchilarning turli davlatlarda matematika va tabiiy fanlardan bilim darajasi va sifatini solishtirishga hamda milliy ta'lim tizimidagi farqlarni aniqlashga ko'maklashadi.

Ushbu topshiriqlar bolalarni ob'ektlarni o'lchamlari bo'yicha taqqoslash tushunchasi bilan tanishtiradi. Ijodiy fikrlash yondashuvidan foydalangan holda o'quv maqsadini joriy etish uchun bolalar, avvalambor, asosiy darsda ko'rib chiqiladigan ta'lim va tushunchalarga bog'laydigan fikrlash qobiliyatlarini boshlash orqali ushbu maqsadga kirishishni so'rashlari mumkin.

3



Qaysi bino eng baland,
qaysi biri eng past?



Anhorlardan qaysi biri kengroq?



Kichikroq matematik amaliy tadqiqotlar mavzularni bir biriga bog'lashga ham xizmat qiladi:
Masalan:

Sizning bo'yingiz bilan bir xil uzunlikdagi qancha kublar bor?

Buni bilish uchun minora qura olasizmi?

1



Arqon ipdan yo'g'on.



Yog'och va quvurlarni farqlaymiz.

Kiritilayotgan tushunchani aniq ifodalaydigan matematik tildan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Uzun-qisqa (uzunroq-qisqaroq), keng-tor (kengroq-torroq), baland-past (balandroq-pastroq), yo'g'on-ingichka (qalin-yupqa, qalinroq), og'ir-yengil (og'irroq-yengilroq). Narsalarni rangi, shakli bo'yicha taqqoslash.



Topshiriqlardan sinfni faol o'quv muhitiga olib kirishga imkon berishda oladigan tarzda foydalanish maqsadga muvofiq

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumayev M.E, Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan praktikum. Toshkent. "O'qituvchi" 2004 yil.
2. Jumayev M.E, Tadjiyeva Z.G'. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. (OO'Yu uchun darslik.) Toshkent. "Fan va texnologiya" 2005 yil.
3. TIMSS 2021 baholash qamrovi doirasi. Qo'llanma o'qituvchilar va o'quvchilar uchun. T.: "Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo'limi", 2021- yil



BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QITISH METODIKASI

Yo'ldoshova Umida Raxmatovna

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 12-maktab

Boshlang'ich ta'limi o'qituvchisi

Telefon: +998 90 732 39 19

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarning jismoniy va psixologik rivojlanishida boshlang'ich ta'limning o'rnini, darslarni tashkil etishda turli metodik vositalar, axborot-kommunikatsiyalaridan, ularning yoshi va qiziqishlariga mos didaktik o'yinlar va pedagogik texnologiyalardan foydalanish haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: metod, pedagogik texnologiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, didaktik o'yinlar, interfaol usullar.

Farzandlarimizning yuksak intellektual salohiyatli, har tomonlama yetuk va barkamol shaxs bo'lib ulg'ayishi ko'p jihatdan umumta'lim muassasalarida beriladigan ta'lim-tarbiyaga bog'liq. O'quvchilarning jismoniy va psixologik rivojlanishida boshlang'ich ta'lim davri muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham, mamlakatimiz ta'lim tizimida boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish, ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, darslik va o'quv qo'llanmalarini takomillashirish, ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalarni keng joriy etish kabi masalalarga alohida e'tibor berilmoqda. Boshlang'ich ta'limning asosiy maqsadi bolaning o'qishga bo'lgan ijobiy munosabatini, yozma va og'zaki muloqot madaniyatini shakllantirish, mantiqiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini yuzaga chiqarish, turli ma'lumotlar bilan ishlash savodxonligini oshirish, olgan bilimlarini kundalik hayotda qo'llay olishi uchun samarali ta'limiy faoliyatni tashkil etishdan iborat. Bunda, avvalo, boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining bilimi, salohiyati va kasbiy mahorati yuksak bo'lishi, shuningdek, ta'lim jarayonida turli pedagogik texnologiyalarni o'z o'rnida va oqilona qo'llay olishi muhim ahamiyatga ega.

Boshlang'ich ta'lim-tarbiyaning keyingi bosqichlariga asos – poydevor vazifasini o'tashi, ayniqsa, bu davrdagi bolalarning yoshi, qiziqishlari va psixologiyasi o'ziga xosligidan kelib chiqadigan bo'lsak, mazkur bosqichda tashkil etiladigan darslar bolalar ruhiyatiga mos, qiziqarli hamda turli o'yinlarga asoslangan tarzda tashkil etilishi shart. Buning uchun o'qituvchi darsni to'g'ri tashkil etishi, o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, olingan axborotlarni faollikda hal etishga, tashabbuskorlikka, masalalar yechimini hamkorlikda topishga, fikrni yozma va og'zaki ravishda erkin bayon etishga o'rgatib borishi, shuningdek, dars jarayonida interfaol metod hamda zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalardan o'z o'rnida va samarali foydalana olishi muhim omillardan sanaladi. Aytib o'tilgan omillarning uyg'unligi, ya'ni o'qituvchining qobiliyati, mahorati va zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalardan ta'lim sifati hamda samaradorligini kafolatlaydi.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va innovatsion texnologiyalarni qo'llashga bo'lgan talab va e'tibor alohida o'rin tutadi. Chunki an'anaviy ta'limda o'quvchilarga faqat tayyor holda bilimlar berilgan bo'lsa, zamonaviy ta'limda o'quvchilar dars jarayonida faol ishtirok etadi. Bilimlarini mustaqil qidirib topish, tahlil qilish va asosda xulosa chiqarishga, fikrlarini erkin bayon etishga o'rgatiladi. O'qituvchi bu jarayonda ularni yo'naltirib, bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga qulay ta'lim-tarbiyaviy sharoit yaratadi. Darslarni zamon talablariga mos, samarali tashkil etish darslik hamda ular asosida yaratilgan turli metodik qo'llanmalar, ko'rgazmali qurollar hamda dars ishlanmalarining sifatiga ham bog'liq. Bugungi kunda maktab darsliklariga qo'yilgan talab juda yuqori. Shuning uchun ular mamlakatimizda turli darslik va o'quv adabiyotlari yaratishning ko'p yillik tajribasi hamda dunyo mamlakatlari ta'lim tizimida erishilgan yutuqlarni qiyosan o'rganish, ularning eng maqbullaridan foydalanish asosida yaratilmoqda. Natijada darslik va o'quv qo'llanmalar bolalarning to'laqonli va sifatli ta'lim olishlarida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Interfaol ta'lim, o'z xususiyatlariga ko'ra, didaktik o'yinlar orqali. Kreativ ijodkorlik asosida, axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida amalga oshirishni ko'zda tutadi. Interfaollik, avvalo, o'zaro faollik, harakat, ta'sirchanlik – o'quvchi-o'quvchi, ya'ni subyekt-subyekt munosabatlarida sodir bo'ladi. Interfaol ta'limda darslar shunday kechadiki, bunda ham o'quvchi chetda qolmay, eshitgan, o'qigan, ko'rgan-bilganlari bo'yicha o'zaro fikr almashtirish va umumlashtirishasosida mustaqil ravishda xulosa



chiqarish, shu orqali olingan bilim, ko`nikma, malakalarni mustahkamlash jarayoni sodir bo`ladi. Qolaversa, bunday tarzda tashkil etilgan datslarda o`quvchilarda bilim olishga havas, qiziqish ortadi, o`zaro do`stona munosabatlar shakllanadi.

Boshlang`ich ta`limda interfaol metodlar o`quvchilarning yosh xususiyatlari, savodxonlik darajalariga mos didaktik o`yinlar, evristik suhbatlar, qiziqarli multimedialardan foydalanishni o`z ichiga oladi. Matematika darslarida o`quvchilarning faolligini oshirish va fikrlash orqali o`zlashtirishlarini ta`minlash maqsadida multimedia ilovali dars ishlanmalari tayyorlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. A. G`ulomov, M. Qodirov "Ona tili O`qitish metodikasi". Toshkent. 2001-y.
2. B. Abdullayev, M. Toshpulatova. Matematika. Metodik qo`llanma. 2016-y.



THE INFLUENCE OF PATRIOTIC EDUCATION ON CHILDREN AND ADOLESCENTS

Rashidova Munavvar Xaydarovna,
Namozova Dilnoza Berdimurotovna,
English-language teachers at the University of
Public Safety of the Republic of Uzbekistan
munarashidova@mail.ru, dilnozan@mail.ru

Annotation: This article is devoted to the analysis of identifying the factors that influence the patriotic awareness and how concept of patriotism understood by the youth of Uzbekistan between the ages of 10-14.

Keywords: patriotism, education, youth, consciousness, national traditions, Homeland.

The problem of education of patriotism has always been relevant. Great attention is paid to it, because children with mother's milk absorb the concepts of "Motherland", "My Uzbekistan", "We, the people of Uzbekistan". The disciple, looking at the map of our country, thinks: "I live in a sunny, hospitable country with a great past and a great future." This consciousness is embedded in us not only from childhood, but also accompanies us throughout our lives. Today our children see a free, independent country with a great future.

A sense of patriotism is instilled in our children from the school bench by teachers and mentors. This is manifested in everything: in the notebooks they choose with the covers of national symbols, in the adoration of national music and movies, in the veneration of the older generation and respect for the national traditions and customs of our people [1].

According to the results of sociological surveys among secondary school students, it is necessary to note that the formation of deep human values among young people, for example, 10-14-year-old students when asked what they think is the most important thing in life for them, answered:

* Mom-92 %;

- Family
- Homeland
- Health
- Study

* Peace in our country-88 %

- Happiness;
- Love;
- Life;
- Future profession
- Money;

From these data it can be concluded that the sense of patriotism in children is well developed. Education of love for the Motherland can be carried out every minute-by parents, reading the works of our great poets and writers, such as Navoi, Fitrat, Chulpan, Avloni and others, watching our movies, TV shows, telling about events and people we can be proud of: Alpamish, Amir Timur, Ulugbek, Avicenna and others, about eternal values: love for our Homeland, national roots and traditions [2].

So what is "patriotism"? Let's give some definitions.

* Patriotism (from the Greek patris) – Motherland, Fatherland and devotion to the Fatherland, love for the Motherland, the desire to serve its interests, to protect from enemies.

* Patriotism is the personification of love for the Motherland, involvement with its history, nature, achievements, problems. Patriotism is a kind of foundation of social and state systems, spiritual and moral basis of their viability and effective functioning.

And what about Patriotic education?

* Patriotic education – systematic and purposeful activity of public authorities and organizations to form a high Patriotic consciousness among citizens, a sense of loyalty to their Homeland, readiness to perform their civic duty and constitutional duties to protect the interests of the homeland.

The fundamental principles of Patriotic education are: scientific, humanism, democracy, priority of historical and cultural heritage, spiritual values and traditions of the Motherland, system,



continuity and continuity in the development of youth, a variety of forms, methods and means, as well as individual approach.

The main objectives of Patriotic education are:

1. Fostering a sense of patriotism, the formation of the younger generation of loyalty to their Homeland, readiness to serve it and protect it.
2. Study of history and culture of the native land.
3. Participation in the preparation and conduct of events to perpetuate the memory of the defenders of the Motherland.
4. Countering manifestations of political and religious extremism among young people.
5. Transfer and development of the best traditions of the Uzbek army.
6. Physical development of youth and children, formation of a healthy lifestyle.

Patriotic feelings do not arise in people by themselves. The environment, the way of life in the family, the relations in the school team-it all forms patriotism. The patriotism of the people is the strength of the state [3]. Any society needs courageous, initiative, disciplined, literate people who would be willing to work, learn for its benefit, and if necessary to stand up for it.

References:

1. Constitution of the Republic of Uzbekistan. T.: "Uzbekistan", 2017.
2. Mirziyoyev Sh. M. "Together we will build a free, prosperous and democratic state of Uzbekistan." T.: "Uzbekistan", 2017.
3. Patrín I. T. "The power of human patriotism." - Volgograd: The Alliance, 2006.



РУССКАЯ ГРАММАТИКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Тажекбаева Зийуар Кошкарбаевна

Региональный центр переподготовки и повышения
квалификации работников народного образования
кафедра Методики дошкольного, начального
и специального образования
Жанабаева Зибагуль Фархатовна
Студентка 2-курса Факультет Иностранных
языков КГУ им Бердаха

Аннотация: Данная статья направлена на установление Усиление акцентов, на вариативность и личностную направленность. Системы основного образования требует, от учителя, поиска современных эффективных методов и технологий обучения, всесторонней поддержки подрастающего поколения.

Ключевые слова: воспитания, инновация, стандарты, методы, развиваться.

Стремительные изменения, происходящие в современном обществе, обусловили необходимость изменений и в образовании. Школа – это первооснова воспитания и образования. Её главная задача – так организовать учебно-воспитательный процесс, чтобы каждый ученик, независимо от своих возможностей, мог успешно развиваться, реализовывать себя в познавательной деятельности. Усиление акцентов на вариативность и личностную направленность системы основного образования требует от учителя поиска современных эффективных методов и технологий обучения.

Состояние современной сферы образования и тенденции развития общества требуют развития системы образования на основе информационных технологий, создания соответствующей информационно-образовательной среды. «Русская грамматика учит русскому языку». Да это школьное правило, выраженное школьным слогом. Я хочу этим сказать, что русская грамматика, держась живой разговорной и народной, отчасти летописной речи, должна действительно объяснять коренные свойства русского языка. Вслед за тем можно истолковать значение наиболее простых слов переносных: темя и подошва горы, ножка у стола, ручка, горлышко, носик у чайника; дождь идет, вода бежит, солнце садится, ветер воет; золотое солнце, бархатный луг, железная грудь и т. д.

От простых эпитетов мы перейдем к сложным: перелетная птица, перекатное солнце, окатная жемчужина, чужедальная сторонushка, горемычная доля, белотонкий шатер, бело-пуховый снежок, мохноногенький голубь. Мы остановимся на объяснении слов сложных, избрав наперед самые простые: сума-сшедший, хлеб-соль, ноч-лег, рукоделье, рукопись. В производных сложных словах и также в безличных формах, столь часто встречающихся в русском языке (виднеет, светает, чернеется; тише едешь, дальше будешь), на первый план выступает признак — сказуемое и, объясняя их смысл, мы объясним состав предложения: семя, что посеяно, что сеют; шило, чем шьют; лгун, кто лжет; сумасшедший, кто сошел с ума; рукоделье, что делают рукою; рукой подать, что очень близко; ни дать ни взять, что очень похоже. Судить, собственно, не значит придавать признак предмету, а выделять признак, по нашему понятию, уже заключающийся в предмете, разбирать предмет по его признакам. Здесь определили только в общих чертах, какие могут быть занятия языком во втором классе, их можно несравненно более разнообразить и можно привести их в некоторую систему впрочем, не чувствительно для воспитанников.

В третьем и четвертом классе мы разбираем более трудные метафоры в названиях отвлеченных, мы объясняем переход от названий чувственных к умственным, касаясь отчасти истории языка: лукавый (от лука, кривизна), внушать (класть в уши), понять (от глагола ять, взять), восхищение (от восхитить, уносить вверх); мрачить и морочить; русские: двинуть, волочить, полонить, заблудиться—и славянские: двигнуть (подвиг), влачить, пленить, заблуждаться, ядро и недро и т. д. Для III и IV классов назначаю я систематическое изложение русской грамматики. В III классе мы проходим этимологию: разделение, изменение и употребление букв, образование окончаний в разных частях речи, их изменения: склонения и спряжения. При чтении воспитанники постепенно познакомятся с главными



формами и, наконец, в III классе мы будем объяснять те из них, которые необходимы для знания русского языка. Вы, например, говорите, что в русском языке г, к, х и з, ц, с изменяются в ж, ч, ш,—и вдруг встречаются самые употребительные слова: друг, друзья, крестник, крестница, трусить, трухнуть, которые как будто противоречат этому правилу. Что ж это? исключения? Разве требовало бы для детей особенной мудрости узнать правильный переход этих букв в древнем языке: г, к, х в ж, ч, ш и в з, ц, с: бег, боже, бози; волк, волче, волци; пастуше, пастуси? Присутствие носовых звуков, например в глаголах: мять, жать (мну, жну вместо мяю, жаю), гласных кратких (василек, василька, огонь, огнь, огнья, сумерки, сомер- каться, сьмеркаться), сходство в склонениях местоимений третьего лица с другими местоимениями и с прилагательными полными (ему, моему, синему) — все это объясняет стройность языка, решает вопросы, относящиеся к его духу и логике.

Мы видели, что занятия I класса имеют целью общее развитие воспитанников и приготовление к знакомству с русским языком; во II классе мы постепенно вводим в грамматический курс; в III и IV классах изучаем грамматику, подготавливая в то же время к чтению старинных памятников и к историческому знакомству с языком.

Литературы:

1. «Мир русского слова». Журнал. Г.Москва 1999 г
2. «Русский язык за рубежом» журнал «Вестник МАПРЯЛ» 1992 г



JISMONIY TARBIYADA KO'RGAZMALI METODLAR

Abdusattorova Marg'uba Abdujalolovna
Toshkent viloyati Zangiota tumani
38 – IDUMI jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada jismoniy tarbiya darslarining tashkil etishda o'qitishning metodlari haqida yoritilgan.

KALIT SO'ZLAR: suhbat, hikoya, ifodalash, tushuntirish, suhbat, muhokama, ko'rsatma, topshiriq, baho, buyruq.

Jismoniy tarbiyaning o'qitish predmeti sifatidagi maxsus bilim va harakat faoliyatlari o'qituvchidan o'qitishga xos ma'lum usullar va uslubiyatlar (metodlar)ni bilishni talab etadi. Ta'lim (o'qitish)ning uslublari ko'p bo'lishiga qaramay ularning hech biri universal emas. Ta'lim metodlarining tavsifini bilish bu uslublar tarkibidan qulayini tanlab olishga, o'qitish vazifalarini hal qilish uchun nisbatan samaralilarini ajratib olishga imkon beradi.

Ta'limning metodlariga qo'yilgan umumiy talablar. Har qanday konkret xolatda u yoki bu metodni maksadga muvofiq xolda qo'llash qator talablarga rioya qilishni taqazo etadi:

- 1. Metodning ilmiy asoslanganligi (oliy nerv faoliyati).
- 2. Qo'yilgan vazifaga o'qitishning muvofiqligi .

Mashg'ulotlar sharoitining muvofiqligi. Masalan, maktabdagi darslarda tirmashib chiqishga o'rgatish faqat bir-ikkita kanat mavjud holda amalga oshirilsa, xarakatni bir butunligicha to'la o'rgatish metodidan foydalanish samara bermaydi, chunki bu mashg'ulot zichligini aytarli past bo'lishiga sabab bo'ladi. Bunda so'zdan foydalanish metodida o'qituvchi zalning akustikasi va sport maydoning sathini hisobga olishi kerak.





О'qitishning metodlari

So'zdan foydalanish Metodlari	Ko'rgazmali his qilish metodlari	Amaliy metodlari
Hikoya Ifodalash Tushuntirish Suhbat Muhokama Ko'rsatma Topshiriq Baho Buyruq	Ko'rsatish Namoyish etish Plakatlar Kinogrammalar Doskaga bo'r bilan chizish O'quvchilarning o'zi chizgani, Maketlar, modellar Rang va tovush signallari	Qat'iy va qisman reglamentlashtirilgan mashq metodlari: Bo'laklarga ajratib o'zlashtirish - o'yin, Bir butunligicha o'rgatish - musobaqa

Uch guruxdagi metodlarning mavjudligi orqali o'quvchining o'zlash tirilgan faoliyati bilan organizmning turli analizatorliri tizimi yordamida tanishtirish ta'minlanadi: o'quvchi eshitadi, uqadi, o'zi xarakat jarayonini xis qiladi. Ishga ikkala signal sistemasi jalb qilinadi. Xarakat faoliyatini o'qitishda amaliy metodlar muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchi ikki poydevor ko'rsa, uni ko'rib bitirish - ya'ni xarakat faoliyatining ijrosi u yoki bu usul orqali amalga oshiriladi.

Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida va sport musobahalarida psixologik tayyorgarlik judda katta rol o'ynaydi. Eng avvalo xarakterni shakllantirish, irodaviy sifatlarni mustahkamlash, psixik jarayonlarni takomillashtirish jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini samaradorligini belgilaydi.



G'alabaga bo'lgan ishonch, o'z-o'ziga ta'sir etish, ustanovkalar qo'yish, diqqatni jamlash, aqliy faollik jismoniy mashg'ulotning natijasini eng yuqori bo'lishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.D. Novikov A.P.Matveev jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi.
2. J. Tolipova N.No'monova Ta'lim – tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar.



ФИЗИКА ЎҚИТУВЧИЛАРИДА ТАЖРИБА БАЖАРИШ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Алиқулов Самар Саттор ўғли,
Жиззах давлат педагогика институти
математика ва информатика факультети
ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари
(+998911938866, samaraliqulov@inbox.ru)

Аннотация. Ушбу мақолада ривожлантирувчи таълим назарияси нуқтаи назаридан бўлажак физика ўқитувчисига тажриба бажариш компетентлигини ривожлантириш тамойиллари ва уларни амалга ошириш босқичлари ҳақида фикр юритилган.

Калит сўзлар: тажриба, компетенция, компетентлик, тажриба бажариш компетентлиги, ривожлантирувчи таълим, муаммоли вазият.

Бугунги кунда умумий ўрта таълим мактаблари ва профессионал таълим муассасаларида фаолият юритаётган физика фани ўқитувчилари фаолияти самарадорлиги кўрсаткичларидан бири бу - уларда физик тажрибани бажариш компетентлиги ривожланганлик даражаси ҳисобланади. Чунки, улар олий таълим муассасаларида таҳсил олган шароитлардан сезиларли даражада фарқ қиладиган шароитларда физик тажрибалар бажаришларига тўғри келади: 1) фан, технология ва техниканинг жадал суратлар билан ривожланиши, ўқув жараёнига рақамли технологияларни жорий этилиши туфайли таълим мазмуни ва мактаб физика хонаси моддий-техник базасининг янгиланиши; 2) ўқувчилар контингентининг (тайёргарлик даражаси, синфдаги ўқувчилар сони ва бошқалар) бир жинсли эмаслиги.

Олий таълим муассасаси вазифаси эса бўлажак ўқитувчини ностандарт вазиятларда педагогик фаолиятни олиб боришга тайёрлашдан иборат. Бу эса ўз навбатида, уларда касбий компетентликни шакллантириш билан боғлиқ масалани ҳал этишни талаб этади. О.Е. Лебедевнинг фикрига кўра компетентлик - деганда ноаниқ вазиятларда фаолият олиб боришга қобилиятлилик тушунилади [2].

Физик тажриба бажариш компетентлигини шакллантириш борасида тўплаган тажрибалар шуни кўрсатадики, у ўқитиш методларини ўрганиш предмети ва кўргазмалилик воситаси билан боғлиқ бўлиб ҳисобланади. Унинг аҳамияти шундан иборатки, бўлажак физика ўқитувчиларининг физик тажриба бажариш соҳасидаги компетентлигини шакллантириш уларни касбий фаолиятга тайёрлашнинг зарур шarti бўлиб ҳисобланади. Тажриба бажариш компетентлиги - деганда физика ўқитувчиси томонидан физик тажриба ўтказиш соҳасига оид компетенцияларни ўзлаштириш жараёни тушунилади. Компетенция, ўз навбатида касбий тайёргарликка қўйилган талаб бўлиб ҳисобланади ва у талабанинг вужудга келган муаммони ечиш йўлини шакллантиришга тайёрлиги ва қобилиятида ифодаланади.

Физик тажрибани бажариш компетентлиги куйидаги компетенцияларни ўз ичига олади:

1. Мактаб физика хонасидаги жиҳозларга оид компетенциялар: мавжуд жиҳозлардан тажрибаларни ташкил этиш ва ўтказиш жараёнида фойдалана олиш; физик тажрибани ўтказишга оид асбоб - ускуналар ва янги ишланмалар ҳақида ахборот олишига қобилиятлилик; мактабда физикани ўқитиш жараёнида амалий ишларни бажаришга оид янги жиҳозларни қўллаш олишга қобилиятлилик.

2. Ўқув физик тажриба (фронтал лаборатория иши, физика практикум иши, мустақил тажриба иши, тажриба топшириқлари ва компьютерни қўллаб бажариладиган ҳолда тажриба) соҳасидаги компетенция: ўқув физик тажрибани ўтказиш методикасини билиш, уни бажариш техникасини эгаллаш, унинг аҳамиятли эканлигини англаш, тажрибани лойиҳалаш ва бажариш қобилияти.

3. Кўргазмали тажриба соҳасидаги компетенция: кўргазмали тажриба ўтказиш методикасини билиш, уни бажариш техникасини эгаллаш, унинг аҳамиятлилигини англаш; кўргазмали тажрибанинг назарий материал билан боғлиқлигини билган ҳолда уни бажариш кўникмасига эга бўлиш; тажрибани лойиҳалаш ва бажариш қобилияти.

4. Физик ҳодисаларни кузатиш ва тадқиқ қилиш жараёнида ўқувчиларнинг билиш фаолиятига раҳбарлик қилишга оид компетенция: ўқув физик тажрибани бажариш тизимини



билиш ва унинг билиш фаолияти учун аҳамиятини англаш; қўйилган дидактик масалаларга кўра ўқув физик тажриба ўтказиш шакли ва усулини танлашга қобилиятлилик.

5. Хавфсизлик техникаси қоидалари соҳасидаги компетенция: қоидаларни билиш; ўқув физик тажрибани ўтказишда техника хавфсизлик қоидаларга риоя қилишга қобилиятлилик; ўқувчилар ва ўқитувчиларнинг соғлиғини сақлаш (хавфли вазиятларнинг пайдо бўлишини олдиндан билиш ва уларни олдини олиш) учун ўқув физик тажриба давомида ўқув жараёнини рационал ташкил этишга қобилиятлилик.

Бўлажак физика ўқитувчисида тажриба бажариш компетентлигини ривожлантириш куйидаги тамойиллар асосида олиб борилади:

1. Назарий билимларнинг етакчи роли. Улар касбий билимлар яхлит тизимининг барча кўринишлари учун бошланғич асос бўлиб хизмат қилади, унинг ички алоқаларини акс эттиради.

2. Ўқитиш реал шароитларга яқин шароитларда, мураккабликнинг юқори даражасида ва муаммоли ёндошув асосида олиб борилади.

3. Ўқитиш “мураккабдан оддийга қараб” олиб борилади. Тажриба ўтказишда физика бўйича билимлар алоҳида объектларни ўрганиш, уларнинг алоҳида элементлари ва яхлит умумий кўринишларини тушунтиришда аниқлаштирилади.

Физика фанидан берилган топшириқни бажариш жараёнида физик ҳодисани изоҳлашдан уни мактаб физика хонасидаги асосий жихозлари ёрдамида моделлаштиришга босқичма-босқич ўтиш амалга оширилади. Топшириқ куйидаги қадамларда бажарилади.

1. Кузатиш (тадқиқ этилиши) лозим бўлган физик ҳодисаларни белгилаб олиш ва унинг тавсифини шакллантириш.

2. Физик ҳодисани унинг таркибий элементларини кўрсатган ҳолда тавсифлаш. Табиатда ҳақиқий кузатиладиган объектлар ва шароитларнинг барча мумкин бўлган вариацияларни тавсифлаш: ўрганиладиган объектнинг дастлабки ҳолати; таъсир этувчи объект; ўрганиладиган объектнинг янги ҳолати; ўрганиладиган ва таъсир этувчи объектларнинг ўзаро таъсир шароитлари – ўзаро таъсир содир бўладиган вазият тавсифи.

3. Физик ҳодисанинг таркибий элементларига мувофиқ, уни мактаб физика хонасида (физика ўқитиш методикаси лабораторияларида) амалга ошириш учун қўлланилиши мумкин бўлган ускунани танлаш: қурилма – тадқиқот объекти – ўрганиладиган объектнинг дастлабки ҳолатига мос қурилма; бошқарув элемент – тадқиқот объектига таъсирни амалга оширувчи, бошқарув элементига мос қурилма; индикатор–объект ҳолатининг ўзгаришини қабул қилинувчи сигнал алмаштирувчи қурилма.

4. Физик ҳодисани моделлаштириш: ўтказиладиган тажрибада кутиладиган натижаларнинг қисқача тавсифи, зарур бўладиган қурилма чизмаси келтириш.

Умумий ҳолда шакллантирилган тажриба топшириқлар лойиҳа фаолияти жараёнида ўқувчиларда мустақил равишда муаммоларни қўйиш ва ечимларни излаш, янги маҳсулотларни яратиш қобилиятини шакллантиради. Топшириқлар изланганлиги физикавий фаолиятни ташкил қилиш имконини беради. Ўқувчи фаоллиги ошади, унда ўқишга кизиқиш ва мотив пайдо бўлади. Шундай қилиб, ривожлантирувчи таълим нуқтаи назаридан бўлажак физика ўқитувчиларида тажриба бажариш компетентлиги ривожлантирилади.

Адабиётлар:

1. Aliqulov S.S., Mingboyeva Yu.B. “Yadro va zarralar fizikasida fotoemul’siya metodi” bo’yicha amaliyot vazifalari”, Ilmiy axborotnoma, Samarqand, 2019-yil, 1-son (113). 201-205 b.

2. Лебедева О.Е. Компетентный подход в образовании // Школьные технологии. 2004. № 5, С. 3-12.



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING ILK TA'LIMDA BILISHI ZARUR BO'LGAN TUSHUNCHALAR TAHLILI

Bobomuratova Zebiniso Raximberdiyevna

Surxondaryo viloyati Uzun tumani
23-son umumiy o'rta ta'lim maktabi
Boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari maktabga ilk kelgan vaqtlarida o'rgatilishi zarur bo'lgan fanlar, ularning yo'nalishlari va o'quvchilar bilishi lozim bo'lgan tushunchalar haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, ta'lim, standart, ona tili, alifbe, savod chiqarish, o'qish, yozish, dars, maktab, tizim.

Boshlang'ich ona tili ta'limining davlat ta'lim standarti va o'quv dasturining

"Boshlang'ich ta'lim sohalarining maqsad va vazifalari" qismida quyidagilar belgilab berilgan:

- ona tili ta'limi bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirishi;

- erkin fikrlay olishi;

- o'z g'alar fikrini anglashi;

- o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olishi;

- jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bu o'rinda ona tili ta'limiga o'quv fani emas, balki, butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi ta'lim jarayoni sifatida qaraladi.

O'quvchilar o'zlashtirishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarida 1-sinfda quyidagilar belgilangan:

➤ hikoya, she'r, ertak, topishmoq, maqol, rivoyat, tez aytish janrlarini farqlash;

➤ she'riy va nasriy asarlarni farqlash;

➤ badiiy asar mavzusini anglash, bilimi, o'qilgan matndagi so'zlarning ma'nolarini izohlay olish;

➤ o'qilgan matn mazmunini ko'rgazmalar vositasida to'liq qayta hikoyalash;

➤ tayyor reja asosida asarni to'liq qayta hikoyalay olish;

➤ asar qahramonlarining xatti-harakatlarini aniqlash va elementar baholay olish ko'nikmalari, so'z tarkibida tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish;

➤ so'zlarni bo'g'inlab to'g'ri o'qish;

➤ hikoya, she'r, ertak, topishmoq, maqol, rivoyat, tez aytish janrlaridagi asarlarni ifodali o'qish;

➤ daqiqasiga 25-30 so'zni o'qish;

➤ o'qigan asari yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini elementar bildira olish;

➤ o'quv yili yakunida 5 ta she'rni yoddan aytib bera olish malakalari.

Savod o'rgatish jarayoni ikki davrni: alifbogacha tayyorlov davri va alifbo (asosiy) davrga ajratiladi. Bu ikki davr ichida bolalarning fonematik eshitish qobiliyatlari o'stiriladi, o'quvchilarning atrof-muhit haqidagi tasavvurlari boyitiladi, nutqi o'stiriladi. Savod o'rgatish darslari o'quvchilarning umumiy kamolotiga, ularda do'stlik, o'rtoqlik kabi milliy qadriyatlarni shakllantirish, jamoa ichida o'zini boshqarish, mehnatsevarlik, halollik, rostgo'ylik, o'qishga ongli munosabatda bo'lish kabi ijobiy xususiyatlarni tarbiyalashga ko'maklashuvi lozim.

Savod chiqarish takomillashgan hozirgi zamon analitik-sintetik tovush metodi vositasida amalga oshiriladi, hamda o'quvchilar nutqini rivojlantirishni nazarda tutadi. Darsda o'quvchilar gapni so'zlarga, so'zni bo'g'inlarga, bo'g'inni tovushlarga ajratadilar, so'zdagi tovushlarni tartibi bilan aytishni o'rganadilar, o'rganilgan tovushlarni o'zaro bog'lab so'z tuzish va o'qish yuzasidan mashq qiladilar. Bolalar tovushlarni yozuvda harf bilan ifodalash, harflardan bo'g'in va so'z tuzishga, ularni o'qishga o'rganadilar. Gap va bog'lanishli matnni ongli, to'g'ri, bo'g'inlab ravon o'qish, so'ngra so'zni butunicha sidirg'a o'qish malakasini egallaydilar.

O'qish va yozishga o'rgatish darslarida bolalar ruhiyatini hisobga olgan holda ish turlarini mukammallashtirish talab etiladi. Alifbe, tarqatma material va metodik qo'llanmalarda berilgan didaktik o'yinlardan foydalanib, o'qishga o'rgatiladi. Alifbe davrida o'qishga o'rgatish tahlil-tarkib (analitik-sintetik) tovush usulida amalga oshiriladi. Savodga o'rgatishning tahlil-tarkib usuliga ko'ra matndan gap, gapdan so'z, so'zdan bo'g'in va tovush, yoki aksincha, tovush > bo'g'in > so'z



> gap > matn uzviy aloqada butundan bo'lakka, bo'lakdan butunga qarab tahlil va tarkib qilinadi. "Alifbe" darsligida berilgan yangi so'zlar matn, hikoyacha va she'rlardan foydalanib, o'quvchilarni so'z ma'nosi bilan atroflicha tanishtirish, she'riy va nasriy matnlarni yodlatish, qayta hikoyalashga e'tibor beriladi. Savod o'rgatish dasturi talabiga ko'ra bu davrda o'quvchilar, asosan, quyidagi tushuncha, malaka va ko'nikmalarni egallaydilar:

- * o'quv predmeti mazmuni asosida tashkil etiladigan dars haqidagi amaliy ko'nikma;
- * darsning muayyan vaqt oralig'ida davom etishi;
- * dars jarayonida o'quvchining tutgan pozitsiyasi haqida tushuncha;
- * rasm mazmunini anglash, rasm mazmuni asosida mantiqiy izchillikka ega bo'lgan matn tuzish;

- * darslik bilan ishlash, og'zaki nutq haqida tushuncha;

- * yozma nutq, gap haqida tushuncha;

- * so'z va bo'g'in haqida tushuncha;

- * unli va undosh tovush haqida tushuncha;

- * maktab partasida to'g'ri o'tirish;

- * darslikdan foydalanishga oid ilk o'quv ko'nikmalarini shakllantirish.

O'quvchilarga alifbe davrida o'qishga o'rgatishda quyidagilar o'rgatiladi:

- unli va undosh tovushlar, ularning talaffuziga xos farqlanish haqida ma'lumot berish;

- harf va tovush munosabatiga oid tushunchalar bilan o'quvchilarni tanishtirish;

- kesma harf va bo'g'inlar asosida so'z hosil qilish;

- tuzilgan so'zlarni to'g'ri o'qish, so'zlarni avval bo'g'inlab, so'ngra bo'g'inlab ravon o'qishga o'rgatish, tinish belgilariga rioya qilib, ifodali o'qishga o'rgatish;

- o'qish jarayonida amal qilinishi lozim bo'lgan gigiyena qoidalariga rioya qilishga o'rgatish orqali amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ona tili va o'qish savoxonligi darsliklari.

2. K.Qosimova va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi.

3. Internet materiallari.



2-SINF MATEMATIKA FANLARIDA O'YIN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Davlatova Feruza Xurramovna

Nurabod tuman

18-umumtalim maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada 2-sinf matematika darsliklarida didaktik o'yinlardan foydalanishning ahamiyati va darslarda ularni qo'llash metodikasi haqida batafsil ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: diqqat, xotira, ijodiy tasavvur, kuzatuvchanlik, motivatsiya, didaktik o'yin.

Barchamizga ma'lumki, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning asosiy faoliyati o'yinlarga qaratilgan. Bola uchun 45 daqiqa o'rnidan qimirlamay darsni tinglab, o'qituvchi tomonidan berilayotgan barcha malumotlarni o'zlashtirish juda murakkab jarayon hisoblanadi. Dars jarayoni bunday tarzda tashkil etish talim sifatiga salbiy tasir qiladi.

Jumladan: didaktik uyindan foydalanish bolalarda erkin muloqatga kirishish, o'z fikrini erkin bayon etish hamda yangi bilimlarini, tasavvur ishga solgan holda to'laligicha esda saqlab qolish imkonini beradi. Shuning uchun zamonaviy o'qituvchi har bir darsni didaktik o'yinlar asosida tashkil etish talab etiladi. O'quv biluv jarayonida yuqori samaradorlikka erishish bolada o'qishga bo'lgan motivatsiyani to'g'ri yo'naltirilganligiga bog'liq. Didaktik o'yinlar shunday motivatsiyani bera oladi. O'yin faoliyati g'olib yoki mag'lub tushinchalaridan iborat bo'lib, dars jarayonida qo'llanilganda bola g'olib bo'lish uchun kurashadi. Bir vaqtning o'zida bu bilimni hayotda qo'llab kuradi.

Matematika darslarida didaktik o'yinlaridan foydalanganda bolalarning dunyoqarishi rivojlanadi, shaxsning ijodiy qobiliyati ochiladi. Matematika fanida didaktik o'yinlardan foydalanish uzlashtirish samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Matematika bolalarda tafakkur, diqqat, xotira ijodiy tasavvur etish kuzatuvchanlikni rivojlantirishga imkon beradi. O'qituvchining vazifasi-bolalarga matematikani o'qitishda didaktik imkoniyatlardan samarali foydalana olishdan iborat.

Matematika haqida Prezidentimiz Sh.Mirziyoev shunday degan: "Matematika hamma fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo'lib o'sadi, istagan soxada muvaffaqiyatli ishlab ketadi".

Masalan 2-sinfda 5-6 sonlarini bir xonali songa kupaytirish mavzusida 3-misolni didaktik o'yin tarzida o'tkazish samarali natija beradi. Bu didaktik o'yin orqali ko'paytirish bilan bog'liq. Bilim, malaka, kunikmalarini shakllantiradi.

O'quvchilar 3 guruhga bo'linadi.

Moychechak guli barglariga matematika kitobidagi misollar yoziladi. Har bir o'quvchi misollarni echib moychechak gulini hosil qiladi. Qaysi guruh tez va chaqqon bajarsa, usha guruh g'olib bo'ladi.

"Ortiqchasini top o'yini". Bu uyin orqali o'quvchilarni diqqati, xushyorligi, topqirligi oshiriladi. Yulduzcha ichiga sonlar yoziladi 44, 23, 35, 9, 76, 58

1-qatorda barcha ikki xonali sonlar ichida 9 soni ortiqcha.

2- qatorda esa 75 soni (qolgan sonlar juft son) 75, 44, 22, 34, 66, 28, 54

3-qatorda ham yulduzchalar ichida sonlar yoziladi: 23, 11, 33, 43, 53, 8, 71

4-qatorda 8 (qolgan sonlar toq sonlar) sonlari ortiqcha ekanligi tushuntiriladi.

Matematika darsida o'quvchilarga "Xotira mashqi" ni o'tkazsak ham yaxshi samara beradi.

O'quvchilarga og'zaki misollar beriladi. Har bir guruh o'quvchilari javob beradi.

2-sinf Matematika kitobidagi 100 ichida qo'shish va ayirish mavzusidagi 4-misolni "Idishni tomchi suvga tuldur" didaktik o'yinidan foydalansak bo'ladi.

Tomchilarga misollar yozilgan. Har bir o'quvchi bitta tomchidagi misolni yechib, natija juft yoki toq son ekanini aniqlab, banka ustiga elimlaydi. Shu tarzda banka rasmlari tomchilar bilan qoplanadi.

"Matematik shashka o'yini" Boshlang'ich sinf o'quvchilarida didaktik o'yinlardan foydalanib o'tilgan darslarga qiziqish juda katta bo'ladi, bu hech kimga sir emas.

Matematika darslarida matematik lotto, "Matematik shashka" o'yinlaridan foydalanish yax-



shu samara beradi. Bu o'yinda matematika darslarida o'quvchilarga karra jadvalini yod oldirishda foydalaniladi. Bu didaktik o'yinning faol ishtirokchisiga aylanish uchun o'quvchilar, albatta karra jadvalini yod oldirishga erishiladi. Agar o'quvchi karra jadvalini yod olmagan bo'lsa, shashka taxtasiga donalarni taxlab chiqolmaydi va o'yinda ishtirok etolmaydi. O'quvchi har bir katakdagi ko'paytirish jadvaliga oid misolning javobini aytib, keyin shashka donalarini taxlashi mumkin. Boshqa kataklarga yurish jarayonida ham to'g'ri javobni aytmaguncha harakatlanish taqiqlanadi. O'yin shu tarzda davom etadi. U orqali butun sinf ko'paytirish jadvalini yod olishga erishadi.

Demak xulosa qilib aytadigan bo'lsak, matematika darslarida didaktik o'yinlardan foydalanish o'quvchilarga o'z fikrini aniq bayon eta oladi, ijodiy tafakkurini rivojlatiradi, nazariy bilimlarni amaliyotga qo'llash imkonga ega bo'ladilar. Barcha didaktik o'yinlarda o'yin shartlarini tezda o'zlashtiradi va o'ziga belgilangan vazifani qabul qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Milliy oquv dasturi 2021yil
2. Orinboyeva L. va b.q. Matematika 1-sinf darslik T.: Respublika ta'lim markazi
3. Orinboyeva L. va b.q. Matematika 2-sinf darslik T.: Respublika ta'lim markazi



QARAQALPAQ TILIN OQITIWDA QOLLANILATUGIN METODLAR

Kulametova Nawbahar Bazarbaevna
Qaraqalpaqstan Respublikasi Qanlikol rayoni
5-sanli orta mektebi

Annotatsiya: Ushu maqalada qaraqalpaq tilin oqituv metodikasining turleri ham olarning bir birinen ayirmashiligi haqqida toqtalib otilgan.

Tayanish sozler: metod, usul, mugallimning tusindiriwi, gurrii tallaw, shiniqiw, sawbetlesiw, pinvort, interaktiv, pedagogikalik texnologiya, insduktiv, deduktiv

Qaraqalpaq tili metodikasining predmeti oqiwshilarga qaraqalpaq tilini fonetikasi, orfografiyasi menen orfoepiyasi, leksikasi, grammatikasi, stilistikasi ham punktuatsiyasi boyinsha belgilengen kolemdegi teoriyalik bilimni uyreniw usullari, algan bilimlerin amelde duris qollanuv konlikpelerin boldiruv jollari bolip tabiladi.

Metod-grekshe soz bolip izleniw yaki biliv joli teoryyasi, taliymati manilerin bildiredi. Aniq wazypani sheshiwge bagdarlangan, barliqti ameliy yaki teoriyalik ozlestiruv jollarining jiyindisi.

Metod-talim aliwshi menen talim beriwshini belgili bir maqsetke qaratilgan birgeliktegi jumisin sholkemlestirivdin tartipke salingan usullar jiyindisi.

Usul-talim aliwshi ham talim beriwshini birgeliktegi jumislarning sholkemlestiruv joli. Oqiwshilarga bilim beriw ham konliktiruv jollari. Uluwma bilim beretugin mekteplerde, litsey wam kolledjlerde qaraqalpaq tilin oqitwda tomendegi metodlardu qollanuv usunis etiledi: Mugallimning tusindiriwi (bayanat), gurrii, sawbetlesiw, diskussiya, tildi talqilaw, grammatikalik tallaw, shiniqiwlar, kitap penen islesiw, rolli oyinlar h.b.

Mugallimning tusindiriwi-qaraqalpaq tilin oqitwda qollanilip kiyatirgan en aktiv metod. Tusindiruv belgili bir materialdu bayan etiw, soraw-juwap yaki bayanat turinde bolivu mumkin.

Gurrii-mektep turmısında en kop qollanilatugin metod. Gurrii ush turli jagdayda qollaniladi. Birinshiden, jana materialdu otip atirganda oqiwshilarga soraw taslanadi, qagiydalarga saykes misallar tabadi. Ekinshiden, tema tusindirilib bolingannan son sorawlar taslanadi. Oqiwshilar oylanip juwap beredi.

Ushinshiden, otilgen materialdu eske saliw, bekkemlew, takirarlaw ushin qollaniladi. Til faktlerin talqilaw metodi qaraqalpaq tilin uyreniwde jiyi qollanilatugin metod. Bul til faktlerin baqlaw, grammatikalik tallaw ham adebiy shigarmalarning tilin talqilaw turinde jurgiziledi.

Qaraqalpaq tili boyinsha shiniqiwlar otilgen materialdu toliq ozlestiruv ushin beriledi. Shiniqiwlar oqiwshini oz betinshe islewge, oylaniwga, otilgen materialdu amelde qollaniwga uyretedi.

Induktiv ham deduktiv metodlar-oqiwshilarning oylawin rawajlandiradi. Jeke til faktlerinen uluwma juwmaqa keliw induktiv metodi bolsa, al uluwmalasqan jeke faktlerdi aniqlaw deduktiv metodi bolip esaplanadi. Oqitwning deduktiv (qagiydadan tallawga, uluwmalıqtan jekelikke) metodinan induktiv (talqilawdan qagiydagA) metodina otitse, oqitwshi ham oqiwshi arasindagi baylanis jane de kusheyedi. Sonday-aq, hazirgi dawirde diskussiya metodin qollanuv ulken ahmiyetke iye. Bul metodta oqiwshilar eki toparga bolinip oz ara pikir alisadi.

Sawbetlesiw metodina oqiwshilar bir-birini sorawlarına konvert arqali juwap jazadı Keyin juwaplar talqilanadi. Mugallim juwaplarga talqi jasadı. Rolli oyinlar-oqiwshilar belgili bir temağa baylanisli rolli oyinlar sholkemlestiriledi.

Hazirgi dawirde oqitwning jana usullarin qollanuv zarurligi payda bolmaqta.

Usigan baylanisli jana pedagogikalik texnologiya ham interaktiv usullar degen tusinikler de payda boldi.

Adebiyatlar:

1. Qutlimuratov B. Qaraqalpaq tilin oqitwning ayırım meseleleri. Nókis, 1992.
2. Yeshmuhammedov va boshqalar. Talimda innavacion texnologiyalar. Tashkent, 2008
3. Golish L.V, Fayzullaeva D.M Pedagogik taxnologiyalarni rejealashtirish va loyixalashtirish. Tashken,2012
4. Gulamov A., Qodirov M. Ozbek tili uqitish metodikasi. Toshkent, 2001.
5. ISABAEV A. QAZAQ TILIN OQITIV METODIKASI. TASHKENT, 2003.



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA MATEMATIKA DARSLARIDA MUAMMOLI O'QITISH METODLARIDAN FOYDALANISH.

Matqurbonova Gulnoza

Yangiariq tumani Gullanbog' qishlog'idagi
23-son maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

Annatsiya: O'quvchilarni matematika fanidan olgan bilimlarini mustahkamlash, ularni erkin, mustaqil ishlashga o'rgatish, aqliy faoliyatini kengaytirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish va o'stirish.

Kalit so'zlar: matematika, masala, yechim, qo'shish, ayirish, yig'indi.

Ta'lim jarayoniga pedagogik texnologiyalarni olib kirish "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning ikkinchi bosqich vazifalaridan biridir. Ta'lim - kelajakdagi muvaffaqiyatlar kaliti ekan, uning mahsuli sifatida bugungi o'quvchi kelajakda huquqiy-demokratik jamiyat a'zosi sifatida bu jamiyat hayotida to'laonli ishtirok eta olishi, zamonning bozor iqtisodiyoti qo'yayotgan talablariga to'la javob bera olishi kerak. Umumiy o'rta-ta'lim jarayonining sifati va samaradorligini oshirish uchun, jumladan uzluksiz matematik ta'lim tizimi jarayonida pedagogik tajribani o'rganish va yoyish, zamonaviy muammoli texnologiyalarning nazariy hamda amaliy asoslarini yaratish zarurdir.

Bilish vazifalarining qo'yilishida muammoli savollar asosiy o'rinni egallaydi. Ular muammoli vaziyatlar yaratishning har qanday boshqa usullariga tegishli ravishda qo'shiladi. Bilishga doir savol o'quvchilar uchun muayyan darajada qiyin bo'lishi, ulardagi mavjud bilimlarning cheklanganligini ko'rsatishi va ayni vaqtda, ular bajara oladigan bo'lishi, ya'ni idrokning hayotiy tajribaga va nazariy bilimlarning zapasiga bog'liqligini hisobga olishi zarur.

Tenglamani yechilishi rasmga ko'ra tushuntiriladi. Konfetning massasi x g ekanligi aytiladi. Eslatmani yodda saqlash uqtiriladi.

Darslikdagi misol va masalalarni yechish bo'yicha sharhlar:

2. Doskada o'quvchilar navbat bilan bajaradilar. Qolgan o'quvchilar o'zlari mustaqil o'tirgan joylarida bajaradilar.

$$89 + x - 663 (88 + x) + 93 = 976$$

$$x = 663 - 89 \quad 88 + x = 976 - 93$$

$$x = 574 \quad 88 + x = 883$$

$$x = 883 - 88 \quad x = 795.$$

3. Bir o'quvchi doskada mustaqil ravishda bajaradi. Noma'lum sonni x deb olish aytiladi.

$$x + (1260 + 396) = 7834$$

$$x + 1656 = 7834$$

$$x = 7834 - 1656$$

$$x = 6178$$

4. Sinf 2 guruhga bo'linadi. Har bir guruh o'ziga berilgan topshiriq asosida masalaga tenglama tuzadilar va tenglamani yechadilar. Bu topshiriqni bajarish orqali o'quvchilar mustaqil tenglama tuza olish ko'nikma va bilimlarini mustahkamlaydilar.

Har bir guruhning bajargan natijalariga qarab g'olib guruh aniqlanadi.

$$a) 50 + 250 = x + 100 \quad b) 100 + 200 = x + 200 \quad x = 300 - 100 \quad x = 300 - 200$$

$$x = 200 \quad x = 100$$

5. O'quvchilarga mustaqil ish qilib beriladi.

6. Doskada bir o'quvchi tomonidan tushuntirib yechiladi.

$$548 - 339 = 209 \quad t \text{ lavlagi olib ketilgan.}$$

Xulosa qilib aytganda, muammoli darslarda mavzuga oid savollar shunday tuzilishi lozimki, o'quvchi savolga javob berishda kamchiliklarni to'ldirsin, nomalarini aniqlasin, o'xshashlik va farqni topsin, fikrini ifodalasin. Muammoli vaziyatni hosil qilish tadqiqot restik suhbatlar, namoyish etish muammoli bayon qilish, reproduktiv metodlardan foydalangan holda tashkil etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Toshmurodov B. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishni takomillashtirish T.: O'qituvchi, 2000 yil

2. Jumayev M.E., Tadjiyeva Z.G'. Boshlang'ich sinflarda matematikadan fakultativ darslarni tashkil etish metodikasi T.: TDPU 2005 yil

3. Ahmedov M., Abdurahmonova N., Jumayev M. Matematika 1-sinf Turon-iqbol T.: 2019 yil.



2-SINF ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA NUTQIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH

Mirzayeva Zulxumor Jonuzokovna
Nurobod tuman 18-maktab o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada 2-sinfda ona tili va o'qish savodxonligi darslarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish metodikasi yoritib o'tilgan. Dars jarayonida 2-sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida nutqiy kompetensiyani shakllantirish yo'llari tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar: nutqiy faoliyat, nutqiy kompetensiya, leksik me'yorlar, grammatik me'yorlar, orfoepik me'yorlar, orfagrafik me'yorlar, mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlar.

Maktabda o'qitish metodikasi o'zgarib ta'lim sifati ham, mazmuni ham, muhiy ham o'zgarib qolgan, - dedi Shavkat Mirziyoyev.

Dunyoda zamonaviy o'quv dasturlari o'qitish metodikalarini o'rganib yurtimiz umumta'lim maktablarida joriy qilish muhimligi ta'kidlandi. Xalq ta'limi vazirligiga ushbu tajriba asosida Milliy o'quv dasturi ishlab chiqib, 2021/2022-o'quv yilidan boshlab ta'lim jarayonida tajribasizov tariqasida tatbiq etish vazifasi qo'yildi.

Milliy o'quv dasturida nutqni rivojlantirishda alohida e'tibor qaratilgan.

Alisher Navoiy "Til nutqning qirolidir. Agar nutq nomqul bo'lib chiqsa tilning ofatidir". Navoiy bobomiz aytganidek nutqqa e'tibor yanada kuchaytirish lozim.

Boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi nafaqat leksik va grammatik me'yorlarni o'rgatuvchi, balki o'quvchi nutqiy faoliyatiga ixtiyoriy mavzu, fanlar kesimidagi matnlarni tinglab tushunish, to'g'ri o'qish, orfoepik va orfagrafik me'yorlarni qo'llash salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan fandır. O'quvchining mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlashi uchun ona tili darslarida o'z tushunishga alohida e'tibor qaratiladi. Ona tilini puxta o'zlashtirgan o'quvchi boshqa fanlarni qoniqarli o'zlashtiradi.

O'qish savodxonligi mukammal bo'lgan o'quvchi boshqa fanlarda o'rganayotgan matnlarni o'qish orqali mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlaydi, olgan bilimlarini hayotga qo'llay olish layoqti rivojlantiradi. Shuning o'quvchining mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan xalqaro baholash dasturi (PISA), (PIRLS) talablariga mos keldigan matnlar bilan ishlashga mo'ljallangan. Amaliy topshiriqlarni matnlarning mazmuniga moslashtirish o'qituvchi oldidagi asosiy vazifalaridan biridir.

Bu vazifalarni amalga oshirish uchun 2-sinf ona tili va o'qish savodxonligi kitobidan namunalar keltirib o'tamiz. Darslikning "Vatanparvarlik nima?" deb nomlangan . bu mavzuda bir necha rasmlar berilgan.

O'quvchilar rasmlarga qarab "Vatanparvarlikni nimalarda ko'rayapasiz?" savoliga javob izlaydi. O'quvchilar navbat bilan rasm haqida o'z fikrlarini bildiradi, gaplar bildiradi. Savo-javob bilan o'qituvchi o'quvchilar nutqiy faoliyatini rivojlantirishi mumkin . 1. Siz o'zingizni vatanparvar deb hisoblaysizmi?

Nima uchun?

2. Qaysi ishingiz vatan uchun foydali bo'lgan deb o'ylaysiz?

3. Qanday ishlar vatanparvarlik deb hisoblanmaydi? kabi savollarga o'quvchilar mantiqiy o'ylab javob beradi. Bunda o'qituvchi o'quvchi fikrining to'g'riligiga to'g'ri talaffuzga e'tibor qaratiladi.

Sinf o'quvchilari o'rtasida "Mushoira" o'tkazish ham mumkin. Unda o'quvchilar she'rlarni ifodali o'qish orqali nutqini boyitib boradilar. Bizga ma'lumki she'r (arabcha : shuur-sezgi)-fikrning his-tuyg'uga qorashiq ifodasi sifatida vujudga kelgan, hayajonli she'riy nuq bilan ifoda etilgan, ma'lumki ichki ohangga ega badiiy asar. She'r atamasi o'rnida ba'zan "Nazm" so'zi ham qo'llaniladi.

O'qituvchi "Vatanparvarlik" nima? Mavzusini yoritishda quyidagi "Mushoira" bahsini o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Vatanjonim Vatanim,

Vatanjonim vatanim,

Ko'zim quv nab ko'rganim .

Istiqloldan kulganim,

Ozbekiston gulshanim.



Vatan desam.

Vatan desam ko'zimga
Qatra-qatra yosh kelar
Yosh ichida mo'ltirab
Buyuk bir bardosh kelar

Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda "Maqollar bahsi" ni o'tkazish yuqori samara beradi.

Maqol xalq og'zaki ijodi janri qisqa va lo'nda, obrazli grammatik va mantiqiy tugal ma'noli hikmatli ibora, chuqur mazmunli gap. Bu mavzuni yoritishda "Maqollar bahsi" dan foydalanish.

Bulbul chamanni sevar
Odam-Vatanni.
Vatan qadrini bilamagan
O'z qadrini bilmas.
O'zga yurtda shoh bo'lguncha
O'z yurtida gado bo'l.
Vatan gadosi-kafan gadosi.
Begona tuproq- devona tuproq.
Ayrilmagil elingdan-quvvat ketar belingdan.
Vatan uchun o'lmoq ham sharaf.
Vatani borning- baxti bor,
Mehnati borning -taxti bor

Ona tili va o'qish darslarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda tez aytishlarning o'rni beqiyos.

Xalq og'zaki ijod turlaridan biri bo'lmish tez aytish ayrim nutq tovushlarning so'z va iboralar tarkibida talaffuzni qiyinlashtiradigan darajada murakkab joylashishiga asoslanadi. Ayniqsa bu iboralar tez aytilayotgan paytda, aytuvchi bu murakkab tovushlarni talaffuz qila olmasdan tinglovchilarning beozor kulgisiga sabab bo'ladi. O'zbek tilida bu iboralarning tez aytish deb nomlanishi ham shundan kelib chiqqan.

2-sinf ona tili va o'qish savodxonligi darskarida o'quvchilar nutqini rivojlantirishda quyidagi tez aytishdan foydalanish mumkin.

Gulobod- gullar bilan obod.
Sabina Saboharda sabzavot sifatida sabzini so'radi.
Olim Olimadagi oltin olamlarni olmadi.
Vali bolalar bilan voleybol o'ynadi.
Sharif shartta sharifini o'radi.

Demak, xulosa qilib aytdigan bo'lsak ona tili va o'qish savodxonligi darslarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda rasmlarga so'z qo'yish ishlash, gaplar tuzish, she'rlarni yoddan aytish, maqollar, tez aytishlar o'quvchilar fikrlash qobiliyatini o'stiradi, faolligini oshiradi.

O'quvchilar nutq boyligi oshadi, erkin, kreativ fikrlaydigan hozirjavob, ziyrak bola bo'lib o'sadi. Maqsadimiz yuksak ma'naviyatli va erkin fikrlovchi shaxslarni tarbiyalash.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ta'lim to'g'risidagi qonun 9-modda 2020yil
2. Milliy o'quv dasturi 2021 yil
3. Arimova I. , Mavlonova K. Quronov S. Ona tili va o'qish savodxonligi 2-sinf uchun darslik 2021 yil



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Muqumova Samiya Nematovna
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani
12-son umumiy o'rta ta'lim maktabi
Boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati, o'qituvchilarning dars jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llashi natijasida keladigan natijalar haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, pedagog, o'quvchi, uzluksiz ta'lim, pedagogik texnologiya, metod, ta'lim-tarbiya, dars.

Bugungi kunda ta'lim -tarbiya jarayonini zamonaviy ta'lim berish usullaridan, pedagogika fanining yutuqlaridan keng hayotga tadbiq qilgan holda, shaxsga yo'naltirilgan boshlang'ich ta'lim nazariyasini yaratishdek vazifalar dolzarb bo'lib qolmoqda. Boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan biri- dunyoqarashni, savodxonlikni va o'z-o'zini anglash salohiyatini shakllantirishdan iboratdir. Mamlakatimizning kelajagi, albatta, yosh avlodning ta'lim -tarbiyasiga bog'liqdir. Ta'lim-tarbiya jarayonida esa uzluksiz ta'lim tizimining o'rni beqiyosdir. Uzluksiz ta'lim tizimining dastlabki poydevori sifatida boshlang'ich ta'lim muhim ahamiyat kasb etadi. Olimlarning fikricha, barkamol avlod tarbiyasi boshlang'ich sinf yoshidan boshlanganda yaxshi natijalar berar ekan. Chindan ham dastlabki ta'lim xuddi poydevorga o'xshaydi, poydevori mukammal bo'lgan bino esa mustahkamdir. Samarali ta'lim-tarbiya jarayonini yaratish zamonaviy pedagogik texnologiyalarni izlashni va har bir masalaga ijodiy qarashni talab qiladi. Hozirgi ta'lim tizimi esa o'z oldiga har tomonlama yetuk, mustaqil fikrlay oladigan, ijodkor, ijtimoiy-iqtisodiy muhitga tez ko'nika oladigan insonni tarbiyalashdek muhim vazifani qo'rgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim sohasiga alohida e'tibor qaratilib, kelajak avlodni tarbiyalash borasida zarur imkoniyatlar yaratilmoqda. Bugungi kunda dunyo miqyosida axborot texnologiyalari tizimining yuksak darajada rivojlanib borayotganligi va bu ta'lim jarayoniga ham kirib kelib, uni yanada sifatli tashkil etishga o'z ta'sirini ko'rsatayotganligi barchamizga ma'lum. Mutaxassislar fikricha, ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lim samaradorligini ko'tarish, tahlil etish va uni amaliyotga joriy qilish bugungi davrning muhim mavzularidan biridir.

Hozirda pedagoglar o'z faoliyatlarida yuksak natijalarni qo'lga kiritishga harakat qilmoqdalar. Buning uchun ular ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanib, o'quvchilarni erkin tinglovchidan erkin ishtirokchiga aylantirishlari lozim. Bunday ma'suliyatli vazifani bajarishda boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'rni va xizmati beqiyosdir. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilarni dars jarayonida bir xillikdan olib chiqishi va pedagogik-texnologik vositalarni keng tatbiq etishi bilan birga o'qitishning o'yinli, multimediali usullaridan ham samaral foydalanishi lozim. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ko'zda tutilganidek, pedagogik va axborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuter tarmoqlari negizida ta'lim jarayonini yangi axborotlar bilan ta'minlash rivojlanib bormoqda. Shuning uchun ham pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish, ta'lim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning ehtiyojiga aylandi. Bu vazifani amalga oshirish jarayoni boshlang'ich sinf o'quvchilarini ta'limiga yangicha yondashish, o'qituvchilarning o'z kasbiga va tarbiyalanuvchilarga o'ta ma'suliyatli munosabatda bo'lishini taqozo etadi. Boshlang'ich sinflarda bolalarning yoshini, bilim saviyasini hisobga olish kerak. Mutaxassislar fikricha, ularga oson, oddiy, vaqt kam sarflanadigan o'yinli mashqlardan foydalanish yaxshi natija berar ekan. Ta'lim metodlarida o'qituvchining dunyoqarashi, psixologik-pedagogik mahorati, ilmiy tayyorgarligi namoyon bo'ladi va xuddi shu omillar ta'lim samaradorligini belgilaydi. Ta'lim jarayonini amalga oshirish va baholashni rejalashtirishda quyidagi mezonlarga tayaniladi: 1) **Konseptuallik**. Har bir pedagogik texnologiya o'z tarkibida falsafiy, psixologik, didaktik, ijtimoiy pedagogik asosni qamrab olgan aniq ilmiy konsepsiyaga tayanishi lozim. 2) **Tizimlilik**. Pedagogik texnologiya hamma o'zaro bo'g'liq qismlardan iborat tizimning mantiqiy jarayoni belgilariga ega bo'lishi va yaxlit bo'lishi lozim. 3) **Samaradorlik**. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar raqobatli shartlar asosida mavjud bo'lib, natijalar bo'yicha



samara berishi, optimal harakatli bo'lishi va ta'limning ma'lum bir standartlarini kafolatlashi shart. 4) **Qo'llanuvchanlik.** Pedagogik texnologiya bir xil ta'lim muassasalarida boshqa subyektlar tomonidan ham qo'llanilish imkoniyatini beradi.

Dars, ta'lim-tarbiya jarayonining bosh bo'g'inidir. Shuning uchun ham ta'lim muassasalarida darsga alohida ahamiyat qaratiladi va o'qituvchidan ham yuksak malaka talab etiladi. Darsning borishi uning turi, mazmuni va maqsadiga qarab tuzilishi zarur. Pedagogik texnologiyalar -ta'lim shakllarini optimallashtirish maqsadida o'qitish va bilimlarini o'zlashtirish jarayonining inson salohiyati va texnik metodlar majmuidir. Mutaxassislarining fikricha, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. Pedagogik texnologiyaga asoslangan ta'lim jarayonida o'qituvchi faoliyati va o'quvchi faoliyati doirasi aniq belgilanadi, ta'limni tashkil etishning aniq texnologiyasi ko'rsatiladi. Pedagogik texnologiyaga asoslangan ta'lim jarayonida o'qituvchi faoliyati va o'quvchi faoliyati doirasi aniq belgilanadi, ta'limni tashkil etishning aniq texnologiyasi ko'rsatiladi. Bolaning ongi va tafakkuri endi shakllanib kelayotgan boshlang'ich sinflarda o'qituvchining mahorati, pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga mohirona tadbiiq eta olishi, ta'limning yangi-yangi yo'l va usullarini izlashi, pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi juda muhimdir.

Xulosa qilsak, boshlang'ich sinflar o'qituvchilari yangi texnologiyalarni chuqur bilishi, tahlil qila olishi va yangilik yaratilish darajasida bilimli va mahoratli bo'lishlari juda muhim. Darsni tashkil etishda barcha o'quvchilarga tushunarli, oson, qiziq bo'lgan usullarni tanlashi, ko'rgazmali qurollardan foydalanishi, yangi ishlab chiqarilayotgan texnik vositalarni tadbiiq qilishi, ta'lim oluvchilarni ijodiy, mustaqil ishlashga undashi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risidagi qonunlari.
2. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari.



BOSHLANG'ICH SINFLARDA "KO'P XONALI SONLAR" MAVZUSINI O'QITISHNI TASHKIL QILISH SHARTLARI

Nurmamatova Feruza Shernazarovna

Surxondaryo viloyati Uzun tumani
23-son umumiy o'rta ta'lim maktabi
Boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini raqamlar bilan tanishtirish, ko'p xonali sonlar bilan ishlashga o'rgatish bo'yicha qilinishi kerak bo'lgan ishlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: matematika, ko'p xonali son, birlik, o'nlik, yuzlik, minglik, raqamlash, son, xona, amal.

Boshlang'ich sinflarning matematika darsliklarida ko'p xonali sonlarni alohida qilib berilishiga sabab, 1000 dan katta sonlarni raqamlashning o'ziga xos xususiyatlari bor: ko'p xonali sonlar faqat xona tushunchasiga emas, balki sinflar tushunchasiga ham tayanib hosil qilinadi, nomlanadi, yoziladi. Bu muhim tushunchani ochib berish kerak. Masalarni qarab chiqish tartibi quyidagicha: raqamlash, yozma qo'shish va ayirish, yozma ko'paytirish va bo'lish. Ishning o'ziga xos tomoni shundan iboratki, ko'rsatilgan barcha masalalarni o'rganishda o'qituvchi o'quvchilar o'qitishning bundan ilgari bosqichlarida hisoblash sistemalari, natural sonlar qatori, arifmetik amallar, ularning xossalari, amallar orasidagi o'zaro bog'lanish, komponentlar o'zgaranda natijalarning o'zgarishiga nisbatan to'plagan kuzatishlari va ayrim xulosalarini umumlashtirishga erishadi. Bu bilimlar ko'p xonali sonlarni o'qish va yozish, og'zaki va yozma hisoblashlarni bajarish o'quv va malakalarini hisoblash uchun asos bo'ladi.

Bu mavzuda o'qituvchining vazifasi quyidagilardan iborat.

- a) predmetlarni bittalab, o'ntalab, yuztalab, guruhlariga birlashtirib sanash;
- b) 1000 ichida sonlarni o'qish va yozish hamda ularni natural qatorida kelish tartibini bilish;
- v) sonlarni yuzlik, o'nlik va birliklardan hosil qilish;
- g) o'ngdan chapga hisoblaganda, birliklar, o'nliklar, yuzliklar qaysi o'rinda turishini bilish;
- d) sonni xona qo'shiluvchilari yig'indisi ko'rinishida yoza olish va xona birliklarini bilish.

1000 ichida sonlarni raqamlashni o'rganish natijasida o'quvchilar quyidagi bilimlar, malakalar va ko'nikmalarni egallab olishlari kerak.

1. 1000 ichida sonlarni raqamlashni, sonning hosil bo'lishini, o'zidan oldingi va keyingi sonlar bilan aloqadorligini bilish.

2. Har bir sonni sonlar qatoridagi o'rnini bilish.

3. Sonlarning o'rni qiymatlarini bilgan holda o'qish va yoza olish.

4. Taqqoslash.

5. Sonni xona yig'indisi ko'rinishida yoza olish.

6. Sonlarning natural ketma-ketligini bilgan holda qo'shish va ayirishni bajarish.

7. Uch xonali son va uchinchi xona birliklari tushunchasini bilish.

Ko'p xonali sonlarni raqamlashni o'rganish natijasida o'quvchilar:

1. Millionlar sinfi ichida natural qator sonlarining nomlarini o'zlashtirib olishlari, ularning qanday hosil bo'lishini tushunishlari, ularning o'nli tarkiblarini bilib olishlari kerak.

2. Sinflarning nomlarini va har bir sinf ichida xonalarni bilishlari kerak.

3. Millionlar sinfi ichida har qanday sonni o'qiy olishlari va yoza olishlari kerak.

4. Sonlarni taqqoslay olishlari kerak.

5. Har qanday sonni xona qo'shiluvchilarining yig'indisi shaklida tasvirlay olishlari (berilgan sondagi birliklarning, o'nliklarning va h.k.) kerak;

6. Umumiy sonni topa olishlari, mayda birliklarni yirik birliklar bilan va aksincha, yirik birliklarni mayda birliklar bilan almashtira olish.

7. Sonlarni 10, 100, 1000 marta kattalashtira oldigan va nollar bilan tugaydigan sonlarni 10, 100, 1000 marta kamaytira oladigan bo'lishlari kerak.

1000 dan katta sonlarni raqamlashni o'rganish o'ziga xos xususiyatga ega.

Bundan oldingi barcha sonlarni o'rganishda o'rinli bo'lgan predmetlarni bevosita sanashga asoslangan holda ko'p xonali sonlarni hosil qilish, ularni og'zaki raqamlash mumkin emas.



Predmet ko'rgazmalilikni shartli ko'rgazmalilikka almashtirishga to'g'ri keladi: son cho'tga solinadi yoki raqamlash jadvalida belgilanadi. Ikkala holda ham ko'rgazmalilik sonni hosil qilish va belgilashni namoyish etadi va shartlilik elementiga ega bo'ladi: cho'tdagi bir xil soqqalar, ayni bir xil raqamlar cho'tda va raqamlash jadvalida joylashishiga qarab yozuvda har xil sonni bildiradi (masalan, 333333 soni va 3 birlik, 3 o'nlik, 3 yuzlik va hokazo).

Darsda ko'rgazmali vositalardan foydalanayotganda buni hisobga olish zarur.

Ikkinchi o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, 1000 dan katta sonlarni raqamlash birliklarni ikki yoqlama guruhlashga asoslanadi: quyi xonaning 10 birligi undan keyingi yuqori xonaning 1 birligini tashkil etadi, quyi sinfning 1000 birligi undan keyingi yuqori sinfning 1 birligini tashkil etadi. II sinf birligi - ming va bu birliklar bilan ularni I sinf birliklari kabi o'nliklarga, yuzliklarga, mingliklarga guruhlab sodda birliklar kabi sanash mumkin.

Ko'p xonali sonlar turli sinflar birliklarini sanash natijasida hosil bo'ladi, shuning uchun ular "sinflar boyicha" o'qiladi va yoziladi. Har bir sinf ichida esa sonning hosil qilinishi, atalishi va yozilishi 1000 ichida sonlarni hosil qilish, atash va yozishdagi kabi amalga oshiriladi. Masalan, agar minglarni sanab 115 ni, keyin birlarni sanab 125 ni hosil qilsak, 115125 soni hosil bo'ladi. Birliklarni sinflar bo'yicha guruhlashning mavjudligi ko'p xonali sonlarni raqamlashni o'rganish tartibida ma'lum iz qoldiradi, bunda bolalarni bir yo'la minglar sinfining uchta xona birliklari bilan tanishtirish maqsadga muvofiq, bu birliklarning hosil bo'lishi va atalishi I sinf birliklarining hosil bo'lishi va atalishi bilan o'xshash ekanini ta'kidlash kerak. II sinf xona sonlarining hosil bo'lishi va yozilishini (5 ming, 20 ming, 600 ming) va II sinf birliklaridan tuzilgan sinf sonlari (25 ming, 320 ming, 761 ming)ni (ya'ni yaxlit mingliklarni) qarash va nihoyat, to'rt xonali, besh xonali va olti xonali sonlarni raqamlashni o'rganishga kirishish kerak. Bu yerda sanoq sistemasining g'oyasi o'z aksini topadi: mingliklar xuddi oddiy birliklar kabi sanaladi, ko'p xonali sonlarni raqamlashni o'rganish esa mazkur holda 1000 ichida raqamlashga doir bilimlarga tayanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinflarining matematika darsliklari.
2. S.Alixonov Matematika o'qitish metodikasi.



THE FEATURES OF LEADERS

Nurulloeva Shakhinabonu Utkirovna,

student of the Pedagogical Institute of Bukhara State University

Telephone number 998904143475

nurulloevashaxinabonu@gmail.com

Kadirova Nargiza Arifovna

PhD, Pedagogical Institute of Bukhara State University

Telephone number: 998 90 2997054

nzkd117@gmail.com

Annotation: The world changes daily, life goes on. It is an unchangeable law of nature that people are born and people die. However, in a rapidly changing world there is another law that the names of sharp witted leaders who have reached the pinnacle of greatness will never die. Anyone who wants to have a perfect place in life desires to achieve such success and make a place for himself in society, and importantly, leadership is the first step on the path to this goal. Being an acceptable leader is a complex process that you need to have some uniqueness. The main objective of this research paper is to acquire the key features of leaders.

Key words: effective leadership, communicative skills, concise language, self confidence, responsibility, humanism.

To understand the effective leadership characteristics, one needs to identify the conduct and traits of the leaders. One needs to take into account characteristics which are energy level, physical stamina and stress tolerance. These three characters are very essential for enabling them to deal with stress and other types of cumbersome and tedious situations. Moreover, when they are overwhelmed by a number of job duties, they are well aware of time management skills and take out sufficient time for all tasks and activities.

According to the words of *Keith Davis*: “*Leadership is the ability to persuade others to seek defined objectives enthusiastically. It is the human factor which binds a group together and motivates it towards foals*”¹.

Leadership is a process by which an executive can direct, inspire, guide and affect the quality of work and the behaviour of others positively by making himself as an excellent guide who can tackle any issues. It also refers to influencing the group to go ahead with their goals. Leaders are thought to develop upcoming plans and the situation of an organisation and motivate its members to make progress.

A leader has got multidimensional features in him which makes him appealing and effective in behaviour. They need to possess skills and abilities to carry out their job duties well and earn reference and admiration from other members of the organisation. The following are requisites to be a good leader.

1. Communicative skills. It is important for effective leaders to have acceptable communication skills in order to attract their audience. They should explain everything from organizational foals to specific tasks and objectives in concise language. This can help them to increase the number of their listeners so that their speech is understandable for everyone. They should embrace enthusiasm, confidence, inspiration and excitement when they communicate. Optimistic leaders show the belief of a better future of a company in their eyes and speech.

2. Intelligence. A leader should be intelligent enough to identify problems and find solutions to them by taking pros and cons into consideration. Hence a broadened horizon and positive outlook is very essential for leaders.

3. Knowledge of work. A leader has to be knowledgeable enough, not only in his own sphere but also the ones which are related to the modern world. This can be helpful to tackle the issues and difficult situations easily.

4. Sense of responsibility. A sense of influence to the individual’s work can be brought by having responsibility and accountability since they play a vital role for leader devet. Moreover, they assist leaders to increase their respect among their subordinates as they are always an

¹ [https://en.wikipedia.org/wiki/Keith_Davis_\(linebacker\)](https://en.wikipedia.org/wiki/Keith_Davis_(linebacker))



excellent example for them.

5. Self confidence. Confidence in leaders is significant to earn the trust of their subordinates. It is the main factor that can increase the amount of encouragement in staff and is the best helper for them in order to set goals with belief also.

6. Coordination. Coordination can be achieved by respecting others and listening to their opinions on time. Being sociable is also important for group working where you can share your own ideas and plans and easily accept others' also. So that coordination should be the primary motive of a leader.

7. Humanist. This trait to be present in a leader is essential because the leader always works with human beings and contacts them without having knowledge about how their background is and what about their characters. Therefore, being humanist is vital for building a congenial atmosphere.

So that to guide and lead the subordinates in the right direction leaders should upgrade and reinforce their characteristics in the achievement of goals and objectives in a well organized manner. Characteristics of effective leaders are communicative skills, intelligence, knowledge of work, sense of responsibility, self-confidence, coordination skills and being humanist which can impact considerably to the effect of the leader's work in terms of their qualities. Communication skills is what can be the first and the most important factor for leaders since it contributes to attracting the audience and the main tool for inspiring and energizing their subordinates. Intelligence is the intellectual capability of leaders which is marked by complex cognitive feats and high levels of motivation and self-awareness. High intelligence is associated with better outcomes in life (Wikipedia). Knowledge of work is a broad term for leaders that produces unique knowledge, while making decisions leaders should gain this skill so as not to have difficulty in. True leaders take responsibility for their team and help them achieve goals. Confidence is referred to the feeling or belief that one can have faith in someone or something where leaders have in themselves. Coordination is working with a group, listening to others and sharing acceptable ideas for every situation. Humanism is the belief that the person creates their own set of ethics, in terms of leaders they should be humanist so as to create a congenial atmosphere. Generally, a leader can not have all traits at one time but a few of them contribute to achieving effective results.

References:

1. Leadership Basics. Prachi Juneja and Management Study Guide Content Team 2021.
2. Women's Initiative Newsletter. Baker Danielson. August 13, 2019.
3. Characteristics of Effective leadership. Dr. Radhika Kapur. September 23, 2020.
4. Understanding Leadership Theories. Dr. Radhika Kapur. September 25, 2020.
5. John Spacey, February 24, 2016.
6. Michael Page www.michaelpage.com
7. [https://en.wikipedia.org/wiki/Keith_Davis_\(linebacker\)](https://en.wikipedia.org/wiki/Keith_Davis_(linebacker))



BOSHLANG'ICH SINFDADA O'QISH DARSLARIDA "BUMERANG TEKNOLOGIYASI", "ARRA" METODI METODIKASINI TASHKIL ETISH

Masharipova Oliyana Ro'zmato'vana

Telefon: +998974597694

Qo'chqarova Dilbar Ro'zimovna

Urganch shahar 18-maktab o'qituvchisi

Telefon: +998914357705

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang'ich sinflarda o'qish metodikasi o'yinlarni tashkil etish, metodika bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini adbiy ta'limning mazmuniga va uni o'qitishga mustaqil ongli yondasha oladigan o'zgalarni tajrisini nafaqat o'rganib olmasdan balki ular faoliyatini natijalarini ongli ravishda taxlil qilish haqida.

Kalit so'zlar: didaktik qoida, deduksiya, induksiya, pedagogic texnologiy, "Bumerang texnologiyasi", "Arra"metodi.

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'rganilayotgan metodikada asarlar tahlili va talqiniga yangicha yondashish lozimligini taqozo etmoqmoda. Asar tahlilini bosqichli izchillik asosida olib borish o'quvchilarning o'quv faoliyatini aniq vaqsadga yo'naltirish imkonini beradi.

"Bumerang texnologiyasi", "Arra" metodi kabi pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'qish materiali – badiiy asar ustida amalga oshiriladigan ishlarning aniq maqsadga yo'naltirilishini, o'quv harakatlarining bosqichma-bosqich tashkil etilishini, ta'lim oluvchilarga individual yondashishni, o'quvchilar faoliyatini kuzatish va tezkorlik bilan baholashni ta'minlaydi.

"Arra" metodida o'rganilayotgan badiiy matn tarkibiy qismlarga ajratiladi. Bu texnologiya 4-sinfda "O'qish kitobi" darsligiga kiritilgan barcha asarlarni o'rganishga tadbiiq etilishi mumkin.

Masalan, **"Shaxzodaning bolaligi"** hikoyasi o'rganiladigan darsda asar dastlab audiodan eshittiriladi. Asar 4 qismga bo'linadi. Sinf o'quvchilari ham 4ta kichik guruhga bo'linadi. Har bir guruhga o'qiydagin qismi belgilab ko'rsatiladi. Har bir guruh uchun bir xil topshiriq beriladi:

1-topshiriq. *O'qigan qismlarining mazmunini to'liq gapirib berishga tayyorlanish.* (Guruhning har bir o'quvchisi bu topshiriqni bajarishga tayyorlanadi)

So'ngra guruhlar qayta tashkil qilinadi. Har bir guruhda oldingi guruhdagi bitta mutaxassis o'quvchi bo'ladi. Ular arra tishlari ketma-ketligida mavzuni - asar mazmuni mantiqiy ketma-ketlikda o'rtoqlariga hikoyalab beradi.

2-topshiriq: Har bir guruh asar yuzasidan berilgan quyidagi savollarga javob beradi:

1. Malika Kuzbor Malikka nima uchun o'g'li Jaloliddinni ayamasdan tarbiya qilishni topshirdi?
2. Kuzbor Malikning Jaloloddinga chavandozlik sirlarini o'rgatishining sababini izohlang.
3. Kuzbor Malikning Jaloloddinga o'q otish sirlarini o'rgatishining sababini izohlang.
4. Asar nima uchun to'rt qismga bo'lindi?

3-topshiriq. Asar qahramonlariga baho berish yuzasidan berilgan quyidagi topshiriqlarni bajaradilar va taqdimotga chiqadilar:

1. Malika Oychechak qanday ayol ekan? Unga malika va ona sifatida baho bering.
2. Kuzbor Malik qanday chavandoz va mergan ekan? Malikning malika Oychechakka munosabatida qanday xususiyatlarini payqadingiz?
3. Jaloloddin Kuzbordani nimalarni o'rgandi? U qanday shahzoda bo'lib yetishdi? Siz Jaloliddin haqida yana nimalarni bilasiz?

4-topshiriq. Nutq madaniyatini egallashga qaratilgan topshiriqlar:

1. Kuzbor Malikning Malika Oychechakka ko'rsatgan ehtiromlarini ifodalagan so'z va iboralarni aniqlab, lug'at daftaringizga yozing va taqdimotga chiqing (*ehtirom ila bosh egdi, tiz cho'kdi, buyuring, sadoqat ila, "Siz buyuk Xorazmshoh rafiqasi, men qulingizman, e'tirozga og'iz juftlamoqchi bo'ldi, bosh ustiga, ta'zim ila).*

2. Malika Oychechakning Kuzborga ko'rsatgan ehtiromini ifodalovchi so'z va iboralarni aniqlab, lug'at daftaringizga yozing va taqdimotga chiqing (*yonidan joy ko'rsatdi, og'a, o'tiring, minnatdorchilik bilan unga qaradi, uni yuz-xotir qilmang).*

3. Malika Oychechakning onalik tilaklarini ifodalovchi so'z va iboralarni aniqlab, lug'at daftaringizga yozing va taqdimotga chiqing (*injiq-tantiq shahzoda bo'lmasin, chinakam bahodir yigit bo'lsin, alpyigit bo'lsin, zehni o'tkir, Jaloliddin valiahd, bugundan shogirdingiz, o'quvchingiz).*



О`қувчилар бу топшириqlарни bajarish uchun asarni bir necha marta o`qiydi, o`qish ko`nikmalari takomillashadi. Asar mazmunini qayta hikoyalashda yuqorida aniqlagan so`z va iboralarni nutqida qo`llaydi, nutqi rivojlanadi.

Matn ustida ishlash tarbiyaviy xulosa chiqarish bilan yakunlanadi. Bunda asar qahramonlariga tavsif beriladi, bu orqali o`quvchilar o`zlariga hozirgi davr nuqtai nazari bilan yondashib tegishlicha xulosa chiqaradilar: har bir yigit ajdodlari kabi alp yigitlar, bahodir yigitlar bo`lib yetishishlari uchun harbiy bilimlarni egalamoqliklari kerak degan xulosaga keladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Матчнонов С. Адабиёт дарсларида таҳлил ва талқин уйғунлиги. Til va adabiyot ta`limi. 2020. 7- son литературе в начальной школе. –М.: -Академия. – 2010.
2. Matchonov S., Shojalilov A., G`ulomova X. va b. O`qish kitobi. 4- sinf uchun darslik. –Т.: Yangiyo`l poligraf servis. 2020.
3. K. Qosimova va b. Ona tili o`qitish metodikasi. –Т.: Noshir. 2009.



ОНА ТИЛИ ФАНИНИ О'QITISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

О'roqova Muharram Nurillayevna

G'ijduvon tuman 45-IDUMI ona tili va adabiyot o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada pedagogik texnologiyalar, innovatsion ta'lim texnologiyalari va ulardan ona tili fanini o'qitishda foydalanish haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: texnologiya, metod, modulli o'qitish texnologiyasi, innovatsiya

Bugungi kunda ta'lim oldida turgan eng muhim vazifalardan biri o'quvchilarni mustaqil fikrlay oladigan qilib tarbiyalashdan iborat. Xususan, yoshlarda ijodiy tafakkur, ijodiy izlanish, mavjud imkoniyatlardan eng qulay va serunumini tanlay olish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, ularni milliy qadriyatlarimiz, udum va an'analarimiz ruhida tarbiyalashda ona tili fanining tutgan o'rni va imkoniyatlari benihoya kattadir.

Pedagogik nuqtai nazardan texnologiya bu shaxsni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish qonunlarini o'zida jo qiladigan va yakuniy natijani ta'minlaydigan pedagogik faoliyatdir. "Texnologiya" tushunchasi regulativ (tartibga solib turuvchi) ta'sir etish kuchiga ega bo'lib, erkin ijod qilishga undaydi. Oddiy qilib aytadigan bo'lsak, ilg'or pedagogik texnologiya deganimizda o'qituvchi bir soatlik darsda o'zining mahoratini, san'atini qo'llab, har xil usul va metodlardan foydalanib dars o'tishi davomida butun sinf o'quvchilarini faollashtirib, barcha o'quvchilarni darsga qatnashtirib, darsda faol ishlovchisi o'quvchi darajasiga erishishni tushunish kerak.

Xullas, pedagogik texnologiya-o'qitish usuli, ma'lum ma'noda ta'lim-tarbiya jarayonlari, vositalari, shakl va metodlari majmuidir.

O'quvchining bilish va ijodiy faoliyatini amalga oshirishda o'quv jarayonida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanilib, bu texnologiyalar o'z navbatida ta'lim sifatining oshirilishi imkonini beradi. Ona tili fanini o'rganishda qo'llaniladigan innovatsion ta'lim texnologiyalarini quyidagi ko'rinishda tavsiflash mumkin:

1. Muammoli o'qitish texnologiyasi – bunda o'quv faoliyati davomida muammoli vaziyat tashkil qilinib, o'quvchilar ushbu muammoli vaziyatni hal qilishga faol tarzda jalb qilinadi, natijada esa o'quvchilar tomonidan bilim, ko'nikma va malakalarning ijodiy ko'rinishda o'zlashtirilishi amalga oshiriladi, ularda tafakkurlash qobiliyati rivojlantiriladi.

2. Axborot–kommunikatsion texnologiyalar – bunda ta'lim tizimi tarkibining cheklanmagan tarzda boyitilishi va o'zgartirilishi amalga oshirilib, integratsion kurslardan foydalanish, internet tarmog'iga kirishni amalga oshirish, o'qitishning interfaol usullari, masofaviy o'qitishning qo'llanilishi kabilar ro'yobga oshiriladi.

3. O'qitishning loyihalash texnologiyasi. Ushbu texnologiya bo'yicha ish olib borish o'quvchilarda individual ijodiy qobiliyatlar rivojlantirilishi imkonini beradi, ularda ongli ravishdagi kasb tanlash va ijtimoiy jihatdan o'zligini anglash kuchaytiriladi.

4. O'yinli ta'lim texnologiyasi. Bu texnologiya rolli, ishchan va boshqa o'yinlar asosida amalga oshirilishi mumkin. Bu texnologiya o'quvchilarda dunyoqarashning kengaytirilishi, bilishga oid faoliyat rivojlantirilishi, amaliy faoliyatda kerak bo'lgan ma'lum bir aniq ko'nikma va malakalarning shakllantirilishi, shuningdek, o'quv ko'nikmalari va malakalarini rivojlantirish imkonini beradi.

5. Modulli o'qitish texnologiyasi esa ta'limning individuallashtirilishini ta'minlaydi: ya'ni, bunda o'qitish tarkibi bo'yicha, o'zlashtirish tempi bo'yicha, mustaqillik darajasi bo'yicha, o'qitish usullari va uslubiyati bo'yicha, nazorat va o'z – o'zini nazorat qilish bo'yicha individuallashtirish amalga oshiriladi. Ushbu ko'rinishda, hozirgi vaqtda ko'p sonda ta'lim texnologiyalari ishlab chiqilgan bo'lib, bu holat optimal hisoblanganini tanlab olish maqsadlarida ushbu innovatsiyalarning nazariy jihatdan umumlashtirilishi, tahlil qilinishi va tasniflanishi talabini yuzaga keltiradi. Shundan kelib chiqib, ona tili darslarida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish yuqori natijaga erishishning garovidir.



Xususan, ona tili darslarida “Topqirlar bellashuvi”, “Ijodkorlik vaqti”, “Mo‘jizalar maydoni”, “Test darslari”, “Aqliy hujum”, “Kubik”, “Donishmandlar bisoti”, “Klaster”, “Axborot uzatish” kabi usullardan foydalanish fanni yanada chuqurroq o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, ushbu usullardan foydalanish o‘quvchilarda fanga nisbatan qiziqish uyg‘otadi va faolligini oshiradi.

“**Axborot uzatish**”. Biror mavzu bo‘yicha har bir o‘quvchi o‘z bilganini aytadi (bunda 1-o‘quvchi boshlaydi, 2-3-4-o‘quvchi davom ettiradi). Ot so‘z turkumi.

1-o‘quvchi: ot so‘z turkumi kim, nima, qayer so‘roqlariga javob bo‘ladi,

2- o‘quvchi: ot so‘z turkumi shaxs, narsa, buyum, o‘rin-joy, faoliyat-jarayon otlariga bo‘linadi,

3-4... va shu tariqa davom etadi. Oxirida o‘qituvchi yakunlaydi va xulosalaydi.

“**Kubik**”. Har tomonlama fikrlash, tasavvur qilish faollikni oshiradi. Zukkolik va chaqqonlikni talab qiladi. Bunda kubik shakli avvaldan tayyorlab olinadi va ularga mavzu yuzasidan savollar yoziladi. O‘quvchi kubikni qaysi tomonidagi savol tushsa, shunga chaqqonlik bilan javob beradi. Shunday qilib, innovatsion pedagogik texnologiyalarning o‘quv jarayonida ahamiyati katta. Bunda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘zaro bir-birlarini tushungan holda harakatlanadi

Umuman olganda, har bir pedagogik texnologiya o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatini, darsdan kutiladigan natijaning qanday bo‘lishi haqida oldindan tasavvur eta olish imkoniyatini yaratadi. Bu esa o‘z navbatida ,har bir darsni tahlil qilib, o‘qituvchi va o‘quvchi tomonidan yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarning keyingi darslarda oldini olishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo‘ldoshev J., “Ilg‘or pedagogik texnologiya”. – Toshkent, Fan-2004
2. Hamidov A. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent-2004.
3. Haydarov B. va b.q. Ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. Toshkent- 2002.



BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA "KASRLAR" MAVZUSINI O'RGATISH ME'ZONLARI

Ostonova Gulshod Mahmudovna

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani
6-son umumiy o'rta ta'lim maktabi
Boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishning e'tiborli jihatlari, matematika darslarida guruhlarda ishlashning ahamiyati va "Kasrlar" mavzusini o'rgatish me'zonlari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: matematika, kasr, masala, me'zon, ulush, ta'lim, ifoda, metod.

Yangi qabul qilingan DTS boshlang'ich maktab oldiga tamomila yangi maqsadlarning qo'yilishi bilan matematika o'qitish mazmunining tubdan o'zgarishiga olib kelmoqda. Matematika kursini o'qitish mazmunida ham, darslik va qo'llanmalardan foydalanish metodikasida ham o'qituvchidan yanada omilkor bo'lishini talab qilmoqda. Boshlang'ich sinflar o'qituvchilari matematika o'qitish metodikasini qay darajada egallab, chuqur o'zlashtirib olishlari, boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematikadan samarali ta'lim berilishi bilan uzviy bog'liq.

O'quvchilarning matematika darsida olgan bilimlarini hayotda uchraydigan elementar masalalardan tortib murakkab masalalarni yechishga tadbiiq qila olishga o'rgatishda, o'qituvchining texnik vosita va ko'rgazmali qurollardan, muammoli vaziyatni hosil qila olish, eng asosiysi, AKTdan foydalanish malakalarini shakllantirish, o'quvchilarni mustaqil ravishda matematik bilimlarni o'rgatish bilan o'quvchilarda mavjud kompetensiyalarni tarkib toptira olish zamonaviy o'qituvchining asosiy vazifalardan bo'lib qoldi.

O'quvchilarni kasrlar bilan dastlabki tanishtirish dasturga binoan 2-sinfdan boshlanadi. Keyinroq kasrlarning hosil bo'lishi, ularni taqqoslash, sonning ulushini topish va berilgan ulushga ko'ra sonning o'zini topish kabi hollari bilan tanishadilar. Bu kabi masalalar 3-sinfdan boshlab ko'riladi. 4-sinfdan ham davom ettiriladi. Masalan, o'ramda 240 m sim bor edi. Shu simning 5/8 qismi ishlatildi. Qolganidan necha metr ortiq sim ishlatilgan? Yechimning ifoda ko'rinishidagi yozuvini quyidagicha bajaramiz:

$$\begin{array}{l} 240 : 8 * 5 = 150 \text{ (m)} \qquad 240 - 150 = 90 \text{ (m)} \\ 150 - 90 = 60 \text{ (m)} \qquad \qquad \qquad \text{Javob: 60 metr sim} \end{array}$$

Masalalarni imkon qadar umumiy ifoda yordamida yechishga o'rgatish natijaliroq bo'ladi. Umumiy ifodasi quyidagicha: $240 : 8 \cdot 5 - (240 - 240 \cdot 8 \cdot 5) = 60 \text{ (m)}$

Sonning ulushini topishga doir masalalarni yechishda kasrning konkret mazmuni ochiladi va mustahkamlanadi. Bunday masalalarni yechishga sonning bir ulushini topishga doir masalalarni yechish malakasi asos bo'ladi. Kasrlar va ular haqidagi mavzularni o'rganishda ko'rsatmalilik va ko'rgazma qurollarga e'tiborli bo'lish masalasi, ayniqsa, muhimdir. Shuning uchun ulushlarning hosil bo'lish jarayoni ko'rilayotganligi munosabati bilan iloji boricha ko'proq turli aniq predmetlar: olma, lenta va boshqa har xil geometrik shakllarning modellarini teng bo'laklarga bo'lishga doir amaliy mashqlarni o'tkazish kerak. Bu mashqlarni bajarishda doskaga chiqarilgan bitta yoki ikkita o'quvchigina qatnashib boshqa bolalar passiv kuzatuvchi bo'lib qolmasdan sinfning barcha o'quvchilarini kichik guruhlariga bo'lib o'tish o'quvchilarning darsda faol ishtirok etishlari uchun juda muhim. Dars jarayonida ko'proq bilim va tushunchalar berish uchun guruhdagi har bir o'quvchiga qog'ozdan qirqilgan doiralar, to'g'ri to'rtburchaklarni tayyorlab qo'yish kerak.

Xulosa qilib aytganda kasrlarning hosil bo'lish bilan boshlang'ich sinflarda tanishtiriladi. Bu yerda ko'rgazmali qurol bilim berishning bosh me'zoni bo'ladi.

O'quvchilarning bilim faoliyatini rivojlantirishda o'qituvchi ijodkor bo'lishi kerak. O'qituvchi qancha ko'p izlansa, qancha ijod qilsa, dars davomida turli metodlarni qo'llay bilsa, elementar matematika va oliy matematika kurslarining nazariy asoslarini chuqur bilgan holda darslarni boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishning eng zamonaviy usullaridan foydalangan holda tashkil eta olsa, shundagina haqiqiy o'qituvchi nomiga sazovor bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bikbaeva N.U. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi.
2. Jumaev M.Y. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi.
3. Uzluksiz ta'lim tizimida matematika fanini o'qitishni takomillashtirish masalalari. Respublika ilmiy anjumani materiallari.
4. www.ziyouz.com



ADABIYOT FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Ostonova Sabina Farhodovna

G'ijduvon tuman 45-IDUMI
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

Annotatsiya: Bu maqolada adabiyot darslarida o'quvchilarni mustaqil fikrlash va og'zaki nutqini o'stirishda muhim bo'lgan interfaol usullar, noan'anaviy darslardan unumli foydalanish, hozirgi xalqaro baholash tizimi PISA dasturi asosida o'quvchilarni o'qitish va ularni dunyoqarashini shakllantirish haqida fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: zamonaviy yondashuv, interfaol usullar, PISA, noan'anaviylik, kitobxonlik, FSMU, "Aqliy hujum".

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng mustaqil davlatimiz sog'lom, ma'naviyati boy avlodni tarbiyalashga alohida e'tibor berib kelmoqda. Bu bejiz emas, chunki sog'lom, barkamol avlod aziz va jonajon vatanimizning kelajagi va istiqbolidir. Shuni aniq aytish kerakki, ma'naviyat hech qachon o'z-o'zidan shakllanmaydi. Qachonki, kishi butun kuchini, qalb qo'rini berib o'qisa, bilim olsagina ruhiy duhyosi boyiydi. Uning ilmi, bilimi, duhyoqarashi chuqurlashadi. Bir so'z bilan aytganda elim deb, yurtim deb yashaydigan insonlarga aylanadi. Buning uchun esa, albatta, biz o'qituvchilarning xizmati beqiyosdir. Chunki o'quvchilarni teran fikrlay oladigan, mustaqil fikrlashga yonaltiradigan adabiyot fani oldida asosiy bosh maqsad turadi. Bu maqsad Vatanimizning kelajagi bo'lgan yosh avlodni komil shaxs sifatida ma'naviyatini shakllantirish, ularni duhyoqarashini kengaytirish va ijodiy fikrlashini rivojlantirishdan iboratdir. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida Davlat ta'lim standartlarini belgilashda nutq o'stirish asosiy o'rinda turadi. Muhtaram birinchi prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov aytganidek: "Bizga maktab bitiruvchilari emas, maktab ta'lim –tarbiyasini ko'rgan shaxslar kerak". Birinchi prezidentimiz bu gaplarni bejizga aytmagan, albatta. Shuning uchun ham barcha o'qituvchilar oldida adabiyot darslarini o'qitishda katta ulkan vazifalar borligini bilgan holda, o'quvchilarga bilim berishda hozirgi zamon talablariga mos holda ish olib borishimiz kerak. Buning uchun esa mamlakatimizda ta'lim sohasida ulkan o'zgarishlar bo'lyapti. Mamlakatimizda ta'lim tizimini isloh qilish orqali yosh avlodni har tomonlama barkamol insonlar etib, voyaga yetkazish asosiy vazifa sifatida qo'yilmoqda.

Ta'limning maqsadi eng, avvalo, inson ongini rivojlantirishdir. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bunday islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilmoqda. Bu esa yoshlar o'rtasida kitobxonlik va darslarga qiziqish xususiyatini o'stirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim –tarbiyaga yanada e'tiborini kuchaytirishni talab etmoqda. Shuning uchun hozirgi kunda ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi yuksak psixologik mahorat va nutq madaniyatiga ega bo'lishi kerak. Buning uchun esa o'qituvchi o'z nutqida quyidagilarni aks ettirishi kerak:

1. Nutqning to'g'riligi.
2. Nutqning sofligi.





Hozirgi zamon o'qituvchisi dars o'tish jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan unumli foydalansa, o'quvchilarni o'z darsiga jalb qila olishi oson bo'ladi. Ayniqsa, yuqori sinflarda adabiyot darslarida bu usullar juda qo'l keladi. Nega desangiz yuqori sinf o'quvchilari adabiyot darslariga uncha e'tibor bermaydilar. Shuning uchun adabiyot darslarida o'quvchilarni nutqini o'stirish, mustaqil, ijodiy fikrlashini shakllantirish uchun darslarda bir xillikdan qochib, turli xil noan'anaviy usullardan foydalangan holda tashkil etsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Masalan 10-sinflarda adabiyot darslarini tashkil etishda bir necha o'yin texnologiyalaridan foydalanilsa, o'qituvchi o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishishi mumkin. Bulardan:

1. "F S M U" texnologiyasi bu o'yinda hamma o'quvchi qamrab olinishi mumkin o'tilgan mavzuni yakunlash uchun juda yaxshi natija beradi.

F - Asar boyicha fikringizni bayon eting.

S - Keltirilgan fikrni sababini keltiring.

M - Keltirilgan sababni misol bilan ifodalang

U - Keltirilgan fikrlarni umumlashtiring.

2. "Aqliy hujum" bu texnologiyaga o'quvchilarni qiziqtirish juda oson, chunki bu usulda o'quvchilar keltirgan fikrlar baholanmaydi va muhokama qilinmaydi. Bu usulda o'quvchida to'g'rimi yoki noto'g'rimi degan fikr bo'lmaydi, hamma o'z fikrini bayon qiladi va ularning fikri ham inobatga olinadi. Bu o'yin o'tilgan mavzuni esga olishda, yangi mavzuni mustahkamlashda, ma'lum bir bo'lim yuzasidan takrorlash darslarida yaxshi natija beradi. Bunda, albatta, o'quvchining og'zaki nutqi shakllanadi. Hozirgi kundagi Xalqaro baholash dasturida ham bu asosiy o'rinni egallagan. Xalqaro baholash dasturida o'quvchilarni oddiydan murakkabga qarab o'qitish, o'qish tezligi, fikrni aniq va ravon bayon etish asosiy o'rindadir. Prezidentimiz tashabbuslari bilan o'tkazilayotgan "Yosh kitobxon" ko'rik-tanlovi bunga misol bo'la oladi. O'tkazib kelinayotgan bu tanlov shu kungacha bir necha kitobxonlarni kashf qildi. Bu orqali o'quvchining so'z boyligi oshadi, nutqi mukammal darajada rivojlanadi, mana shunday tanlovlar yoshlarimizni salohiyati kuchli, dunyoqarashi teran fikrli bo'lishiga yordam beradi. Buning uchun esa biz o'qituvchilarning xizmatlari juda katta bo'ladi. Hozirgi axborot texnologiyalari tez fursatda rivojlanib borayotgan davrda biz o'qituvchilar yangilikka intilib, harakat qilishimiz, o'quvchidan-da ko'proq bilim egasi bo'lishimiz, zamon bilan hamnafas bo'lgan holda, tinmay izlanishda harakat qilib, innovatsion g'oyalar yaratish yolida tinmay izlanishimiz zarur. Shuning uchun ham bugungi kunda ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari oldida quyidagi bir qator vazifalar turibdi: o'quvchi yoshlarni o'zbek tili va adabiyotining boy imkoniyatlaridan foydalangan holda Vatanga muhabbat, sadoqat, umumbashariy qadriyatlarga hurmat ruhida, keng duhyoqarashga ega bo'lgan va mustaqil fikrlaydigan ma'naviy yetuk insonlarni tarbiyalash; ona tilimizning internet tarmog'ida munosib o'rin egallashini ta'minlash; darslarda ped texnologiyalardan unumli foydalanish.

Shunday ekan, bizning oldimizga qo'yilgan bu vazifalarni odilona bajarsak, Vatan uchun chin yurakdan xizmat qiladigan yetuk shaxslar kamol topishiga o'z hissamizni qo'shgan bo'lamiz.



О‘QUVCHILARNING О‘QISH SAVODXONLIGI OSHIRISHDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARNING AHAMIYATI. (PIRLS XALQARO TADQIQOT DASTURI MISOLIDA)

To‘xtasinova Munira Ibragimovna,

Qo‘qon DPI o‘qituvchi

90 292-20-86, dikayaorxideya86@mail.ru

Raimov Jasur Jahongirovich,

Qo‘qon DPI talaba

94 350-29-18, Jasurbekraimov531@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini oshirishda xalqaro tadqiqotlarning o‘rni va roli, PIRLS xalqaro tadqiqot dasturiga tayyorgarlik ko‘rishning metodologik asoslari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: IEA, PIRLS, xalqaro baholash dasturlari, matni o‘qib tushunish darajasi.

Innovatsion taraqqiyot yo‘lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan axborotlar va ma‘lumotlar asrida kelajak egalari bo‘lgan yoshlarning ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini qo‘llab-quvvatlash, rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasiga tayangan holda ta‘lim tizimida jadallik bilan faoliyat olib borish, mavjud tizimni atroflicha qiyosiy tahlil qilish, nufuzli ilmiy tadqiqot muassalari bilan hamkorlik qilish kerakligi muhim ahamiyatga ega. Bugungi kun o‘quvchisi zamon bilan hamnafas ravishda qadam tashlash bilan bir qatorda, xorijiy mamlakatlar ta‘lim tizimlaridan andoza olgan, milliy qadriyat va ana‘nalarimizga yo‘g‘rilgan ta‘limni olishga haqlidir. Shuning uchun ham Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta‘birilari bilan aytganda: „Mamlakatimizda ta‘lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga alohida ahamiyat qaratilib, hozirgi kun o‘quvchisining jahon andozalari darajasida zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallashi, jismonan va ma‘nan yetuk insonlar bo‘lib ulg‘ayishi, ularning qobiliyat va iste‘dodini, intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish, yosh avlod qalbida Vatanga sadoqat va fidoyilik tuyg‘ularini yuksaltirish borasida ulkan ishlar amalga oshirish O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim tizimi hodimlari oldidagi bosh vazifa bo‘lmog‘i darkor“.

XXI asrning uchinchi o‘n yilligiga qadam qo‘yar ekanmiz, ta‘lim sohasida erishilayotgan yutuqlarni sarhisob qilishda xalqaro baholash dasturlariga bo‘lgan talabning ortib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu talab esa bevosita mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlariga erishilayotganligi, barcha sohalarda yetuk mutaxassislar va malakali kadrlarga bo‘lgan talab oshib borishiga sabab bo‘lmoqda. Bu esa o‘quvchilarning o‘quv fanlariga qiziqishini yanada oshirish, o‘qituvchi-pedagoglarning zamon talablariga mos ravishda ta‘lim berish jarayonida izchillik va tizimlilik asosida ish olib borishlarini talab etadi. Bundan anglashiladiki, ta‘lim sifatini baholashning xalqaro talablari me‘yorlariga mos keluvchi xalqaro dasturlarda ishtirok etishning naqadar muhimligini ko‘rsatadi. Ta‘lim sifati va samaradorligini oshirish yo‘lida xorijiy ilg‘or tajribalarni o‘rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega bo‘lib hisoblanadi.

Ta‘lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (International Association for the Evaluation of Educational Achievement – IEA) tomonidan o‘tkazib kelinadigan baholash dasturlari PIRLS, PISA, TIMSS, ICILS baholash dasturlari o‘quvchilarning bilimlarini xalqaro baholash mezonlari talablari asosida baholashga zamin yaratadi.

Xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish: respublikadagi ta‘lim sifati va uning xalqaro standartlarini hisobga olgan holda egallagan o‘rni haqidagi yakuniy xulosalar chiqarish, milliy ta‘lim tizimini isloh qilish, yangi avlod darsliklarining yaratilishi, xalqaro standartlar darajasida yuqori iqtisodiy samaraga asoslangan milliy baholash tizimini yaratish imkonini, milliy ta‘lim sifatini baholashdagi nazorat materiallarini xalqaro tadqiqotlarda qo‘llaniladigan nazorat materiallari sifati darajasida ishlab chiqish imkonini beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning matni o‘qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot dasturi **PIRLS** dasturi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qib tushunish ko‘nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma‘lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o‘qish va o‘qitishni yaxshilash uchun ta‘lim sohasidagi davlat siyosatiga oid ma‘lumotlarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash



darsturidir.

Xalqaro baholash dasturi hisoblangan PIRLS baholash dasturiga tayyorgarlik ko'rish doirasida qanday vazifalar ustuvor hisoblanadi?

1. O'qish fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interektiv metodlardan samarali foydalanish;

2. o'qish fanini o'qitishda berilgan matnni o'zlashtirish jarayonida boshqa fanlar bilan aloqadorlikni kuchaytirish.

3. Fanni turli sohalarga va hayotiy jarayonlarga bog'lab o'qitish.

4. Sinfdan tashqari o'qish darslarida jahon adabiyoti namunalaridan foydalanib darslarni tashkil etish (bunda o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda matn tanlash maqsadga muvofiqdir);

5. O'quvchilarda kreativ fikrlashni shakllantirish va yo'naltirishga undovchi o'quv mashqlari va topshiriqlarini ishlab chiqish;

6. O'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirishda tayanch maktablarining o'rni va rolini oshirish, PIRLS bo'yicha tayanch maktablar negizida muntazam ravishda o'quv seminarlari doirasida PIRLS xalqaro dasturi, unda foydalaniladigan topshiriqlar bo'yicha mashg'ulotlar olib borish;

7. Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini shakllantirishni baholashga qaratilgan tajriba-sinov monitoringini tizimli ravishda tashkil etib borish.

PIRLS xalqaro dasturi talablari asosida o'quvchilarni qanday tayyorlash mumkin?

Sinfda tashkil etiladigan o'qish darslarini eng yaxshi tarzda olib borilishini ta'minlash, o'quvchilarni badiiy adabiyotga (shu jumladan, jahon bolalar adabiyoti namunalari) yuqori darajada qiziqtirish, o'quvchilarda maktab va shahar (tuman) kutubxonalaridan yosh va individual xususiyatlariga mos keladigan, mantiqiy va tanqidiy fikrlashga undaydigan adabiyotlarni tanlay olish ko'nikmalarini shakllantirish orqali, o'quvchilarni uyda mustaqil o'qishga rag'batlantirish orqali, o'quvchilarni uyda mustaqil o'qishga rag'batlantirishda o'quvchining ota-onasi bilan muntazam ravishda aloqada bo'lish orqali amalga oshirilishi lozim. Mustaqil kitob o'qish bola aqliy faoliyatining oshishiga zamin yaratadi. Bu esa o'z navbatida bolada notanish va murakkab matn bilan ishlash ko'nikmasini shakllantiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qib tushunish darajasini aniqlab beruvchi xalqaro talablar doirasida bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishda tizimlilik, izchillik asosida faoliyat olib borish, o'quvchilarning kognetivlik, kreativlik xususiyatlarini shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. PIRLS. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini oshirish. Metodik qo'llanma. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent-2019.



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI FAOLLIGINI OSHIRISHDA O'QITUVCHI MAHORATI

Qosimova Gulnora Mirzomurodovna

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani
12-son umumiy o'rta ta'lim maktabi
Boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich ta'limni tashkil qilish, uning maqsad va vazifalari haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek maqolada matematika darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil, ijodiy fikrlash faoliyatlarini rivojlantirish omillari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: o'quvchi, o'qituvchi, pedagogika, usul, maqsad, vazifa, bilim, tizim, muammo, nazariya, faoliyat, ta'lim, diqqat, fikr.

Ta'limning uzluksizligini ta'minlash maqsadida, maktabgacha ta'limdan boshlab oliy ta'limgacha e'tibor kuchaytirilib, dastur va darsliklar yangilanmoqda, yangi-yangi dars o'tish usullari vujudga kelmoqda. O'qituvchilar ijodkorligi oshirilmogda, bu esa ta'lim-tarbiya borasida anchagina siljishni vujudga keltirdi. Noan'anaviy darslar: ertak, sayohat, musobaqa, bozor, sport, o'yin turlaridan foydalanib yaratilgan darslar yaxshi samara bermoqda. Bu o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirmogda, o'qituvchining ijodkorligini charxlab bormogda.

Xo'sh, zamonaviy boshlang'ich ta'limning o'zi nimadan iborat bo'lishi kerak?. Bola 1-4 sinflarda qanday bilimlarga ega bo'lishi lozim?. Bolalarda qachondan boshlab, qanday qilib, qanday usul va uslubda ta'lim berish kerak? Bu masalalarga javob topishimiz zarur.

Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasida boshlang'ich ta'limning maqsad va vazifalari aniq belgilab berilgan. Chunonchi: bolalarning ongi va tafakkurida mavjud bo'lgan yashirin imkoniyatlarni aniqlash va rivojlantirish kichik maktab yoshidagi bolalarda ta'limning dastlabki davridan boshlab yangi imkoniyatlarni o'quv materialini muvaffaqiyatli o'zlashtirishgagina emas, balki hayotiy muammolarni yechishga ham tayyorlaydi, o'quvchilarda o'rganish va ta'lim jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Mazkur maqsad va vazifalarni chuqur tahlil qilib, quyidagicha talqin qilish mumkin. Har bir bolada yashirin holda yuragining tubida biror narsaga qiziqish, intilish ya'ni boshqacha qilib aytganda, iqtidor kurtaklari bo'ladi, ularni aniqlash hamda rivojlantirish kerak. Bu jarayon esa juda murakkabdir. Ana shu murakkabligi bilan boshlang'ich ta'lim boshqa ta'lim bosqichlaridan ajralib turadi. Chunki boshlang'ich ta'limda fanlarning asosi "Alifbo" o'rgatiladi. Boshlang'ich ta'limda o'rgatiladigan fanlar alifbosi DTSda belgilab berilgan, shu asosida darslarda har bir o'quvchi o'zlashtirishi zarur bo'lgan bilimlar doirasi o'rgatiladi. Agar o'quvchi 4 yil mobaynida shu fanlar alifbosini o'zlashtira olmasa, u ta'limning keyingi bosqichida o'qishni davom ettira olmaydi. Demak, biz o'quvchilarning turli o'quv faoliyatlarini, usullarini o'zlashtirishlariga imkoniyat va shart-sharoit yaratib berishimiz lozim.

Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalarga tayangan holda quyida biz matematika darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil, ijodiy fikrlash faoliyatlarini rivojlantirish omillarini ko'rib o'tamiz.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'qituvchi har bir sinfda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqishlarini yaqindan bilishi hamda shu asosda darsni tashkil etish lozim: O'qituvchi misol va masalalarning yechimi shartini shunday usulda berishi kerakki, natijada ular bu jarayonda ijodiy izlansinlar. Masalan, o'qituvchi o'quvchilarning mustaqil bajarishlari uchun quyidagi masalaning qisqa yozuvini doskaga yozadi: 1-yashikda-20 kg olma : 2-yashikda -?5 kg ortiq olma.

Bu yerda o'quvchilar masala olma haqida ekanligini, ikkita noma'lum borligini, masalaning javobi qanday topilishini tezda tahlil qiladilar va natijani topadilar. Biz bu yerda o'quvchining fikrlashini ma'lum ma'noda chegaralab qo'ydik. Endi quyidagi qisqa yozuvni ko'raylik: 1-20 kg : 2-?5 kg ortiq. O'quvchilar mustaqil fikr yuritgan holda qanday narsalar massada o'lchanishini esga oladilar va sinfdagi 30 o'quvchi shu shart asosida 30 xil masala tuzishi, uni yechish namunasini berishi mumkin. Agar o'qituvchi shu kabi usullar bilan o'quvchilarda mustaqil ravishda masalalarni yechish ko'nikmasini shakllantira olsa, u holda o'quv faoliyatini yuqori darajaga ko'targan bo'ladi.

Bugungi kunda ta'lim muassasasi o'qituvchisi uzluksiz innovatsion izlanishda bo'lishi, fikrlashi, vaziyatga ko'ra o'z kasbiga bo'lgan munosabatlarini o'zgartirishi, shuningdek, boshqalarda ham



innovatsion g`oyalarni shakllantirish asosida faoliyat ko`rsatishi zarur.

O`qituvchilar bunday faoliyatga alohida tayyorgarlik ko`rishi kerak bo`lib, bu o`z navbatida o`qituvchilarning kasbiy qiziqishlari ko`lamini kengaytirishga, ya`ni ularning adabiyotlar o`qib o`rganishdan to nazariy psixologik-pedagogik va fundamental tadqiqotlar olib borishiga ham imkoniyatlar yaratadi. Yaxshi ilmiy-pedagogik tayyorgarlik innovatsion faoliyatning samaradorligini ta`minlaydi. Ta`lim mazmunini chuqur o`zlashtirish mustaqil tafakkurini shakllantiruvchi omil deb qaraymiz. Ushbu nuqtai nazardan o`quv faoliyatini yangi pedagogik texnologiya asosida tashkil etish nafaqat o`quv jarayonining samaradorligini oshirib qolmay, balki ijtimoiy zarurat talabidan kelib chiqqan holda demokratik, fuqorolik jamiyatining faol ishtirokchisini shakllantiruvchi omil bo`lib xizmat qiladi. Demak, ta`lim jarayoni asosida bola shaxsining erkin tafakkurini shakllantirish va ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularning ta`lim jarayonida faolligini oshirish har bir pedagogning diqqat e`tiborida bo`lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. S.Mirxayitova. Modulli texnologiya. Boshlang`ich ta`lim, T-2004.
2. L.Golish. Zamonaviy ta`lim texnologiyalari. «Xalq ta`limi», T-2000.
3. B.S.Abdullayeva boshqalar. Boshlang`ich ta`lim konsepsiyasi. T.: 2015.



BOSHLANG'ICH SINFLARDA NUTQ O'STIRISHNING AHAMIYATI

Raxmatova Nilufar Ozodovna

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani
12-son umumiy o'rta ta'lim maktabi
Boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining erkin fikrlay olishi, o'z gapini tushuntira olishi, aqliy faoliyati uchun nutqiy faoliyatning ahamiyatli jihatlari haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, nutq, savod, o'qish, ona tili, ta'lim, fikr, so'z.

Bugungi kunda milliy va umuminsoniy ruhda tarbiya topgan, yuksak ma'naviyatga ega, mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti yo'nalishini modernizatsiya qilish va zamonaviy demokratik jamiyat qurish yo'lidagi keng qamrovli vazifalarni hal qilishga qodir bo'lgan yangi avlod kadrlarini tayyorlash masalasi xalqimiz oldiga qo'ygan ulkan maqsadlarni amalga oshirishda muhim va asosiy vazifa hisoblanadi. Zamon talabidan kelib chiqib ta'lim tizimining maqsad va vazifalarini muvaffaqiyat bilan amalga oshirishda boshlang'ich ta'lim sohasiga chuqur mas'uliyat bilan yondashish talab qilinmoqda. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi o'quvchining savodini chiqarish bilan birgalikda ularning dunyoqarashini ham shakllantirib boradi.

Insonlar hayotida nutqning ahamiyatliligi shundaki, unda kishining o'y-fikrlari shakllanadi va mavjud bo'ladi. Nutq va tafakkur ishtirokida borliqni umumlashgan holda mavhum aks ettirish, individuallik doirasidan chiqib jamoatchilik mahsuliga aylanadigan mantiqiy tushunchaviy fikrlash mumkin bo'ladi. Nutq kishi ruhiyatining boshqa jihatlari, uning sezgilari, idroki, xotirasi, o'y xayollari, hissiyoti, irodasi va boshqalarning namoyon bo'lishi va amal qilishida, kishi ongining rivojlanishida ham muhim ahamiyatga ega. Maktabda o'quvchilar nutqini o'stirish ona tili o'qitishning asosiy vazifasi deb qaraladi. Nutq o'stirish faqat ona tili va o'qish darslaninggina emas, balki o'quv rejasidagi barcha fanlarning, shuningdek, sinfdan tashqari o'tkaziladigan tadbirlarning ham asosiy vazifasidir. Avvalo, bolaga nutq o'stirishdagi dastlabki poydevor 1-sinfdan alifbe darslarida qo'yiladi. Tovushlarni aniq talaffuz qilib, bo'g'inlarni birlashtirib so'zning yozuvdagi ifodasini o'qiyotgan o'quvchiga asta-sekin mustaqil ravishda matnlarni o'qish va uni nutqida ifodalash o'rgatilar ekan, bu nutq o'stirish va savod chiqarish jarayonlarini bir-biri bilan bog'liq holda birgalikda amalga oshirib borishni taqazo etadi. O'quvchida o'qish savodxonligi yaxshi amalga oshirilmas ekan bu nafaqat bola nutqining mukammal bo'lishi, bora-bora boshqa fanlarni o'zlashtirilishida ham salbiy ta'sir ko'rsatishini aytib o'tish lozim. Ertak, hikoya, yirik she'rlar, ilmiy ma'lumot, umuman olganda, o'quvchi uchun katta hajmdagi matnlarni o'qish birmuncha qiyinlashib boradi, ya'ni matnni o'qish davomida bolaning diqqat kuchi voqelikni tasavvur qilishga emas, o'qilayotgan so'zni tushunishga qaratilgan bo'ladi. Bo'g'inlab yoki juda sekin o'qilayotgan so'zning nima ekanligi anglangunga qadar gapning eng avvalidagi so'zni o'quvchi unutib qo'yadi. Unutilgan so'zlarsiz esa gapni yaxlitligicha tasavvur etib bo'lmaydi. Tasavvur qilmas ekan bola uchun o'qish jarayoni tushunarsiz va zerikarli holatga aylanib boradi. Tabiiyki, bu holatlar o'quvchining bilim olishidan, kitobdan uzoqlashishiga sabab bo'ladi. O'quvchining istiqbolli kelajagiga salbiy ta'sir qiladigan mana shunday xatolarga sabab bo'luvchi kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etishda o'qituvchilar va ota-onalardan ta'lim-tarbiyaga doimiy sinchkov nazorat bilan yondashish talab qilinadi.

Ona tili o'qitish metodikasi darsligida nutq o'stirishda quyidagi uch yo'nalish aniq belgilab qo'yilgan: 1) so'z ustida ishlash; 2) so'z birikmasi va gap ustida ishlash; 3) bog'lanishli nutq ustida ishlash. Bu yo'nalishlar parallel ravishda olib boriladi: lug'at ishi gap uchun material beradi; so'z, so'z birikmasi va gap ustida ishlash bog'lanishli nutqqa tayyorlaydi. O'z navbatida, bog'lanishli hikoya va insho lug'atni boyitish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Matematika darslarida ham bolalar yangi tasavvur va tushunchalar, juda ko'p so'z va atamalar bilan o'z nutqini boyitadilar, sodda va qo'shma gap tuzishni o'rganadilar: besh soni uch sonidan katta ($5 > 3$) yoki uch soni besh sonidan kichik ($3 < 5$); bitta o'nlikka ikkita o'nlik va beshta birlikni qo'shsak, uchta o'nlik va beshta birlik hosil bo'ladi ($10 + 25 = 35$).

Ona tili darslarida ichki va yozma nutqni rivojlantirish, o'quvchilar lug'atini ma'nodosh, shakldosh, zid ma'noli so'zlar bilan boyitish uchun keng imkoniyat mavjud. Grammatikani



o'rganish va o'qish darslarida o'quvchilar bajaradigan so'z birikmasi, gap tuzish, bayon, inshoga doir turli xil mashqlar nutqiy malakalarni egallashda yordam beradi. Bu darslarda tilni maxsus o'rganish bilan bolalar alohida tovush, bo'g'in, so'z va gapni eshitishga va talaffuz qilishga o'rganadilar. Ular narsa, harakat bildiradigan ko'pgina so'zlarni, shuningdek, tovush, harf, bo'g'in, so'z, o'zak, qo'shimcha, so'z turkumi, ot, sifat, son, fe'l, olmosh, ravish, gap, darak gap, so'roq gap, undov gap, gap bo'laklari singari juda ko'p yangi atamalar bilan tanishadi. Oldindan o'z nutqida ishlatib kelayotgan, nutq ta'sirchanligini oshiruvchi vositalarni farqlaydi va ularni nutqida to'g'ri qo'llashni o'rganib boradi.

O'qish darsi va u bilan olib boriladigan kuzatish, ekskursiya o'quvchilarga tabiat hodisalari kishilar hayoti va mehnati, ular bilan muomala qilish haqida bilim beradi. Darslardagi badiiy asrlarni o'qish, o'qilganlarni qayta hikoya qilish, ekskursiyada predmet va tabiat hodisalarini kuzatish vaqtida ko'rganlarini hikoya qilish ularning og'zaki nutqini o'stiradi. O'qish darslarida nutq o'stirish jarayonini qiziqarli holatga aylantiruvchi sinfdan tashqari o'tkaziladigan mashg'ulotlarda o'qilgan mavzular asosida o'quvchilar o'zlarining ijrosidagi spektakllarni tayyorlashi nutq jarayonidagi erkinlikning, ta'sirchanlikning oshishi, shu bilan birga kutilmagan nutqiy vaziyatlardan oson chiqib keta olishni o'rganishda juda qo'l keladi.

Umuman olganda, chiroyli so'zlashni, savodli, to'g'ri yozishni, o'z fikrini ravon va aniq bayon etishni bilmagan o'quvchi bilimlarni muvaffaqiyat bilan o'zlashtira olmaydi. Bolaning aniq, ravshan, mantiqiy ma'noga ega bo'lgan og'zaki va yozma nutqi uning aqliy rivojlanishi belgisi hisoblanadi. Shu boisdan nutqning rivojlanishi bolalarni tarbiyalashning umumiy tizimida muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'quv jarayonining muvaffaqiyatli amalga oshishida yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. K.Qosimova va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi.
2. Boshlang'ich sinf darsliklari.
3. www.uzedu.uz



BOSHLANG'ICH SINFDADA ONA TILI O'QITISH METODIKASI TAMOYILLARI

Safarova Nafisabonu Hojiqurbonovna

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani
12-son umumiy o'rta ta'lim maktabi
Boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda ona tili mashg'ulotlari turi, mazmuni va ona tili o'qitish metodikasi tamoyillar haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: ona tili, boshlang'ich sinf, bilim, ko'nikma, metod, tamoyil.

Ona tili – nutq, o'qish va yozish sohasidagi ko'nikma va malakalar o'quvchilar o'quv mehnatining zaruriy sharti va vositasi hisoblanadi. Bola o'qish ko'nikmalarini egallash bilan birinchi navbatda, o'z ona tilini o'rganishi zarur. Chunki ona tili bilimdonlikning, aql-idrokning kalitidir. Ona tili boshqa fanlarni o'qitish vositasi hamdir, jamiyat tarixi ham, tabiiy fanlar ham ona tili yordamida o'rganiladi. Demak, ona tili bolaning umumiy kamol topishida ham, bilim va mehnatga havasini uyg'otishda ham alohida rol o'ynaydi. Til muhim tarbiya vositasidir. Badiiy adabiyotlarni, gazeta, jurnallarni o'qigan bola o'zida eng yaxshi xislatlarni tarbiyalab boradi. Muomala madaniyatini egallaydi. Ona tili boshlang'ich sinfdada asosiy o'rinni egallar ekan, har bir o'quvchida ona tiliga qiziqish va muhabbatni tarbiyalash zarur.

Boshlang'ich sinflarda ona tili mashg'ulotlari turi va mazmuni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. O'qish, yozuv, grammatik materialni o'rganish, kuzatishlar hamda o'quvchilarning ijtimoiy faoliyatlari bilan bog'liq holda ularning og'zaki va yozma nutqini o'stirish.

2. Birinchi sinfga kelgan bolalarga savod o'rgatish, ya'ni ularni elementar o'qish va yozishga o'rgatish, bu kamchiliklarni malakaga aylantirish.

3. Adabiy til normalarini, ya'ni imloviy va punktuasiyasi savodli yozuvni, orfoepik to'g'ri talaffuzni o'rganish nutq va uslubiy elementlarni egallash.

4. Grammatika, fonetika, leksikadan nazariy materiallarni o'rganish, tildan ilmiy tushunchalarni shakllantirish.

5. O'quvchilarni o'qish va grammatika darslari orqali badiiy, ilmiy-ommabop va boshqa adabiyotlar namunasi bilan tanishtirish, ularda adabiy asarni idrok etish ko'nikmasini hosil qilish.

Ona tili o'qitish tamoyillari 5 ta:

1. Til materiyasiga, nutq organlarining o'sishiga, nutq malakalarining to'g'ri rivojlanishiga e'tibor berish tamoyili. Nutq, til qonuniyatlariga, oz bo'lsa-da, e'tibor bermaslik amaliy nutq faoliyatini egallashga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, fonetik ko'nikmalarga yetarli e'tibor berilmasa, imloviy savodxonlikka putur etadi. Bu ta'lim tamoyili tildan olib boriladigan mashg'ulotlarda eshituv va ko'ruv ko'rsatmaliligini ta'minlashni va nutq organlarini mashqlantirishni (gapirib berish, ifodali o'qishni ichida, gapirishni) talab etadi.

2. Til ma'nolarini (leksik, grammatik, morfemik, sintaktik ma'nolarini) tushunish tamoyili. So'zni, morfemani, so'z birikmasini, gapni tushunish borliqdagi ma'lum voqea-hodisalar o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash demakdir. Til ma'nolarini tushunish tamoyiliga amal qilishning sharti tilning hamma tomonlarini, tilga oid barcha fanlar (grammatika, leksika, fonetika, orfografiya, stilistika) ni o'zaro bog'langan holda o'rganish hisoblanadi. Masalan, morfologiyani sintaksisga tayangan holdagina o'rganish, o'zlashtirish mumkin. Sintaksisni o'rganishda esa morfologiyaga suyaniladi, orfografiya, fonetika, grammatika, so'z yasashiga suyanadi va h.k. So'zni morfemik tomondan tahlil qilish uning ma'nosini tushunishga yordam beradi. Tilning hamma tomonlari bir-biri bilan o'zaro bog'langan bo'lib, o'qitishda buni albatta hisobga olish kerak.

3. Tilga sezgirlikni o'stirish tamoyili. Til – juda murakkab hodisa, uning tuzulishini, sistemasini fahmlab olmay turib, sal bo'lsa-da, uning qonuniyatlarini, o'xshashliklarini o'zlashtirmay turib uni yodda saqlab bo'lmaydi. Bola gaplashish, o'qish, eshitish bilan til materiallarini yig'adi, uning qonunlarini o'zlashtiradi. Natijada kishida tilga sezgirlik (til hodisalarini tushunish) xususiyati shakllanadi; tilni egallash mumkin emas.

4. Nutqning ifodaliligiga baho berish tamoyili. Bu tamoyil til hodisalarining tushunmay turib savodli yozish, nutq madaniyati vositalarining xabar berish funksiyasini tushunish bilan bir qatorda, uning ifodalilik (uslubga oid) funksiyasini tushunishni, mazmuninigina emas, balki so'z va nutq oborotlarining, tilning boshqa badiiy-tasviriy vositalarining hissiy ottenkalarini ham tushunishni



ko'zda tutadi. Bu tamoyilga amal qilish uchun birinchi navbatda, badiiy adabiyotlardan, shuningdek, tilning funksional-stilistik xususiyatlari aniq ifodalangan boshqa matnlardan foydalanish talab etiladi.

5. Og'zaki nutqni yozma nutqdan oldin o'zlashtirish tamoyili. Bu tamoyil ham kishi nutqining rivojlanishiga ta'sir etadi va til o'qitish metodikasini tuzishda xizmat qiladi.

6. Metodika tamoyillari, didaktika tamoyillari kabi, o'qituvchi bilan o'quvchining maqsadga muvofiq faoliyatini belgilashga, ularning birgalikdagi ishlarida qulay yo'nalishini tanlashga yordam beradi, metodikaning fan sifatida nazariy asoslash elementlaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarda yozma va og'zaki nutqni shakllantirish hamda rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda har bir pedagog yuqoridagi tamoyillar asosida faoliyat olib borishi lozim bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qosimova K, Fuzailov S, Ne`matova A. Ona tili 2-sinf.
2. Fuzailov S, Xudoyberganova M, Yo'ldosheva Sh. Ona tili 3-sinf.
3. Ikromova R, G'ulomova X, Yo'ldosheva Sh, Shodmonqulova D. Ona tili 4-sinf.



ОНА ТИЛИ ВА О'QISH SAVODXONLIGI FANIDAN DTS, О'QUV DASTURLARI VA BAHOLASH MEZONLARI

Nurmetova Sayyora Jabbarovna
Urganch shahar 18-maktab o'qituvchisi
Telefon:+998974597694

Kalit so'zlar: DTS, o'quv dasturi, o'quv rejasi, darslik, kompetensiya, ona tili darslari, natija, samaradorlik, hamkorlik.

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi fanidan DTS o'quv dasturlari va baholash mezonlari o'rganib olmasdan balki ular faoliyatini natijalarini ongli ravishda taxlil qilish.

Davlat ta'lim standartining maqsadi:

Umumiy o'rta ta'lim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, ma'naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat.

- Davlat ta'lim standartining vazifalari:

- milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida o'quvchilarni tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;
- o'quv-tarbiya jarayoniga pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;
- umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'quvchilari va bitiruvchilarining malakasiga qo'yiladigan talablarni belgilash;
- davlat ta'lim standartlari talablarining ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo'yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash.

Boshlang'ich sinflar ona tili ta'limi o'quvchilarda nutq faoliyatining asosiy turlarini o'stirish bilan bir qatorda, quyidagi muhim masalalarni hal etishni ko'zda tutadi:

Boshlang'ich sinflarda ona tilidan beriladigan bilimlar mazmunini o'zbek tilining tovush tuzilishi va yozma nutqda tovushlarni ifodalash usullari haqidagi, so'zlarning o'zgarishi va gapda so'zlarning bog'lanishi haqidagi, so'zlarning morfemik tarkibi va so'z yasalishi, so'zlarning leksik - semantik guruhi haqidagi, o'zbek tilining to'g'ri yozuv qoidalari va tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi bilimlar tashkil etadi. Berilgan bu bilimlar o'quvchilar nutqini o'stirishga xizmat qiladi.

Maktabni bitirib chiqqan yoshlar ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotning rang - barang jabhalarida, muloqot va munosabatning barcha turlarida o'zbek tilidan bemalol - erkin, samarali va to'g'ri foydalana olish, uning cheksiz imkoniyatlaridan to'laqonli bahramand bo'lish, zaruriy ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari kerak.

«Ona tili» darslarida o'quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo'naltirish lozim. Shuning uchun o'quv dasturi va u asosida yaratiladigan darsliklarda grammatik qoidalarni yodlatishdan voz kechish, ijodiy tafakkur tarzini shakllantirish, dars va mashg'ulotlarni o'quvchilarning nutqiy malakasini yuzaga keltirishga qaratish maqsad qilib olindi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ona tili fanini o'qitishning maqsadi - o'quvchilarda og'zaki va yozma nutq ko'nikmasini, ijodiy fikrlash malakasini, kitobxonlik va nutq madaniyatini rivojlantirishdan iborat.

Ona tili fanini o'qitishning asosiy vazifasi: o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'z g'ayri fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish; o'quvchilarda grammatikaga oid shakllantirish va rivojlantirish hamda ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda o'qigan, ko'rgan, eshitganlarini nutqiy to'g'ri va ravon bayon eta olish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.

Ona tili fanining o'quv dasturi o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan Davlat ta'lim standarti talablaridan kelib chiqib tuzilgan. O'quv dasturida o'quvchilarda fanga doir nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni hamda tayanch kompetensiyalarning elementlarini shakllantirish ko'zda tutilgan.

Boshlang'ich ta'limda - o'quvchilarning savodxonligini ta'minlash, og'zaki va yozma nutqida adabiy nutq me'yorlariga rioya qilishni shakllantirishdan iborat.



Boshlang'ich ta'limda – o'quvchilarning savodxonligini ta'minlash, og'zaki va yozma nutqida adabiy nutq me'yorlariga rioya qilishni shakllantirishdan iborat.

Boshlang'ich ta'lim ona tili o'quv dasturi quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

1. *Savod o'rgatish va nutq o'stirish.*
2. *Fonetika, grammatika, imlo va nutq o'stirish.*

Savodga o'rgatish jarayoni ikki davrda: alifbegacha tayyorlov va alifbe davriga ajratiladi. Savodga o'rgatishning tayyorgarlik va alifbe davrida ta'lim tahlil-tarkib tovush usulida amalga oshiriladi. Bunda o'quvchilar nutqini yangi so'zlar hisobiga boyitishga alohida e'tibor qaratiladi.

Shuningdek, 1-4-sinflarda "Ona tili" fani chuqur o'rganiladigan ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini takomillashtirish, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, o'quvchilardagi qobiliyat va iste'dodni yanada kamol toptirish uchun ixtisoslikka yo'naltirilgan o'quv dasturi kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv dasturiga moslashtirildi. Bunda yillik o'quv soatlari A1 bosqichda 608 soat bo'lsa, A1+ bosqichda esa 680 soatni tashkil etadi.

Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarda fanga oid kompetensiyalar bilan birgalikda tayanch kompetensiyalarning shakllantirilishi belgilab berilgan. Bunga ko'ra, "Ona tili" fanini o'qitish jarayonida 1-4-sinf o'quvchilarida quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantirilib boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <http://ziyonet.uz> - jamoat axborot ta'lim portali.
2. <http://uz.infocom.uz/2016/11/19/globallashuv-davrida-yoshlar-media-savodxonligini-oshirishning-ahamiyati/>



O'QISH DARSLARIDA MUAMMOLI VAZIYAT YARATISH VA UNI YECHISHNING USULLARI

Sharopova Gulnoza Yusupovna
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani
12-son umumiy o'rta ta'lim maktabi
Boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qish darslarida muammoli vaziyat jarayonlarini hosil qilish va uni yechishning yo'l yo'riqlari haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich, o'qish, muammo, ta'lim, vaziyat, muammo yaratish, tahlil qilish, muammoli vaziyat yaratish.

Boshlang'ich ta'limdagi o'qish darslari o'quvchilarining fikrlash faoliyatida muammoli vaziyatlarning shakllanishi ularning shaxsida qiziquvchanlik, o'tkir zehnlilik, mustaqillik, o'qishga qiziquvchanlik va ijodga intilish kabi fazilatlarini tarbiyalaydi.

Boshlang'ich ta'limda muammoli vaziyatning har xil turlari bo'lishi mumkin. Boshlang'ich sinfda dars beradigan o'qituvchilar bolalarda qiziquvchanlik va qiziquvchanlikni tarkib toptiradigan topishmoqlarni, zehnlilik o'tkirlashtiradigan hikoya va tegishli jumboqlarni ko'p vaqtlardan buyon qo'llaydilar. Bunday hollarda muammoli vaziyat topishmoqlar mazmunining o'zida, shuningdek, bolalarda savolni va shu savolga javob topish istagini vujudga keltiradigan yo'sinda tuzilgan topshiriqlarda beriladi. Bola to'g'ri javob uchun o'zidagi bilimlar yetarli ekanini tushunadi. U mashqda berilgan muammoni hal qila olishni, buning uchun nima haqida gap borayotganini tasavvur etish va fikrlashning to'g'ri yo'nalishini topish kerakligini his qiladi. Zehn va topqirlikni o'stiradigan topishmoqlar hamda hikoyalar o'quvchilarining mantiqan to'g'ri fikrlashga, ular uchun tushunarli faktli material yuzasidan fikr yuritishning qiziqarli tizimini topishga o'rgatadi.

O'qitishning har qanday metodi bolaning ongida muammoli vaziyatlarni shakllantirish bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shunday hollardagina muammoli ta'lim haqida gap boradi. Aslida har qanday ta'lim o'qituvchi uchun ham o'quvchi uchun va jamiyat uchun ham muammodir.

Muammoli vaziyat o'quvchilarining ma'lum psixik holatidir. Bunday holat ma'lum topshiriqni bajarish, savolga javob topish jarayonida ziddiyatni anglash tufayli vujudga keladi. Ana shu ziddiyatni anglash mavzularni, topshiriqlarni bajarish usuli yoki shartlari to'g'risidagi yangi bilimlarni izlash ehtiyojini uyg'otadi.

Muammoli vaziyat muammodan farqli ravishda unga o'quvchini jalb etishdan iboratdir.

A.M.Matyushkin yozganidek: "Muammoli savol o'zlashtirilgan bilimlar asosida yoritish mumkin bo'lgan ma'lum qonuniyatlar yoki harakat usullarini belgilash sohasidir".

Muammoli ta'lim ta'limning boshqa tizimlari va metodlariga tamoman zid emas. Uning xususiyatlari ta'lim jarayonining ma'lum bosqichida—yangi bilimlarni o'rganish jarayonida—yangicha faoliyat ko'rsatish shartlari hamda usullarini o'rganish bilan xarakterlanadi. O'qish darslarida to'rt usulda muammo yaratish mumkin.

1. Voqealarni tahlil qilish asosida muammoli vaziyat yaratish. Hodisalarini kuzatish tahlilning samarali shakli sanaladi. Bu usul yordamida muammoli vaziyat yaratish uchun o'quvchilardagi mavjud bilimlarga asoslanib, noma'lum muammoni aniqlashni ularning o'zlariga topshirish mumkin.

2. Voqealarni qarama-qarshi qo'yish va taqqoslash asosida muammoli vaziyat yaratish. Taqqoslash, ayniqsa, o'qish ta'limida muhim o'rin egallaydi. Bu usul orqali voqealaridagi o'xshash va farqli tomonlar aniqlanadi.

3. Hodisalarini umumlashtirish orqali muammoli vaziyat yaratish. Umumlashtirish aqliy faoliyatning eng murakkab usuli bo'lib, u induktiv yo'l bilan o'qitishga asoslanadi. Induktiv yo'l esa hodisalarini kuzatish, tahlil qilish, guruhlash kabilar asosida umumlashmalar hosil qilish demakdir. O'quvchi berilgan matnlarni kuzatib tahlil qilgach, muammoni yechishga tayyor bo'ladi.

4. Berilgan matnning mazmunidan kelib chiqib, muammoli vaziyat yaratish. O'qituvchi



darslikda berilgan yoki o‘zi tanlagan matnni o‘qitib, shu asosida ham muammo qo‘yishi mumkin.

Hozirgi kunda barcha pedagoglar uchun eng dolzarb vazifa PIRLS xalqaro tadqiqotlariga o‘quvchilarni tayyorlash jarayonida muammoli ta‘lim eng samarali o‘qitish usullaridan biridir. O‘quvchi tayyor ma‘lumotdan foydalanishdan farqli ravishda voqealarni tahlil qiladi, bir-biriga qarama-qarshi qo‘yadi, taqqoslaydi, umumlashtiradi va yechimlar izlab topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Matchonov S, G‘ulomova X Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish. Toshkent “Yangi yo‘l” nashriyoti 2008

2. G‘afforova T, Nurullayeva Sh. Boshlang‘ich sinflar uchun ona tili va o‘qishdan didaktik materiallar. Toshkent. “Ilm ziyo” nashriyoti 2004



KIMYO FANIDA INTERFAOL TA'LIM VA UNING IMKONIYATLARI.

Tosheva Dilchiroy Bo'ronovna

G'ijduvon tuman 45-IDUMI kimyo fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola kimyo fanini o'qitishning muammolari va usullari va innovatsion usullarning ta'siri haqida ma'lumot beradi.

Kalit so'zlar: kimyo, o'qitishning o'qitish usullari, innovatsiyalar.

Hozirgi vaqtda o'qitish o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirish, tanlagan sohasi (mutaxassisligi) bo'yicha bilimlardan ijodiy foydalanish va yangi ko'nikmalarni mustaqil ravishda o'zlashtirish qobiliyatini shakllantirish jarayonida dolzarb masalalardan biridir. O'quvchilarning ijodiy faoliyatida rivojlanishi uchun ular o'quv jarayonida faol ishtirok etishlari kerak. Quyidagi usullar bo'yicha muammoli vaziyatlarni xulosa qilish:

- ziddiyatli vaziyatni hal qilish va uni mustaqil echishni o'quvchilarning o'zlari taklif qilishgan;
- savolga qarash uchun boshqa nuqtai nazarni tavsiflaydi;
- mojaroni hal qilish;
- o'quvchilarga vaziyatni taqqoslash, dalillarni umumlashtirish, xulosa chiqarish va taqqoslash taklif etiladi;

- aniq savollar (ommabop, asosiy, tizimlashtirish, mantiqiy va badiiy nuqtai nazar);

Kimyo o'quvchilari fanning mazmuni va tuzilishini o'qitishda ushbu usuldan foydalanishlari mumkin. Fanning fundamental muammolariga tegishli ilmiy savollarga kelsak, ular quyidagilarga bo'lingan: (molekulalarning tuzilishini, kosmosning tuzilishini, elektronikani aniqlash uchun); ularning tuzilishi va xossalari bog'liqlikning amaliy qiymati bo'lgan moddalarning xususiyatlari; Mineral va tabiiy xom ashyoni olishning turli usullari.

O'quv jarayonida organik birikmalar va birikmalarning ba'zi sinflari xususiy bo'lib, yuqoridagi muammolarning aniq muammosi bilan bog'liq.



Darsning bir qismida quyidagi muammo tug'iladi: organik moddalar va hayotning xilma-xilligi bunga juda muhim sababmi? Organik kimyo bu murosaning asosiy muammosi bo'lib, so'nggi o'quv masalalari hal qilindi. "Organik moddalar vazifalarining kimyoviy tuzilishi nazariyasi yanada aniqroq", mavzuni o'rganish. Tinglovchilarda birinchi marta moddalar tarkibi bilan ularning oldingi nazariy tushunchalardan uglerod valentligini kiritish tuzilish nazariyasining qarama-qarshiligiga va shu tariqa o'rganilayotgan muammolarning echimini izlashga olib keladi. U ularga o'qituvchi o'quvchilarni ushbu muammoni hal qilishga yo'naltiradi, deb tushuntirdi va muammoni xulosa qilib, ularga javoblarni tinglash muammoni hal qilishning yo'li deb xulosa qilish mantiqan. O'quvchilar organik kimyo nazariyasining asosiy qoidalarini o'rganib chiqqandan so'ng, asosiy vazifa - bu butun dars davomida moddalar tarkibi va xususiyatlariga bog'liqligi sababli muammo hal qilinadi. Masalan, to'yinmagan uglevodorodlar qator muammolarni aniqladi. eng muhim muammoning mavzusi moddalarning yangi tuzilishi va ularning xususiyatlari qanday shakllanishi. Etilen molekulasini formulasi bilan uglerod atomi va to'rt uglerod atomi tomonidan aniqlangan molekulyar massa vodoroddan iborat va aniqlangan molekulaning tarkibiy, fazoviy va elektron tuzilishi bilan qarama-qarshilikka olib keladi. O'qituvchi muammoning echimini tushuntiradi.

Barcha organik uglerod birikmalari to'rt valentli va etilen tuzilishga ega bo'lishi kerak,



shuning uchun muammo mavjud. Moddalar xususiyatlarining individual kimyoviy aloqalarini hisoblash savolni tug'diradi: qanday qilib? Etilendan oldin, etilen ilgari o'rganilgan to'yingan uglevodorodlar bilan taqqoslanadi: tabiat metanga o'xshashmi yoki u erda homologiya bormi? Bu savol edi. ba'zi o'quvchilarga etilen, etan haqida eslatib o'tiladi, chunki ular teng miqdordagi uglerod va to'rt valentga ega. Boshqa o'quvchilar etilen bilan to'yingan xususiyatlarning tuzilishi va fazoviy tuzilishidagi farqlarga ko'ra uglevodorodga bo'lgan ishonchdan farq qiladi. Ulardan biriga bog'langan bog'ni sharhlaydigan uglerod atomlari sizning jagingizni buzishi mumkin va bu juda oson. Tetravalent uglerod etilen molekulasini va boshqa uglerod birikmalarini saqlaydi. Shunday qilib, ikki xil nuqtai nazar, dedi u: etanning etilen xususiyatlari o'xshash, ammo boshqacha. Qanday qilib haqiqat bo'lishi mumkin? Shuningdek, o'quvchilarga etilen metan bilan ishlash bo'yicha tajriba taklif etiladi. Bromning suv va kaliy permanganat bilan reaksiyalari tajriba natijasida ko'rsatilgan, to'yinganlik xususiyatlari uglevodorodga bo'lgan ishonchdan farq qiladi. Etilen, kimyoviy xususiyatlar va harakatlar tugallanishi uchun muhokama qilinadi. Keyin o'quvchilarga: etilen, u qayerda qo'llanilishi mumkin? ishlatiladigan moddalar xususiyatlari bilan muammoga bog'liq. O'quvchilar dixloretan, polietilen, etilen etilxloriddan foydalanadilar. Etilen halogen, vodorod va kimyoviy reaksiya tenglamasining gomologlari noaniq echimning xulosasidan iborat bo'ladi.

Misol uchun "blits-request" usuli uchun. Ushbu usulda o'quvchilarga tezkor savollar beriladi. Bu savollarning barchasi aniq javobni talab qiladigan savollardir.

1. Korozif kislota (formik kislota).
2. Ham kislota, ham aldegid (formik kislota) bo'lgan moddani aniqlang.
3. Butan - bu kislota (yog 'kislota) ning yana bir nomi.
4. Sintetik tolalarni ishlab chiqarishda ishlatiladigan karbonat angidrid gazi (Dimetilformamid).
5. Aspirinni qabul qilishda ishlatiladigan karbonat angidrid? (Sirka kislota).
6. Karbonat angidrid litmus testini qanday rangda o'zgartiradi? (Qizil).
7. Kislotalarning kuchini pasaytiradigan bu omil nima? (Radikallarning kombinatsiyasi soni).
8. Karbonat angidridning qaynash nuqtasi nima uchun yuqori? (Vodorod).

U quyidagi savolni tug'diradi: uglerod va vodorod atomlaridan qaysi birini halogen deb hisoblaysiz? Markovnikov qoidasiga muvofiq S molekulasida elektron zichligini taqsimlash yakunlandi. Natijada, organik kimyo kursi, aniq muammolar, kuzatuv tufayli muammoni hal qilishdan oldin. Asta-sekin, asta-sekin o'quvchilar yangi muammolarning o'ziga xos tomonlarini ko'rishlari mumkin, keyin faol bo'lib o'sadilar. Muammoni hal qilishda o'quvchilarni jalb qilish darajasi va muammosi farq qiladi. Birinchi sinfda o'quvchilar hali mustaqil ishlash uchun etarlicha bilimga ega emaslar, o'qituvchi muammoning ichki qarama-qarshiliklarini, taxminlar, munozaralar, tajriba haqiqatga, mutlaqo muammoli bo'lgan mavzuga asoslanganligini isbotlaydi. Keyin muammolarni hal qilishda o'quvchilarning

Ba'zi tadqiqot usullari kurslarda qo'llaniladi. Umumiy kimyo darslarida muammoni hal qilish sifati va samaradorligini oshirishning kaliti bu ta'lim mazmunidan foydalanishda moslashuvchanlikdir va o'quvchilar muammoni hal qilish uchun tayyorgarlik jarayoniga ishonishlari kerak.

Adabiyotlar:

1. J. Yo'ldoshev. Bizning mashg'ulotlarimiz mustaqillik sari. - Toshkent: (Vostok), 1996 yil.



COMMUNICATIVE COMPETENCE IN YOUTH SOCIALIZATION

Xidirboyev Umar Xasan o'g'li
МВНА-1 master degree student,
Tashkent State Transport University

Annotation: The article shows the current level of foreign language learning among young people and the impact of reforms in Uzbekistan on the competitiveness of the youth. Important aspects of learning a foreign language are expressed in the examples of folklore, in addition to content analysis based on the views of scientists, poets and theorists who lived and worked in different periods. The impact of learning a foreign language on the youth's competitiveness is analyzed on the basis of statistical data based on various arguments on teaching foreign languages in New Uzbekistan. Moreover, based on the results of the study, conclusions are presented.

Keywords: communicative competence, foreign language, social phenomenon, level of development, word meaning, social process, language lexicon, means of communication, cultural norm, communication skills.

According to the EF English Proficiency Index of the International Education Company, in 2020 Uzbekistan ranked the 88th out of 100 countries in the world with 430 points and the 19th among 24 countries in Asia [1]. According to the results, the ability of Uzbek people to speak English is better than in neighboring Central Asian countries such as Kazakhstan and Kyrgyzstan, Tajikistan. However, this level cannot be considered high. Given the continuing social development and the rapid development of various sectors, the complex situation in the world due to the COVID-19 pandemic, the dynamic nature of supply and demand in the international labor market and the growing factors affecting youth competitiveness, show that the formation is relevant.

Psychologist Gustav Lebon writes, "When we study a particular language, we see that even though the words themselves do not change very often, the images and perceptions that these words produce are constantly changing". "Time is a key factor in changing the meaning of words"[3.88] he said. However, the factor of ethnicity can also play a role here, i.e. a word can have different meanings among different people at the same time. It takes a lot of travel to learn the different meanings of the same words used by two nations, so I'm not claiming to know anything about it"[3.91] but pays little attention to relativity in social processes. Because social processes take on a complex appearance, and as a result of modern social development, different concepts are interpreted differently in different nations, but the common aspect in them is related to its transformation. That is why one of the great philosophers of his time, Voltaire, said, "Knowing many languages means having many keys for one lock"[7.257]. This means that multilingualism is supported by all scholars and is valued as a factor to the social progress as Victor Hugo writes, "Social progress is also a way of human lifestyle"[7.422].

It is known from the theory and history of sociology that language is the main means of communication between people. For this reason, there are many definitions of communication in the sources. For example, communication is "the transfer of information, ideas, evaluations or feelings from one person (or group) to another (or others) based on signs"[2], while in some sources "communication is a system and process of interaction in a broad sense"[4]. Another source says, "Communication is the transmission of information in different interpersonal and mass media through different channels using different means of communication (verbal, non-verbal, etc.) socially conditioned process of perception"[5]. In our view, the latter definition can express the essence of communication as a social phenomenon. After all, the main focus in communication is on the impact of information, and it embodies a range of approaches. Communication consists of a complex system of relations such as individual-individual, individual-social environment-society, individual-social group-society and subject-object.

Communicative competence – possessing complex communicative skills and abilities, formation of sufficient skills of new social structures, knowledge of cultural norms and restrictions of communication, customs, etiquette, education, means of communicational orientation's knowledge, national, class mentality and it's expressed by professions.

Communicative competence [6.704] is a general communicative trait of an individual that includes communication skills, knowledge, abilities, emotional and social experience in the field



of business communication.

The concept of communication is expressed at two levels: simple and at the level of scientific understanding of this phenomenon. At its simplest level, communication is understood as the ability to make any kind of communication. For example, the phrase “communicative person” is understood as a characteristic of a person who is able to communicate quickly and easily with people, find mutual understanding with them, and is open to communication and relations [8]. Based on it, both the communicative process itself and its participants are identified. Communicative action, on the other hand, is the final process of semantic interaction that takes place without changing the participants in the dialogue.

References

1. <https://www.ef.com/wwen/epi/regions/asia/uzbekistan/>
2. Theodorson S.A., Theodorson A.G. A Modern Dictionary of Sociology. N.Y.: Cassell, 1969.
3. Gustav Lebon. Public psychology. / Translator R. Kudratov. – Tashkent “Yoshlar matbuoti”, 2021. – 176 p.
4. Sharkov F.I. The main communication theory. M., 2002.
5. Конечкая В.П. Социология коммуникации. - М., 1997.
6. Uzbek national encyclopedia. Zebiniso-Konigil. - Tashkent: 2002. - 704 p.
7. 11 French scholars. A.H.Saidov. Translator L.Isokov – Tashkent: “Yangi asr avlodi”, 2013. – 552 p.
8. Rakhmonov DA (2017) THE SOCIAL-CULTURAL PECULIARITIES OF SOCIAL WORK (IN THE MODEL OF SERVICING OLDER PEOPLE). // ISJ Theoretical & Applied Science, 11 (55): 285-288. Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2017.11.55.38>



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING OG'ZAKI VA YOZMA NUTQINI O'STIRISH

Yo'ldosheva Oydin Ramazonovna

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani
12-son umumiy o'rta ta'lim maktabi
Boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilar og'zaki va yozma nutqini o'stirishning muxim xususiyatlari haqidagi ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: nutq, tafakkur, aktiv, emotsional, gradatsiya, diksiya, talaffuz, grammatika.

*Qancha ko'p bilimli bo'lsak, shuncha qudratli bo'lamiz.
Shavkat Mirziyoyev*

Bola nutqining to'g'ri shakllanishi asosan maktabda izga solinadi va to'laligicha takomillashadi.

Nutq — kishi faoliyatining turi, til vositalari asosida tafakkurini ishga solishdir. Nutq o'zaro aloqa va xabar funksiyasini, o'z fikrini his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta'sir etish vazifasini bajaradi.

Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishining aktiv faoliyatining muhim vositalaridan biridir, o'quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish qurolidir. Bolani psixik yoshdanoq ravon tilga gapirishga o'rgatish lozim.

Zamonaviy maktabda o'qituvchining jonli nutqiga texnik vositalar yordamga keladi. Ular nutq ifodaliligini oshiradi, hissiy ta'sirini kuchaytiradi. O'qituvchi nutqi bu holda go'yo birlashtiruvchi bo'lib qoladi: u kino, musiqa, foto ishlanma bilan birga idrok etiladi. O'qituvchi so'zi alohida tasviriy-ifodaviy sifatlarni ham aks ettiradi. Toki og'zaki nutq uni idrok etish jarayonida zudlik bilan tushunishni talab qilar ekan, o'ziga xos leksik-grammatik xususiyat ham kasb etadi.

Og'zaki nutq jumla va gaplarning kam so'zli bo'lishi hamda ohangdorligini talab qiladi. Tabiiyki, so'z talaffuzi, diksiya muammosi alohida dolzarblik kasb etadi. Yaxshi diksiya (aniq talaffuz) og'zaki nutqning fonetik va musiqiy jaranglashida juda muhim.

Sinf bilan doimiy muloqot og'zaki nutq sintaksisda o'ziga xos aks etadi: so'zlovchi ko'proq sodda gap turlarini qo'llaydi so'roq va undov gaplarga keng murojaat qiladi, oldingi gapning davomi bo'lgan gaplarni qo'llaydi. Og'zaki nutqda takror, gradatsiya (izchillik), mubolag'aviylik qiyoslash, turli ma'no ko'chishlar, kinoya nutqiy vositalar keng qo'llaniladi.

Yozma nutq manbai o'quvchining sinf oldidagi jamoaviy tinglovchiga mo'ljallangan og'zaki javoblaridir. Biroq boshlang'ich sinflarda shevaning keng qo'llanilishi natijasida talab darajasidagi ixtisoslashgan o'quv og'zaki nutq madaniyatiga erishish ancha mushkul. Yozma nutq og'zaki nutqdan bir qadar shakllanganligi, so'zlarning o'ta sinchkovlik bilan tanlab olinishi, grammatik jihatdan aniq, lekin murakkab shakllanganligi, og'zaki nutq uchun xos bo'lgan ohang, mimika va qo'l harakatlarining bevosita qo'llana olmasligi bilan ham farqlanadi.

Eng avvalo shuni ta'kidlab o'tishimiz kerakki, o'quvchilarning nutqini o'stirishda didaktik o'yinlarni tashkil etilishi o'rinlidir. Chunki o'yinli dars o'quvchilar uchun qiziqarli va sevimlidir. Shu o'yinlar tufayli o'quvchi eng avvalo maktabga, darsga qatnashga qiziquvchan bo'ladi. Bundan tashqari, har bir darsda javob berishga harakat qiladigan, puxta fikrlab so'ngra so'zlaydigan, o'qituvchi tomonidan yetkaziladigan har bir fikrga o'ta e'tiborli va o'zgaruvchan bo'lib boradi. Nutqni rivojlantirish shaxsni shakllantirishning zaruriy shartiga aylanadi. Shunday ekan, boshlang'ich ta'limda nutq o'stirish muammosi doimo diqqat markazida bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.N.Aminov, A.M.Majidov Tarbiya.
2. Umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf uchun darsliklar.
3. Internet tarmoqlari.



BOSHLANG'ICH SINFLARDA HIKMATLI SO'ZLARNING AHAMIYATI

Kengasheva Shaxlo Allaberdiyevna
Samarqand viloyati Samarqand shahar
57-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi
+99897396-75-50

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida hikmatli so'zlar orqali odob-ahloq meyorlarini shakllantirish asoslab berilgan. O'quvchilarni ma'naviy-ahloqiy jihatdan tarbiyalashda o'qish darsligida keltirilgan hikmatli so'zlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, so'z, hikmatli so'z, tarbiya, bilim, kompetensiya, rost-go'ylik, ezgulik, samarali natija.

So'z qudrati cheksiz. Shunday so'zlar borki, kishi qalbida o'chmas iz qoldiradi. Shunday kuchga ega so'zlar ham borki, ular insonlarni kurashga, rivojlanishga undaydi. Qalbdan chiqqan so'z qalbgga borib yetadi, shunchaki til uchida aytilgan so'z esa – quloqdan uyog'iga o'tmaydi.

**O'quv qut beradi, bilim sharaf-shon,
Shu ikkovi tufayli ulug'dir inson.**

Yusuf Xos Hojib

Hikmatli so'zlar – tugal fikrni anglatuvchi, o'tkir mazmunli qisqa va lo'nda ibora, bayt, jumla hisoblanadi. Maqollardan farqli ravishda hikmatli so'zlar kelib chiqishi ma'lum bir shaxs, yozuvchi, shoir, faylasuf, olim, davlat arbobi va boshqalarga mansub bo'lib, individualligini saqlab qoladi. Hikmatli so'zlarning ko'p qismi pand – nasihat, o'git, tanbeh sifatida bo'ladi.

Boshlang'ich sinf darliklarida berilgan hikmatli so'zlarning o'rni beqiyosdir.

Masalan, 3- sinf o'qish darsligining «Ulug'lardan o'rganmoq oqillik» bo'limini qaraydigan bo'lsak, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» hikmatlari bilan boshlangan.

Masalan,

Bilimni buyuk bil, uquvni ulug',

Bilim, uquv bilan odamzod qutlug'.

Murodga yetar bilimli kishi,

U dunyo, bu dunyo saranjom ishi.

Har bir inson yoshligidan orzular bilan yashaydi. Orzu - bolalik chog'idan boshlanadi. Kimdir uchuvchi, kimdir olim, kimdir kashfiyotlar qilgisi keladi. Lekin orzu orzuligicha qolib ketmasligi lozim. Orzu maqsadga aylanishi darkor. Maqsad yo'lida tinimsiz mehnat qilishi, o'qib o'rganishi va oldinga intilishi kerak. Shu tariqa ko'ngildagi orzuni maqsadga aylantiradi. Bunday intilish orqali u faqat maqsadga yaqinlashibgina qolmay, shu yo'ldagi safarbarlik tufayli o'zini ham ota – onasiga, ham xalqiga, ham Vataniga foydasi tegadigan inson tarzida tarbiyalab boradi. Bu jarayon to'xtamasa, inson bir kun kelib o'z sohasining eng mohir ustasiga aylanadi. Ilmi va mehnati, noyob iste'dodi bilan el- yurtga xizmat qilgan insonlarni ulug'lab, ular bilan faxr – iftixor qilishimizni boisi ham shundan.

Buyuklik – oddiylikdan bo'lgani kabi, insonning kamtarlik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, mehr – oqibatlilik fazilatlarini kundalik hayotda namoyon bo'lishidir. Mana shunday insonlarning niyati bitta, ezgu niyat, ezgu so'z, ezgu amaldir.

Har so'zni o'ylab ayt, boshing ketmasin,

Tilingni tiyib yur, tishing sinmasin.

Tilingni tiysang, sog'-u salomat boshing,

O'ylab aytsang so'zing, ziyoda yoshing.

Donishmandlar: «Sukut saqlash - donolikdir» deb bejizga aytmaydilar. Har ishning o'ziga xos odobi bo'lgani kabi, so'zlashning ham o'lechovi va odobi bordir. So'zga yolg'on qo'shish, birovning izzat – nafsiga tegadigan so'zlarni so'zlash va shunga o'xshash yaramas so'zlar zarar yetkazmasdan qolmaydi. Har qanday ofat, balo, kulfat boshimizga asosan tilimiz orqali kelishi haqida aytilgan. Shu o'rinda Yusuf Xos Hojibning quyidagi misralarini misol qilishimiz mumkin bo'ladi.

Qizil til qiladi qisqa yosh seni,

Esonlik tilasang, pishiq tut uni.

Qora boshga yovuz yovdir qizil til,

Ne – ne boshni yedi, yana egay, bil,



Boshingni o'ylasang, asragil tiling,
Istagan onida boshga yetar bil.

Demak, aytmoqchi bo'lgan gapimizni o'ylab, mulohaza qilib, gapirishimiz kerakligi haqida uqtirmog'imiz kerak. Har bir inson to'g'ri, chiroyli, ravon hamda ta'sirchan gapirishga intilishimiz kerak.

Shoshilma hech ishda sabr qil, sabr
Shoshilinch ish oxir jon uchun jabr.
Donoga ergashgan dovondan oshar.

Shoshmashosharlik keyin afsusga sabab bo'ladigan oqibatlariga olib keladi. Sabr - qanoat buyuk fazilat. Insonni yuksak darajalarga yetkazuvchi omillardan biri hisoblanadi. Shoshmashosharlik bilan qabul qilingan qaror har doim ham yaxshi oqibatlariga olib kelmasligini ta'kidlamog'imiz kerak. Demak, inson noshukr, shoshqaloq, hasis, nodon, betoqat, hadidan oshuvchi bo'lmasligi, balki sabrli, mulohazali, adolatparvar, insonparvar bo'lishi shart. Aks holda ziyon ko'rishi shart.

To'g'ri so'zga omad yor-u salomat,
Yolg'onchi boshida ming bir malomat.

To'g'ri ya'ni rost so'z o'z sohibini yaxshilik sari yetaklaydi. Albatta yolg'on so'z o'z sohibini yomonlik sari yetaklaydi. Rostgo'ylik insonning ma'naviy boyligi bo'lib, insonni hamisha oliy baxt sari yetaklaydi. Rostgo'y insonga hamma ishonadi. Yolg'onchilik barcha ishlarni buzadi va o'z egasining hurmatini va obro'sini to'kadi. Farzand tarbiyasida ota – onalar va ustozlar bolalarga umuman yolg'on gapirmasliklari zarur. Agar o'zlari yolg'on gapirsalar-u , yana rostgo'ylikni talab qilsalar hech qanday foydasi bo'lmaydi. Yolg'on va aldovni ko'rgan bolada o'zining murabbiylariga, qolaversa jamiyatga bo'lgan ishonchi va e'tibori yo'qoladi, pand – nasihatlar qadrligi bo'lmay qoladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, hurmat qozonish, kishilar o'rtasida obro' – e'tibor topishda insonning xulq – atvori muhim rol' o'ynaydi. Bilimdonlik, shirinsuxanlik, muioyimlik, rostgo'ylik va sabr kabi fazilatlar inson umrini bezaydi. Hikmatli so'zlar hayot yo'limizni yoritib turuvchi shamchiroqlardir. Kim nasihat qilsa, bas nasihat qilguvchi bizni o'yg'otibdi. Hayotimizni ziynatlashga ko'mak beribdi. Qalb ko'zimizning ochilishiga yordam beribdi.

Yolg'onchilik ko'payaversa jamiyatga tegadigan zarar undanda ulkan bo'ladi. Odamlar orasida bir biriga ishonch yo'qoladi, va'daga vafosizlik, xiyonat, tuhmat, yolg'on guvohlik berish oddiy holga aylanadi. Oilalarda va jamiyatda bir – biriga ishonchsizlik ortsa, ahillik yo'qoladi. Bu narsalar kelgusi avlodga ham ta'sir ko'rsatmay qolmaydi va ma'naviy qashshoqlikka olib keladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoev Sh.M. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF 4947-sonli Farmoni // "Xalq so'zi" gazetasi, 2017 yil 8 fevral.
2. Husanboyeva Q. Tahlil - adabiyotni anglash yo'li. – Toshkent: "Muharrir", 2013. 432 b
3. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva SH., Sariev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. Darslik. - T.: "Noshir", 2009.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 34-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(10-қисм)

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.11.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000